



ALFRAGANUS UNIVERSITY

Ushbu darslikda boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, fanlararo integratsiyani tashkii etish, zamonaviy ta'lim metodlari asosida o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarining ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari yoritligan.

Darslik pedagogika yo'nalishi talabalari, magistrantlar, tadqiqotchilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va pedagogika sohasi mutaxassislari uchun mo'ljallangan.



 www.alfraganus.edu.uz

 info@alfraganus.edu.uz

 +998 71 207 76 76

 Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Kichik halqa yo'li, 17-uy

ISBN 978-9943-9987-0-6



9 789943 998706



ALFRAGANUS
UNIVERSITY


BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA

DARSLIK



Qurbonova Maftuna Faxriddinovna
Omonova Muxlisa Do'stnazar qizi

TOSHKENT – 2026



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
“ALFRAGANUS UNIVERSITY ” NODAVLAT OLIY TA’LIM
TASHKILOTI**

**Qurbonova Maftuna Faxriddinova
Omonova Muxlisa Do’stnazar qizi**

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA

Darslik

*Oliy o‘quv yurtlarining Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim
yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan*

**ZEBO PRINTS
Toshkent-2026**

UO‘K 371.075.78

KBK

Qurbonova M.F., Omonova M.D. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya va integratsiya. Darslik. -T.: “ZEBO PRINTS”, 2026. 180 b.

Ushbu darslik boshlang‘ich ta‘limni zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mazmuni innovatsion yondashuvlar va fanlararo integratsiyaning nazariy-uslubiy jihatlarini qamrab oladi. Mualliflar milliy ta‘lim tizimi ehtiyojlari va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni tizimli ko‘rib chiqadilar. Darslikning birinchi bo‘limida innovatsion ta‘limning falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari, shuningdek, boshlang‘ich ta‘limda raqamli transformatsiya tendensiyalari tahlil qilinadi. Ikkinchi bo‘limda fanlararo integratsiyaning metodologik modeli, uning loyihaviy, tadqiqot va o‘yinli texnologiyalar orqali amaliyotga tatbiq etilishi masalalari yoritiladi. Har bir mavzu nazariy materiallar, amaliy topshiriqlar, diagnostik vositalar va sinfdan tashqari ishlar uchun metodik tavsiyalar bilan ta‘minlangan. Darslik, shuningdek, STEAM-yondashuv, *teskari sinf* (flipped classroom), differensial o‘qitish kabi ilg‘or usullarni boshlang‘ich sinf sharoitiga moslashtirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Asar o‘qituvchilar, metodistlar va boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun qimmatli metodik manba hisoblanib, u an‘anaviy va zamonaviy ta‘lim mazmunini uyg‘unlashtirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma’sul muharrir: "Pedagogika" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **M.D.Abdullayeva**

ISBN

© Qurbonova M.F. va b., 2026

© “Zebo prints”, 2026

Kirish

Zamonaviy jamiyatning tez o'zgaruvchanligi, raqamlashuv darajasining ortishi va bilim iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ta'lim tizimiga yangicha talablarni qo'ymoqda. Bugungi boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga nafaqat an'anaviy savodxonlik va hisoblash ko'nikmalari, balki algoritmik fikrlash, ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, ijodiy muammolarni hal qilish va sun'iy intellekt muhitida samarali ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich ta'lim mazmuni va metodikasi qayta ko'rib chiqilishi, uning asosida **innovatsion yondashuvlar** va **fanlararo integratsiya** prinsiplari yotishi zarur.

Innovatsiya ta'lim jarayoniga qaratilgan sifatli yangilik sifatida, nafaqat raqamli vositalarni joriy etish, balki pedagogik g'oya, uslub va baholash tizimlarini maqsadli o'zgartirishni anglatadi. **Integratsiya** esa turli fanlar o'rtasidagi sun'iy bo'linishni bartaraf etish, ularning asosiy tushuncha va ko'nikmalarini mazmunan birlashtirish orqali ta'lim mazmunini yaxlitlashtirish, o'quvchilarning dunyoqarashini tizimli shakllantirishga qaratilgan pedagogik strategiyadir. Innovatsiya va integratsiya bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar bo'lib, ulardan biri sifatli o'zgarishning mazmuni, ikkinchisi esa uni amalga oshirishning tizimli vositasidir.

Mazkur darslik ushbu ikki tamoyilning o'zaro bog'liqligini nazariy asoslash va amaliy qo'llash yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan. Asarning birinchi qismida ta'lim **innovatsiyalarining** falsafiy, psixologik va didaktik asoslari yoritiladi, bolalarning yosh rivojlanish xususiyatlariga mos, raqamli transformatsiya sharoitida samarali bo'lgan pedagogik modellar tahlil qilinadi. Ikkinchi qism **fanlararo integratsiyaning** metodologik modeliga bag'ishlanib, STEAM-yondashuv, loyihaviy ta'lim, tadqiqot va o'yinli texnologiyalar orqali turli fan maydonlarini qanday uyg'unlashtirish mumkinligi haqida amaliy tavsiyalar beradi. "Teskari sinf" (flipped classroom) va differensial o'qitish kabi metodlarni boshlang'ich sinf sharoitida qo'llashning aniq algoritmlari keltirilgan.

Darslikning afzalligi shundaki, u har bir nazariy qismni amaliy qo'llanma bilan mustahkamlaydi. Har bir mavzu uchun didaktik materiallar, diagnostik vositalar va sinfdan tashqari tadbirlar uchun tayyor rejalar taklif etiladi. O'qituvchilar uchun ushbu resurs nafaqat yangi g'oyalar manbai, balki ularni bosqichma-bosqich o'z faoliyatiga tatbiq etish imkonini beruvchi tizimli qo'llanmadir.

Ushbu darslik boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab metodistlari va pedagogika yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Undagi materiallar o'zbek milliy ta'lim an'alarini xalqaro pedagogik yutuqlar bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy talablarga javob beradigan va milliy ruhiyatga mos o'qitish modellarini yaratishga xizmat qiladi.

1-MAVZU: Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya fanining mazmuni, predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot ob'yekti.

Boshlang'ich ta'lim – o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor bo'ladigan jarayon bo'lib, unda zamonaviy innovatsion yondashuvlar, fanlararo integratsiya, kompetensiya tamoyillariga asoslangan metodlar muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya fani zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlarini, yangicha pedagogik yondashuvlarni, fanlararo bog'liqlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganadi. Mazkur fan boshlang'ich sinflarda o'qitish samaradorligini oshirishga, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga, dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Fan ta'lim tizimida yuz berayotgan globallashtirish, raqamlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va integratsiya jarayonlarini chuqur tahlil qiladi hamda bo'lajak o'qituvchilarga ularni o'z faoliyatida to'g'ri qo'llash usullarini o'rgatadi.

“Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” fanining **predmeti** — boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar, integratsion yondashuvlar, darsni tashkil etishning samarali shakllari va o'qituvchi faoliyatining zamonaviy metodlarini o'rganishdan iborat. Bu predmet o'zida dars mazmuni, ta'lim shakllari, o'qitishning texnologik asoslari, fanlararo bog'lanish imkoniyatlari, o'quv faoliyatining interfaol modellarini birlashtiradi.

“Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” fanining **metodologiyasi** konstruktivizm, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim hamda zamonaviy raqamli pedagogikaning ilmiy asoslariga tayanadi. Innovatsion metodologiya ta'lim jarayonini yangilashni, o'quvchi shaxsining fikrlash, tahlil qilish, mustaqil o'rganish, amaliy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda

tutadi. Integratsion metodologiya esa turli fanlar mazmunini yaxlit o'quv tizimiga birlashtirish, darslar davomida mavzular integratsiyasini ta'minlash, fanlararo aloqadorlik orqali o'quvchilarda keng dunyoqarashni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

“Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” fanining **ilmiy-tadqiqot ob'yekti** boshlang'ich ta'lim jarayoni, o'quvchilarning bilish faoliyati, darsning mazmuniy va texnologik qurilishi, pedagogik jarayonning innovatsion imkoniyatlari hamda ta'limdagi integratsiya mexanizmlaridir. Ob'yekt sifatida shuningdek boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati, uning o'quvchilar bilan ishlash usullari, o'qitish vositalari, raqamli resurslar va ta'lim muhiti ham qaraladi.

“Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” fan doirasida qo'llaniladigan tadqiqot metodlari o'quv jarayonidagi natijalarni ilmiy asosda o'rganish uchun xizmat qiladi. **Ilmiy-tadqiqot metodlari** ikki yo'nalishga ajraladi: nazariy va empirik metodlar. Nazariy metodlarga tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konseptual modellash kiradi. Empirik metodlarga pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, diagnostika, pedagogik eksperiment, dars tahlili, loyihaviy faoliyat natijalarini o'rganish kabi usullar kiradi. Statistik metodlar esa ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni raqamli ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

Pedagogik eksperiment, diagnostik testlar, monitoring, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, baholash mezonlarini solishtirish kabi usullar boshlang'ich ta'limda samaradorlikni aniqlashning muhim vositalaridir. Interfaol metodlar, integratsiya darajasi, o'qitish texnologiyalari, o'quvchining bilish faolligi kabi omillar ilmiy tahlil qilinib, dars jarayonini takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqariladi. Mazkur metodlar yordamida o'quv jarayoniga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning samaradorligi aniqlanadi, integratsiya asosida tashkil etilgan darslarning ta'siri o'rganiladi va ilmiy xulosalar chiqariladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fanining tarixi: Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixida alohida o'rin egallaydi. Xususan, Forobiy, Beruniy kabi allomalar ta'limning tarbiyaviy, kamolotga yo'naltirilgan, shaxsni fikrlashga undovchi mohiyatini birinchi bo'lib ilmiy asoslab berganlar. Beruniy fikricha, haqiqiy tarbiyalovchi ta'limdir; u kuzatuvchanlikni, fikrlashni, xotirani, nutqni va tasavvurni rivojlantirib, insonni hayotiy faoliyatga tayyorlaydi. Ushbu qarashlar zamonaviy pedagogikaning ko'plab tamoyillariga, xususan, tarbiyalovchi ta'lim, o'quvchi shaxsini rivojlantirish, faol bilish metodlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqa allomalarning Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqa allomalarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish g'oyalari boshlang'ich ta'lim pedagogikasining shakllanishiga muhim poydevor bo'lgan.

XX asr boshlarida jadid ma'rifatchilari — Behbudiy, Avloniy, Fitrat tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etilib, ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlar joriy etildi. Bu davr o'zbek pedagogikasida innovatsion tafakkurning boshlanishi sifatida e'tirof etiladi. Sovet davrida boshlang'ich ta'lim qat'iy standartlarga asoslangan bo'lib, darslar an'anaviy metodlar bilan olib borilgan, integratsiya cheklangan edi. Mustaqillikdan so'ng ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga katta e'tibor berildi: yangilangan davlat ta'lim standartlari qabul qilindi, kredit-modul tizimi joriy qilindi, AKT vositalari keng qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda esa Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'lim tajribalari o'rganilib, ulardagi innovatsion va integrative yondashuvlar milliy tizimga tatbiq qilinmoqda. Pedagogika tarixida didaktik tamoyillar alohida o'rin tutadi. Har bir davrning o'ziga xos tamoyillari ta'lim maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning psixologik xususiyatidan kelib chiqqan. Masalan, A.Y.

Komenskiy ilgari surgan “tabiatga muvofiqlik” tamoyili o‘z davrida yetakchi bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik sharoitlar o‘zgarishi bilan uning amaliy ahamiyati qisqargan, o‘rniga yangicha tamoyillar — tarbiyalovchi ta’lim, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ongli o‘zlashtirish kabi tamoyillar kuchaygan.

O‘zbekiston ta’lim tarixida mustaqillikdan keyingi davr boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining rivojlanishida tub burilish bosqichi bo‘ldi. 1997-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim tizimining yagona huquqiy asosini belgilab, boshlang‘ich ta’limning maqsadi, vazifalari, o‘qitish tamoyillari, ta’lim sifati va mazmuniga oid davlat talablari aniq belgilandi. Shu yili tasdiqlangan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” esa respublika ta’lim tizimining modernizatsiyasini boshlab berib, ta’limning uzluksizligi, bosqichma-bosqich rivojlanishi, o‘quv dasturlari va darsliklarni yangilash, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini oshirish kabi tamoyillarga asos soldi. 2020-yilda yangilangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’limni raqamlashtirish, innovatsion metodlarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya va o‘qituvchi huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish kabi zamonaviy talablarga asos bo‘ldi. 1998-yildan boshlab joriy etilgan Davlat ta’lim standartlari boshlang‘ich ta’limning mazmuni, o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar va integratsiya yo‘nalishlarini belgilab berdi, 2020-yildan esa kompetensiyaga asoslangan yangi DTSlar kuchga kirdi.

Davlat ta’lim standartlarining takomillashuvi bilan birga boshlang‘ich ta’lim mazmuni ham bosqichma-bosqich yangilanib bordi. O‘quv dasturlariga kompetensiyaviy yondashuv kiritildi, bunda bilimni yodlash emas, balki uni amalda qo‘llash, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv asosiy natija sifatida belgilandi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar zamonaviy pedagogik talablar asosida qayta ishlanib, interfaol topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlar, fanlararo bog‘lanish

imkoniyatlari kengaytirildi. Bu jarayon o'qituvchidan yangicha pedagogik fikrlashni, innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishni, darsni loyihalash va tahlil qilish malakalarini talab qila boshladi.

“Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- mazkur fan o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim muhitini boshqarish, o'quvchilarning faol bilish jarayonini tashkil etish;
- darsda integratsiyalashgan materialdan foydalanish;
- raqamli vositalar asosida ta'lim jarayonini qurish kabi ko'nikmalar bilan qurollantirish;
- boshlang'ich ta'limga oid metodik tajribalarni tahlil qilish;
- ilg'or xorijiy yondashuvlarni o'rganish, ularni mahalliy sharoitda qo'llash yo'llarini aniqlash;
- fan o'quvchilar yoshiga mos psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etish;
- o'quvchilarda barqaror motivatsiya va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ham vazifa qilib oladi.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimi. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim o'quvchining shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqich bo'lib, u 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi — o'quvchilarda savodxonlik, nutqiy rivojlanish, o'qish texnikasi, elementar matematik tushunchalar, hayotiy ko'nikmalar va madaniy xulq-atvorning boshlang'ich asoslarini shakllantirishdan iborat. Ta'lim jarayoni Davlat ta'lim standartlariga asoslanadi, pirovard natija sifatida o'quvchining kompetensiyalari — kommunikativ, axborot bilan ishlash, ijodiy, ijtimoiy faol va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari shakllanishi ko'zda tutiladi.

Dars jarayonida fanlararo integratsiya alohida ahamiyatga ega bo'lib, “Ona tili va o'qish savodxonligi”, “Atrof-muhit”, “Texnologiya”, “Matematika”, “San'at” fanlari o'rtasida tabiiy bog'lanishlar yuzaga keltiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar, ekologik madaniyat, sog'lom turmush tarzi, axloqiy

me'yorlar asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. O'qituvchining kasbiy faoliyatini yaxshilash maqsadida malaka oshirish tizimi takomillashtirilib, maktablarda zamonaviy AKT vositalari joriy etilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'qitish jarayoniga STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) elementlari, loyihaviy ta'lim, muammoli vaziyatlar orqali o'rta tashlangan savollar asosida o'rgatish tizimi kirib kelmoqda. Bu jarayon o'quvchining mantiqiy fikrlashini kuchaytiribgina qolmay, balki uni mustaqil izlanishga, qaror qabul qilishga, jamoada ishlashga o'rgatadi.

Xorijiy mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi boshlang'ich ta'limni samarali tashkil etishda muhim o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda boshlang'ich ta'limning umumiy tamoyillari — o'quvchi shaxsini qo'llab-quvvatlash, erkin fikrlashni rivojlantirish, hayotiy tajribaga asoslangan o'qitish, o'yin metodlari va texnologiyalarni keng qo'llashdir. Finlyandiya ta'limida bosqichma-bosqich o'rgatish, baholashning stresssiz modeli, o'qituvchilarning yuqori malakasi asosiy afzallik hisoblanadi. Yaponiya va Koreyada esa texnologik yondashuv, elektron resurslar, multimedia darslari va mehnatsevarlikni shakllantirish ustuvor o'rin tutadi. Germaniyada boshlang'ich ta'lim individual rivojlanish, loyihaviy ishlar va faol ishtirok tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Ushbu xorijiy tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan uyg'un bo'lib, integratsion darslar, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchini faol bilish jarayoniga jalb etish kabi yo'nalishlarning takomillashuviga xizmat qilmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya fanining mazmuni va predmeti nimalardan iborat?

2. “Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya va integratsiya” fanining metodologiyasi tarkibidagi konstruktivizm, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va kompetensiyaviy yondashuvning asosiy g‘oyalarini tushuntiring.
3. O‘zbekiston ta‘lim tizimida Davlat ta‘lim standartlarining yangilanishi boshlang‘ich ta‘lim mazmuniga qanday o‘zgarishlar kiritgan?
4. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining tarixi” mavzusi bo‘yicha Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) qarashlarining o‘xshash va farqli jihatlari haqida **qisqa taqqoslovchi jadval** tuzing.
5. O‘zbekiston va biror xorijiy davlat (Finlyandiya, Yaponiya yoki Janubiy Koreya) boshlang‘ich ta‘lim tizimini **3 mezon** bo‘yicha taqqoslab yozing: a) ta‘lim maqsadi, b) o‘qitish yondashuvi, c) baholash usuli.

2-mavzu: Boshlang‘ich maktabda pedagogik jarayonning zamonaviy tendensiyalari va texnologiyalari.

Boshlang‘ich maktabda pedagogik jarayon bugungi kunda jadal o‘zgarib, zamonaviy tendensiyalar asosida rivojlanib bormoqda. Ta‘lim jarayonining modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalar kirib kelishi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning kuchayishi va fanlararo integratsiyaning keng qo‘llanishi boshlang‘ich ta‘limning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Pedagogik jarayonning zamonaviy tendensiyalari, eng avvalo, o‘quvchining faol ishtirokini ta‘minlash, darsni bir tomonlama o‘qituvchi monologiga emas, balki o‘quvchi faoliyatiga tayanadigan ko‘p qirrali jarayonga aylantirishni talab qiladi. Bunda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim muhim o‘rin tutadi. Har bir o‘quvchining qiziqishlari, psixologik xususiyatlari, bilish sur‘ati va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ta‘lim berish, zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyiliga aylangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir xil metod bilan o‘rganmaydi; kimdir tasvir orqali, kimdir o‘yin orqali, boshqasi esa

tajriba orqali tezroq o'zlashtiradi. Shu sababli dars jarayonida differensial yondashuv, mustaqil topshiriqlar, uch darajadagi o'quv materiallari qo'llanilishi odatiy holga aylanmoqda.

Pedagogik jarayonning yana bir muhim tendensiyasi kompetensiyaviy yondashuvdir. Bu yondashuv o'quvchining bilim olish jarayonini oddiy yodlashga emas, balki bilimni amaliyotda qo'llay olishga yo'naltiradi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchi o'qish texnikasini bilishi yoki arifmetik amallarni bajarishi yetarli emas; u o'qigan matn mazmunini tahlil qila olishi, hayotiy vaziyatlarga mos yechim topishi, matematik masalani real hayot misollari orqali tushuna olishi kerak. Shu asosda darslar tobora hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilmoqda. Masalan, matematika darsida oddiy misollar o'rniga do'kon, vaqt, masofa yoki kundalik hayotga oid masalalar berilishi, o'quvchining fikrlash va bog'lanish o'rnatish qobiliyatini kuchaytiradi.

Innovatsion ta'limning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat: ta'limning ochiq istiqbol, qadriyatlarni baholay olish, yangi vaziyatlarga kirisha olish. Innovatsion ta'lim qirralari quyidagi jadvalda keltirilgan: Bu holat o'qituvchidan pedagogik faoliyatdagi innovatsion xulqni talab etadi. V.A. Slastenin va L.S.Podimovalarning ishlarida keltirilgan psixologik nazariyaga oid ma'lumotlarga ko'ra o'qituvchilarning innovatsion faoliyatiga xalaqit beruvchi quyidagi sabablar mavjud:

1. Pedagog tomonidan tanaffuslarning maqsadi tushuntirilmasligi. Noaniqlik va ikkifikrlilik o'qituvchida yangilikka nisbatan qo'rqinch hissini uyg'otadi.

2. Yangilikning kiritilishi va amalga oshirilishida pedagoglarning ishtirok etmasligi.

3. Jamoada mavjud an'analarni hamda ishlash uslubining o'zgarishi.

4. Yangiliklarga subyektiv yondashuv.

5. Ish hajmining ortishi. Bu holatning bo'lish xavfi asosan tajriba rahbarining faoliyati oldindan rejalashtirilganligi.

6. Yangilikni olib kiruvchi nisbatan ishonchsizlik, hurmatning talab darajasida emasligi. Afsuski, o'qituvchilar asosan yangilik mazmuniga emas, balki uning muallifiga e'tibor qaratishadi.

Innovatsion faoliyatning subyekti - o'qituvchining shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda pedagog shaxsining ijtimoiy, madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv inson tomonidan yaratilgan pedagogic qadriyatlarni anglatadi. Aksiologik yondashuv insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. Ma'lum bo'lishicha, amaliyotda yo'l ko'rsatuvchi pedagogik nazariyamizning asosiy kamchiliklaridan biri bilim va ta'limning ustunligini qattiq bo'rttirib (kuchaytirib) yuborishdadir. Insonning ma'naviy tarbiyasida yodlab olish hajmi ko'payib borishi maktab hayotida odatiy hoi bo'lib qoldi. Hozirgi tarbiya nazariyasi va u boshqarayotgan amaliyotning hamma belgilari bo'yicha inqiroz holatda ekani ko'rinib turibdi. Bu holatdan chiqish uchun bo'lgan har qanday harakat innovatsion deb hisoblanyapti va bu holda ular o'z nomlariga mosdir. Innovatsion pedagogikani ko'pincha an'anaviy, muqobil pedagogika deb ataydilar. Bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas, hech bo'lmaganda eng oddiy tushunchalar bo'yicha: sinf ham, o'qituvchi ham va dars mazmuni va darsliklar yo'qolib ketmaydi-ku. Agarda, pedagogik tizim saqlanib qolsa, unda faqat uni mukammallashtirish haqida gapirish mumkin.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'nalishi ikkita: **intensiv** va **ekstensiv**. Intensiiv rivojlanish pedagogic tizimni ichki imkoniyatlarini amalga oshirish hisobiga. Ekstensiv rivojlanish esa qo'shimcha kuchlar jalb etish - ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi. Pedagogika

leologiyaning intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblaydi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat. G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi informatsion texnologiyalarj vaqtni turli xil o'quv faoliytlariga taqsimlash, sinfdagi differensiatsiya va indiyduallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda.

Pedagogik tizimda innovatsion tuzilmalarining bosh yo'nalishi:

- yaxlit pedagogik tizim;
- o'quv yurti;
- pedagogik nazariya;
- o'qituvchi;
- o'quvchilar;
- pedagogik texnologiya;
- mazmun;
- shakl, metodlar, vositalar;
- boshqaruv;
- maqsad va natijalardan iborat.

Tizim osti tuzilmalarning chuqurligi bo'yicha innovatsion yangi kiritmalarning mohiyati, sifati va maqsadga muvofiqligi haqida xulosa qilish mumkin

Refleksiv-innovatsion texnologiyalarning barcha ko'rinishlarini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Yangi g'oyalar izlash bosqichi.
2. Yangiliklar yuzaga keltirish bosqichi.
3. Yarigiliklar kiritishni amalga oshirish.
4. Yangiliklarni mustahkamlash bosqichi.

Fanlararo integratsiya ham zamonaviy pedagogik jarayonning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi atrof-muhitni yaxlit holda idrok etadi, shuning uchun ta'lim jarayoni ham imkon qadar yaxlit bo'lishi zarur. Tasviriy san'at, ona tili, matematika va atrof-muhitni birlashtirib o'tiladigan darslar, bir mavzuni turli

yo'nalishlarda ochib berishga yordam beradi. Masalan, barglar mavzusi biologik xususiyatlar orqali atrof-muhit darsida o'rganilsa, tasviriy san'atda ularning shakli chiziladi, ona tilida barg haqidagi matn o'qiladi, texnologiya darsida barg shaklida karton kompozitsiya tayyorlanadi. Bunday integratsiya o'quvchilarda tabaqalashtirilgan tasavvurlarni bitta mavzu asosida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar kirib kelishi boshlang'ich ta'limda yangi bosqichni boshlab berdi. Elektron darsliklar, videodarslar, audiomateriallar, onlayn testlar, QR-topshiriqlar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Planshet yoki kompyuter orqali interfaol mashqlar bajarilishi, animatsiya yordamida murakkab mavzularni oson tushuntirish o'quvchilarni faol ishtirokchi qiladi. Raqamli texnologiyalar ayniqsa savod o'rgatish, matematika va atrof-muhit darslarida ko'p qo'llanmoqda.

Pedagogik jarayonda o'quv-pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'qituvchidan darsni aniq rejalashtirishni, metodlarni to'g'ri tanlashni va o'quvchilarning yosh xususiyatiga moslashtirishni talab qiladi. Interfaol metodlar, modul texnologiyasi, loyihaviy ta'lim, STEAM yondashuvi kabi texnologiyalar boshlang'ich sinfda darsni jonlantiradi. Masalan, STEAM yondashuvida o'quvchilar oddiy tajriba o'tkazish, tasviriy ish bajarish, matematik o'lchashlar qilish va kichik loyihalar yaratish orqali mavzuni chuqurroq anglaydi. Loyiha asosida ishlash esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mas'uliyat bilan ish qilishga, amaliy natija yaratishga o'rgatadi. Bu texnologiyalar ham aqliy, ham ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuga oid amaliy jarayonlarda o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi alohida o'rin tutadi. Shaxsning rivojlanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning uyg'unlashuvi natijasida ro'y beradi. Boshlang'ich sinf davri bolaning nutq, tafakkur, xotira, diqqat, ijtimoiy muloqot va axloqiy tasavvurlari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning psixologik holatini, tengdoshlari bilan munosabatini, o'z fikrini ifoda etish darajasini

kuzatib borishi, zarur joylarda yordam berishi va mos metodlarni qo'llashi kerak. Ijtimoiylashuv jarayonida guruh ishlari, o'yinlar, juftlikdagi mashqlar, kichik loyihalar o'quvchilarni jamoada ishlashga, o'zaro hurmatga, fikr ayta olishga o'rgatadi. Misol uchun, kichik guruhlarda bajariladigan "Bizning maktabimizni obodonlashtirish" loyihasida har bir o'quvchi o'z roliga ega bo'ladi: kimdir rasm chizadi, boshqasi matn yozadi, yana boshqasi loyiha mazmunini taqdim etadi. Bunday yondashuv faqat o'quv jarayonini boyitibgina qolmay, balki o'quvchining tarbiyaviy rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinfda shaxsning tarbiyasi va rivojlanishiga oila, maktab va jamiyatning o'zaro hamkorligi ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchi maktabda olgan bilimlarini oilada davom ettiradi, jamiyatda esa amalda qo'llash imkoniyatini topadi. Demak, tarbiya jarayoni uzluksiz va ko'p qirrali bo'lib, o'qituvchi uning bosh koordinatorlaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi bolaga nafaqat bilim beradi, balki madaniyat, axloq, odob, muloqot, ekologik onglik kabi sifatlarni singdiradi. Shu tariqa zamonaviy pedagogik jarayon boshlang'ich sinf o'quvchisining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayoni, avvalo, pedagogik jarayonni boshqarishning yangi paradigmasiga asoslanadi. Bu paradigma o'qituvchini markaziy shaxs sifatida emas, balki o'quv jarayonini yo'naltiruvchi, tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida ko'radi. O'quvchi esa tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol biluvchi, izlovchi, tajriba qiluvchi subyektga aylanadi. Ta'lim jarayoni o'quvchining mustaqil fikrlashi, dunyoni idrok etishi, muammolarni hal qila olishi, muloqotga kirisha olishi kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu esa darsning har bir bosqichini qayta ko'rib chiqishni, o'qituvchidan mazmun, metod va texnologiyalarni puxta tanlashni, o'quvchidan faol ishtirokni talab qiladi.

Bugungi pedagogik tendensiyalarning yana bir muhim tomoni — o'quvchi faoliyatining ko'rinishini kengaytirishdir. An'anaviy darslarda o'quvchi ko'proq tinglovchi rolini bajargan bo'lsa, zamonaviy yondashuvda u darsning har bir bosqichida faol ishtirok etadi: topadi, taqqoslaydi, tahlil qiladi, sinaydi, izohlaydi, tajriba qiladi va xulosa chiqaradi. Shu tariqa o'quvchi o'qituvchi aytib bergan bilimni emas, balki o'zi kashf etgan bilimni o'zlashtiradi. Bu jarayon psixologik nuqtai nazardan ham mustahkamroq o'zlashtirishga olib keladi, chunki inson o'zi topgan bilimni eslab qolishga moyil bo'ladi. Zamonaviy pedagogik jarayonning yana bir diqqatga sazovor jihat — o'quvchilarning bilish faoliyatida motivatsiyaning ustuvorligi. Motivatsiyaga asoslangan ta'limda o'quvchi uchun darsning qiziqarliligi, hayotiyliigi, amaliy foydasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Bunda gamifikatsiya, muammoli vaziyatlar, hayotiy misollar, loyihalar, ijodiy topshiriqlar motivatsiyani oshirishning samarali vositalari hisoblanadi. O'quvchi o'z faoliyatining natijasini ko'ra olganida, uning ta'limga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi.

Pedagogik jarayonning zamonaviy tendensiyalari orasida fanlararo integratsiya alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchi atrofidagi olamni bo'laklarga ajratib emas, balki yaxlit holda qabul qiladi. Shu sababdan darslar ham yaxlitlikni ta'minlagan holda tashkil etilishi lozim. Masalan, "Barglar" mavzusini faqat atrof-muhit darsida o'rganish bilan chegaralanish yetarli emas. Uni tasviriy san'atda rasm chizish orqali, o'qish darsida matn bilan tanishish orqali, texnologiya darsida barg shaklidan kollej tayyorlash orqali, matematika darsida barglarni guruhlariga ajratish orqali boyitish mumkin. Integratsiya nafaqat bilimni kengaytiradi, balki o'quvchining mantiqiy fikrlashi, bog'lanishlarni topishi, mavzuni turli qirrada tushunishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatiga tayangan holda ta'lim berishning muhim vositalaridan yana biri — muammoli ta'limdir. Muammoli vaziyatlar o'quvchini o'ylashga, izlanishga, faraz

qilishga, sinab ko'rishga majbur qiladi. Muammoli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi tayyor javobni emas, balki savolni ko'radi, vaziyatni tahlil qiladi, farazlar ilgari suradi va eng maqbul javobni topadi. Misol uchun, "Agar o'simlikka suv quyilmasa nima bo'ladi?" kabi savollar o'quvchini real tajribaga yetaklaydi va bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Pedagogik jarayonning yana bir muhim tendensiyasi — raqamli pedagogika hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi boshlang'ich maktab darslarini tubdan o'zgartirdi. Videodarslar, audio materiallar, elektron darsliklar, simulyatsiyalar, interfaol o'yinlar, virtual tajribalar, QR-kodli topshiriqlar o'quvchilar uchun bilimni ko'rish, eshitish va bajarish orqali ham o'rganish imkonini beradi. Raqamli vositalar o'quvchining tasavvur doirasini kengaytiradi, mavzularni jonlantirib ko'rsatadi va darsni qiziqarli qiladi. Bunday vositalar ayniqsa murakkab mavzularni osonlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv-pedagogik texnologiyalar ushbu jarayonlarning barqaror ishlashini ta'minlovchi metodik poydevor hisoblanadi. Ta'lim texnologiyalari aniq maqsad, reja, bosqichlar va natija bilan ishlaydi. Masalan, modul texnologiyasi o'quv materialini kichik, mantiqiy bloklarga ajratish orqali o'quvchining mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. STEAM texnologiyasi esa ilmiy, texnik, matematik va san'at elementlarini uyg'unlashtirib, o'quvchining ijodiy va mantiqiy fikrlashini birgalikda rivojlantiradi. Loyiha texnologiyasi o'quvchini natijaga yo'naltirilgan faoliyatga jalb qiladi; masalan, "Mening mahallam", "Sog'lom turmush tarzi" yoki "Olamning ranglari" loyihalarida o'quvchilar izlanadi, yozadi, chizadi, o'lchaydi, taqdim qiladi va xulosa qiladi. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki mustaqil, ijtimoiy faol shaxs bo'lishiga yordam beradi.

Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi ham zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Boshlang'ich sinf — bola o'z xatti-harakati, nutqi, fikrlashi, emotsional olami va ijtimoiy munosabatlari shakllanadigan davrdir. Maktab muhitida

bola o'zini jamoaning bir qismi sifatida his qiladi, o'rtoqlari bilan muloqot qiladi, o'z fikrini ifoda etishni o'rganadi, ijtimoiy rollarni egallaydi. O'qituvchining vazifasi — har bir o'quvchining rivojlanishini kuzatish, kerak bo'lsa yordam ko'rsatish, tarbiyaviy jarayonni izchil davom ettirish, o'quvchini ijtimoiy hayotga moslashtirishdir. Bu jarayon o'quvchining qobiliyatini namoyon etishga, o'z o'rnini topishga, jamoada faol bo'lishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogika — bu ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiylashuvni ta'minlash uchun yangi, ilg'or yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etishni maqsad qilgan pedagogik faoliyatning bir turi sifatida qaraladi. Innovatsion pedagogika pedagogik jarayonni yangilash va rivojlantirishning nazariy va amaliy yechimlaridan iborat bo'lib, yangi texnologiyalar va pedagogik metodlarning integratsiyasini o'z ichiga oladi. Innovatsiyalar — bu faqat yangi g'oyalar, metodlar va uslublar bilan ta'lim tizimini boyitish emas, balki mavjud pedagogik amaliyotlar va tizimlarda yangi, samarali texnologiyalarni ishlab chiqish, ulardan foydalanish va amalga oshirishni anglatadi.

XX asrning 60-yillarida AQSH va G'arbiy Yevropada «ta'lim texnologiyalari» tushunchasi joriy etilganidan keyin pedagogikada innovatsion faoliyatning rivoji boshlandi. Pedagogik innovatsiyalar markazlari tashkil etildi, pedagogika fani va amaliyotida yangilanish va islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, pedagogik tizimda innovatsiyalarni kiritish orqali ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, uning samaradorligini oshirish va shaxsiy rivojlanishga erishish muhim omil bo'ldi.

Innovatsion pedagogika tushunchasi, ayniqsa, ta'lim jarayonini yangilash uchun zarur bo'lgan texnologik va pedagogik yondashuvlarni kiritish orqali kengaygan. Bu yondashuvlar pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga, ijtimoiylashuvni ta'minlashga va yangi shaxsiy rivojlanish mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi. Innovatsiyalarning kiritilishi o'z navbatida, o'qituvchining pedagogik faoliyatini yangilash, yangi metodlar va

texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Innovatsiya va novatsiya o'rtasidagi farqni tushunish muhimdir. Novatsiya, odatda, qisqa muddatli va tizimning ba'zi elementlarini yangilashni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, innovatsiya tizimli, yaxlit va davomiy o'zgarishlarni ifodalaydi, bu esa amaliyotning butun tizimini qayta qurish, yangi texnologiyalar yaratish va faoliyatning sifat natijalarini yaxshilashga olib keladi. Innovatsion jarayon esa bu o'zgarishlarga tayyorlanish va ularni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

Innovatsion pedagogik faoliyatning markaziy maqsadi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishdir. Bu jarayon pedagogik faoliyatning ijodiy va innovatsion yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonining innovatsion yondashuvlarini amalga oshirishda o'qituvchining psixologik tayyorgarligi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga tayyorligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda, ularning yangi g'oyalarni va pedagogik texnologiyalarni qabul qilishga tayyorligi muhimdir.

Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, pedagogik tizimda mavjud bo'lgan metodlarni yangilash va ularni yangi, ilg'or texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga bog'liqdir. O'qituvchilar innovatsion faoliyatni amalga oshirishda o'z konsepsiyalarini ishlab chiqishlari, mavjud tizimga yangi metodlar kiritishlari va yangi g'oyalarni joriy qilishlari kerak. Bunda o'qituvchining ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati, yangi bilimlarga ochiqqligi muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, insonparvar pedagogika, ya'ni gumanistik pedagogika, innovatsion ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Insonparvarlik pedagogikasi ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanishini, uning ijodiy erkinligini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashga qaratilgan. Insonparvarlik pedagogikasi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatish, shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish va o'quvchining erkin

fikrlovchi, mustaqil shaxs sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Innovatsion pedagogik faoliyatda muhim asoslardan biri shundaki, ta'lim tizimi faqatgina yangi texnologiyalar va metodlarni joriy qilishdan iborat emas, balki o'quvchining o'zini erkin va mustaqil his qilishiga imkoniyat yaratish, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishdir. Insonparvarlik pedagogikasining maqsadi o'quvchini o'z salohiyatini to'liq namoyon etadigan, erkin va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu esa pedagogik jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, innovatsion pedagogikaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'quv-tarbiya jarayonini innovatsion va insonparvarlashtirishda pedagogik tizimda yangi metodlarni joriy etish, o'qituvchining ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, o'quvchilarga psixologik qulaylik yaratish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan vositalarni ishlab chiqish zarurdir. Bu yondashuvlar pedagogik tizimning yangilanishiga, ta'limning sifatini oshirishga va shaxsning erkin rivojlanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogika sohasidagi islohotlar nafaqat ta'lim jarayonini yangilashni, balki pedagogik faoliyatni ham ijodiy, zamonaviy va samarali qilishni ko'zda tutadi. Bu jarayon ta'limning barcha jihatlarini o'z ichiga oladi: pedagogik uslublar, metodologiyalar, o'qitish va tarbiya texnologiyalari. Innovatsion pedagogika, o'quvchi va o'qituvchining o'zaro aloqalarini sifat jihatidan yangilashga, shuningdek, jamiyatda yuz berayotgan tezkor o'zgarishlarga moslashishga imkon beradi.

Bugungi kunda innovatsiyalar ta'lim tizimining faqatgina tashqi ko'rinishida emas, balki uning ichki mohiyatida ham sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatining yangi bosqichlarga ko'tarilishi, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va kreativ potentsialini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning roli mislsizdir. Innovatsion pedagogika

o'qituvchini nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki shaxsiyat shakllantiruvchi, psixologik va intellektual jihatdan yuksak shaxs sifatida ham qarashni talab qiladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchi o'z faoliyatiga yangicha yondashuvlarni kiritishi, pedagogik jarayonni ko'proq ijodiy va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishi lozim. Bunda muhim omil sifatida, o'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi va yangi metodlarni o'zlashtirishga tayyorligi, innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga asos bo'ladi. O'qituvchining pedagogik faoliyati faqatgina nazariy bilimlarni oshirishga emas, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga, ularda yangi g'oyalar va fikrlash uslublarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Innovatsiya va novatsiya tushunchalari o'rtasidagi farqlarni tushunish, pedagogik tizimni yangilashda muhim ahamiyatga ega. Agar novatsiya, ko'pincha qisqa muddatli o'zgarishlar kiritish orqali tizimni yangilashga xizmat qilsa, innovatsiya tizimli va strategik o'zgarishlarni amalga oshirishni anglatadi. Innovatsion faoliyat faqatgina metod va uslublarni yangilash bilan cheklanmaydi, balki butun ta'lim jarayonining yangi mazmunini yaratishga, o'quvchilarni tarbiyalashda ilg'or yondashuvlarni qo'llashga imkoniyat yaratadi. Innovatsiya jarayonida o'qituvchining pedagogik konsepsiyasini yangi, ilg'or metod va texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish mumkin.

Innovatsion pedagogikaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bu ta'lim jarayonini nafaqat samarali tashkil qilishni, balki o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirishda mustahkam asoslar yaratishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalar har ikki tomon uchun ham rivojlantiruvchi va ijodiy bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z ishini nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki shaxslarni rivojlantiruvchi va ularga yangi imkoniyatlar yaratadigan inson sifatida tashkil etishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, insonparvarlik pedagogikasi, ya'ni gumanistik ta'lim, pedagogik innovatsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Gumanistik pedagogika o'quvchi shaxsining qadr-qimmatini tan olish, uning ijodiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. O'quvchi faqat bilim olishdan iborat emas, balki o'z shaxsini, potentsialini va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intiladi. Insonparvar pedagogikaning asosiy maqsadi shundaki, o'quvchi nafaqat bilimni egallaydi, balki o'zini mustaqil fikrlovchi va erkin shaxs sifatida shakllantiradi.

Innovatsion ta'limning insonparvarlik aspekti, o'quvchining har bir qobiliyatini rivojlantirish, ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berishdir. Bu o'z navbatida o'qituvchining pedagogik uslublarini yangilashni, o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini qondirishni, ularni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchining o'zini erkin va mustaqil his qilishiga, uning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan sharoit yaratish o'qituvchining asosiy vazifasiga aylanadi.

Insonparvar pedagogika o'z navbatida, innovatsion faoliyatni tashkil etishda yangi yondashuvlarni joriy qilishda asosiy omil bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatish, o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiyatini yuksaltirish va ularga ma'naviy erkinlik berish ustuvor vazifalardan bo'ladi. Innovatsion pedagogika bu jarayonni tizimli ravishda amalga oshiradi, ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kiradi va shaxslararo aloqalarni yangi darajaga olib chiqadi.

Bunday yondashuv ta'lim tizimining barcha darajalarida o'quvchilarni mukammal, ijodiy va erkin fikrlovchi shaxslar sifatida shakllantirishga imkon beradi. O'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatini yanada samarali amalga oshirishda, ularning metodik va psixologik tayyorgarligi, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga tayyorligi muhim ahamiyatga ega. Yangi g'oyalar, metodlar va texnologiyalarni qo'llash orqali

o'qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ta'lim tizimining sifatini oshirishga yordam beradi.

Innovatsion pedagogika, shuningdek, ta'lim tizimining individual va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashishiga imkon yaratadi. Bugungi kunda pedagogika, faqatgina an'anaviy bilimlarni yetkazishdan ko'ra, o'quvchilarning kreativ, ijtimoiy va emosional rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar o'quvchilarni nafaqat akademik jihatdan rivojlantirishga, balki ularning shaxsiyatini, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Innovatsion pedagogika yondashuvlari o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini to'liq kashf etishga, yangi bilimlarni o'zlashtirishda erkin va mustaqil bo'lishga, shuningdek, jamiyatda faollik ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyalar orqali o'qituvchilar, o'z navbatida, o'z bilim va ko'nikmalarini yangilash, yangi texnologiyalarni o'rgatish va o'z faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'lim tizimida amalga oshirilgan har bir innovatsiya o'qituvchining metodologik asoslarini va pedagogik yondashuvlarini yangilashni talab qiladi. Bu jarayon o'qituvchining yaratgan muhitga nisbatan yangi talablarga javob berishini ta'minlaydi va pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda, ularning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, sinfdagi ta'lim jarayonini rivojlantirish va shaxsiy pedagogik uslublarni yangilashga qaratilgan treninglar va metodik qo'llanmalar muhim o'rin tutadi.

Innovatsion pedagogika o'zgarishlarning keng ko'lamini talab qiladi. Bu o'zgarishlar faqatgina metodik yondashuvlarda emas, balki ta'lim tizimining butun tuzilishida yuz berishi kerak. O'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchining yangi ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish innovatsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shu bilan birga, yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirishda yordam beruvchi vositalar va metodlar ishlab

chiqiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik tajribalarini o'rganish va samarali ishlashga tayyor bo'lishi uchun pedagogik institutlar, ilmiy tadqiqot markazlari va amaliyotga oid o'quv kurslari tashkil etiladi.

Innovatsion pedagogikada asosiy maqsad o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytirish, ularni o'z qobiliyatlarini tanishga va o'zlarini rivojlantirishga ilhomlantirishdir. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining yangi shakllari va uslublarini yaratishga olib keladi. Yangi ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchilar o'quvchilarga shaxs sifatida yuksalish va o'z potentsiallarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratishlari kerak. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatini nafaqat bilimlarni uzatish, balki o'quvchilarga o'z ichki kuchlarini topishga, muammolarni hal qilishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam berishi lozim.

Insonparvarlik pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri — bu o'quvchini yagona, takrorlanmas shaxs sifatida qabul qilishdir. Har bir o'quvchining qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari alohida yondashuvni talab qiladi. Innovatsion pedagogika, shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashgan ta'limni ta'minlashga qaratilgan. O'qituvchining asosiy vazifasi — har bir o'quvchiga mos sharoit yaratib, ularning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini rag'batlantirishdir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zini anglashiga, o'z salohiyatlarini ochib berishga va erkin, kreativ shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirishda, ta'lim tizimining yirik o'zgarishlaridan biri ham bu — o'quvchilarga o'zaro aloqalar va hamkorlikda ishlashni o'rgatishdir. Innovatsion pedagogik jarayonlar ko'pincha guruh bo'lib ishlashni, jamoa ishini o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, ular bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar va birgalikda muammolarni hal qilishda ko'proq ishtirok etadilar. Bu yondashuv, o'zini o'zi anglash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi,

shuningdek, o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy ishlashga tayyorlaydi.

Pedagogik jarayonning innovatsion jihatlari o'quvchilarga nafaqat akademik bilimlar berishga, balki ular uchun ijtimoiy va psixologik rivojlanish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. O'qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali ta'limni yangilash va samarasini oshirish uchun ijtimoiy, psixologik va pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish zarur. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning nafaqat bilimlarni egallash, balki o'z shaxsiyatlarini shakllantirish, yangi texnologiyalar va metodlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Innovatsion pedagogika ta'lim tizimining kelajakdagi rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar innovatsion yondashuvlarni joriy etgan holda, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini kengaytirishga, jamiyatda faollik ko'rsatishlariga xizmat qiladilar. Pedagogik innovatsiyalar o'quvchilarga bilimdan ko'ra ko'proq — ularga dunyoqarash, erkin fikrlash, kreativlik va ijtimoiy mas'uliyatni taqdim etadi. O'qituvchining innovatsion faoliyati, o'z navbatida, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirib, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich maktabda pedagogik jarayonning zamonaviy tendensiyalari nimalardan iborat? Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, fanlararo integratsiya, raqamli pedagogika va kompetensiyaviy yondashuvning asosiy belgilarini tushuntiring.
2. O'quv-pedagogik texnologiyalar tushunchasining mazmunini sharhlang. Interfaol metodlar, modul texnologiyasi, loyiha asosida ta'lim va STEAM yondashuvining boshlang'ich ta'lim darslarida qo'llanishiga doir misollar keltiring.
3. Motivatsiyaga asoslangan ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatiga ta'siri nimada ko'rinadi? Gamifikatsiya,

muammoli ta'lim, hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali o'qitishning ustunliklarini tushuntiring.

Ta'lim-tarbiya bola shaxsini ijtimoiylashtirishning eng muhim omilidir. Maktab o'quvchining ijtimoiy tajribani o'rganadigan asosiy maydoni hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi jamoadagi xulq me'yorlarini, muloqot madaniyatini, o'z fikrini bildirishi, boshqalarni tinglashi, mas'uliyatni bo'lishishi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi, liderlikni yoki hamkorlikni o'rganadi. Masalan, sinfda guruhli ishlash davomida o'quvchilar bir-birining fikrini qadrlashni, rollarni taqsimlashni, kelishmovchiliklarni murosali hal qilishni o'rganadi. Tadbirlar, to'garaklar, loyihalar, ekskursiyalar o'quvchining ijtimoiy ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi. Ta'lim va tarbiya jarayoni uyg'unlashganda bola faqat bilim emas, balki jamiyatda yashash qobiliyatini ham egallaydi. Bu esa ijtimoiy yetuk, mustahkam xarakterga ega shaxsni tarbiyalashning kafolatidir. An'anaviy va innovatsion ta'limning farqlarini amaliy misollar orqali ko'rish yanada aniqroq tasavvur beradi. Masalan, an'anaviy ta'limda "Suvning aylanish jarayoni" mavzusi o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi, o'quvchilardan esa eslab qolish talab qilinadi. Innovatsion yondashuvda esa shu mavzuda guruhlarda kichik tajribalar

o'tkaziladi, suv bug'lanishini ko'rsatish, kondensatsiya jarayonini rasmlar asosida aniqlash, natijalarni taqqoslash, kichik loyiha yaratish kabi faoliyatlar tashkil qilinadi. Bu jarayonda bola faqat eslab qolmaydi, balki jarayonni amalda kuzatadi, xulosaga o'zi keladi. Shu sababli innovatsion ta'lim ko'proq amaliy faoliyatga, izlanishga, savol berishga, yangi g'oyalarni sinab ko'rishga asoslanadi. An'anaviy ta'limda "bir to'g'ri javob" mavjud bo'lsa, innovatsion ta'limda bir nechta yechim bo'lishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning moslashuvchan fikrlashini kuchaytiradi.

Pedagogikaning tamoyillari amaliyotda qanday ishlashini oddiy sinf misolida ko'rish mumkin. Masalan, "ko'rgazmalilik tamoyili" boshlang'ich sinfda juda kuchli ishlaydi. O'qituvchi sonlarni o'rgatishda oddiy ko'rsatkichlar, kubiklar, qumli soat, kartochkalar, shakllardan foydalanadi. Bu vizual tasvir bola uchun abstrakt tushunchani real shaklga aylantiradi. Shuningdek, "yosh xususiyatlariga moslik tamoyili"ni olsak, 7 yoshli bola 30 daqiqadan ko'proq o'tirishga qiynaladi, shu sababli 10–12 daqiqalik mantiqiy faoliyatdan keyin qisqa tanaffusli vazifalar berish kerak. Bu tamoyillar quruq nazariya emas, balki kunlik dars jarayonida qo'llanadigan haqiqiy qoida hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari ham amaliy holatlar orqali yanada tushunarli bo'ladi. Masalan, "ijtimoiy rol" tushunchasini olaylik. Har bir sinfda lider o'quvchi bo'ladi, u ko'pincha faol, dadil, guruhda boshqalarni boshqarishga moyil. Yana "vositachi" o'quvchi bo'ladi, ikki tomonni yarashtiradi. "Ijrochi" o'quvchi ko'rsatma bo'lsa bajaradi, lekin mustaqil tashabbus kam ko'rsatadi. "Kuzatuvchi" o'quvchi esa jim, lekin hamma narsani sinchiklab kuzatib boradi. O'qituvchining vazifasi — bu rollar taqsimotini to'g'ri boshqarish, bir rolning ortiqcha kuchayishiga yoki boshqa rolning mutlaqo so'nib qolishiga yo'l qo'ymaslikdir. Aks holda sinfdagi ijtimoiy muvozanat buziladi. Masalan, doimo lider bo'lgan bola boshqalarga fikr bildirish imkonini bermasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi topshiriqlarni taqsimlashda "Bugun sardor —

Kamron, ertaga sardor — Madina” kabi adolatli almashuvni yo’lga qo’yadi. Bu ijtimoiy rolni boshqarishning amaliy mexanizmidur.

Ijtimoiy pedagogikaning “ijtimoiylashuv” kategoriyasi bo’yicha amaliy misol sifatida shuni aytish mumkinki, 1-sinfga yangi kirgan bola ko’pincha sinfga moslashish jarayonini 2–3 oy davomida bosqichma-bosqich o’tadi. Dastlab u o’zini chetga olishga moyil bo’ladi, notanish makon, yangi tartib, yangi talablar unga psixologik bosim beradi. Shunday paytda o’qituvchi kichik guruhlarda ishlashni yo’lga qo’yib, sinfdagi faol bolalarni “moslashtiruvchi sherik” sifatida tanlaydi. Masalan, o’qituvchi “Bekzod, sen bugun Azizbekka yordamchisan” deb topshiriq berishi mumkin. Shu tarzda bola ijtimoiylashuv jarayoniga asta-sekin kirib boradi. Shaxsni o’zini boshqarish mexanizmlarining amaliy ishlashi ham juda muhim. Masalan, o’quvchilar mustaqil ish bajarishda ko’pincha vaqtni noto’g’ri taqsimlaydi: 10 daqiqalik topshiriqqa 25 daqiqa ketkazadi yoki vazifani boshlashdan oldin nima qilishini bilmay qoladi. O’qituvchi bu muammoni hal qilish uchun “bosqichlab bajarish” usulidan foydalanishi mumkin. Masalan, “Birinchi bosqich — rasmlarni ajratamiz. Ikkinchi bosqich — matnni o’qiymiz. Uchinchi bosqich — javobni tanlaymiz” kabi. Bola har bir bosqichni tamomlagan sari o’zini boshqara olishi kuchayadi. Bu jarayon V. Vigotskiy aytgan “yaqin rivojlanish zonasi” tamoyiliga to’g’ri keladi: bola katta yordam bilan boshlaydi, keyin asta-sekin mustaqil bajarishga o’tadi.

Ta’lim va tarbiya o’quvchini ijtimoiylashtirish omili sifatida qanday ishlashini “sinf loyihalari” misolida ko’rish mumkin. Masalan, “Tabiatni asraymiz” loyihasida o’quvchilar guruhlariga bo’linib, daraxt haqida plakat chizish, chiqindilarni saralash haqida video olish, maktab hovlisini tozalash kabi kichik amaliy ishlar bajaradi. Bunda bolalar nafaqat bilim oladi, balki jamoaviy mehnatni, mas’uliyatni, o’z hissasini qo’shishni o’rganadi. Bu ijtimoiylashuvning eng kuchli shakllaridan biridir. Yoki “Sinf sud majlisi” o’yinini olaylik: o’quvchilar turli rollarni bajarib, adolat, mas’uliyat, qonuniylik, o’z

fikrini ayta olishni o'rganadi. Bunday faoliyatlar bolani ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Ijtimoiy pedagogikaning amaliy mexanizmlariga mahalla, oila va maktab hamkorligi ham kiradi. Masalan, ota-onalar ishtirokidagi kichik musobaqalar, "Ochiq eshiklar kuni", ota-onalar bilan uchrashuvlar bolalarning ijtimoiy rivojida muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar dars jarayonida ishtirok etganda bola o'zidagi fazilatlarni ko'rsatishga intiladi, bu esa uning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Oila, maktab va mahalla bir xil talablarga ega bo'lsa, bola ijtimoiylashuvi barqaror shakllanadi.

Innovatsion ta'limning ijtimoiy pedagogika bilan bog'lanishiga yana bir misol — "peer-learning" (o'quvchi-o'quvchidan o'rganish) usulidir. Masalan, matematikada kuchli o'quvchi boshqa o'quvchiga misolni tushuntirib beradi. Bu o'quvchini ham ijtimoiylashtiradi, ham bilimni mustahkamlaydi, ham o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi. An'anaviy ta'limda bunday holatlar kam bo'ladi, chunki o'qituvchi asosiy manba sanaladi. Innovatsion ta'limda esa o'quvchi ham bilim manbai sifatida qaraladi.

Natijada, innovatsion ta'lim va ijtimoiy pedagogika o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchi o'zi izlaydigan, o'zi fikr yuritadigan, jamiyatda teng fikrli sifatida ishtirok etadigan shaxsga aylanadi. An'anaviy ta'lim bu jarayonni to'liq ta'minlamagan bo'lsa, zamonaviy metodlar bola rivojlanishining tabiiy qonuniyatlariga mos keladi.

Olimlar ta'lim jarayonidagi innovatsiyalarni samarali tatbiq etish uchun, pedagoglar va o'qituvchilarni yangi metodologik va psixologik yondashuvlar bilan tanishtirishni ta'kidlamodalar. Masalan, *Vygotskiy* va *Piaget* kabi psixologlarning asarlari, o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini va ularning ta'limdagi o'rganish jarayonini boshqarishni o'rgatishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilarni psixologik tayyorgarlikdan o'tkazish, yangiliklarni qabul qilish va pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon, ayniqsa,

yangiliklarni joriy qilishda psixologik qarshiliklarni yengishga yordam beradi va o'qituvchilarni o'z faoliyatida yangiliklarni tatbiq etishga tayyorlaydi.

Globalashuv jarayonida o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi, o'zaro munosabatlar va kommunikatsiya malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, o'qituvchilar yangi pedagogik metodlarni qo'llashda, global ta'lim tendensiyalarini tushunib, pedagogik faoliyatlarini shu asosda tashkil etishga qodir bo'lishadi. Raqamli platformalarda ta'limning kengayishi, o'qituvchilarga yangi texnologiyalarni ishlatish, interaktiv va masofaviy ta'limda samarali ishlash imkoniyatini beradi.

Refleksiv yondashuv: ta'limning muammolarini hal etishda innovatsiya

Refleksiv yondashuvning ta'lim tizimiga kiritilishi, nafaqat o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilishga, balki ularning o'zlarini pedagogik jarayonda qayta shakllantirishga ham yordam beradi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat ta'lim jarayonining bir ishtirokchisi bo'lib qolmaydi, balki uni yaratishda faol ishtirok etadi. Pedagogik refleksiya, o'qituvchining o'z faoliyatini, tajribasini va o'qituvchilarning o'rganish jarayonini qayta ko'rib chiqishiga imkon yaratadi. Bu jarayon o'qituvchining yangiliklarni qabul qilishdagi psixologik qarshiliklarini engishga yordam beradi va o'qituvchilarning bilim darajasini yanada yuqori qilishga xizmat qiladi.

Mezirowning transformatsion o'rganish nazariyasi, o'qituvchining o'z tajribasini o'rganishi va uni yangiliklarga nisbatan qayta ko'rib chiqishi zarurligini ta'kidlaydi. Ta'lim jarayonida yangiliklarni o'rganish va tatbiq etish, o'qituvchilarning ilg'or pedagogik yondashuvlarga o'tishiga imkon beradi. Bunday refleksiv yondashuvlar, o'qituvchilarga o'qituvchilarning o'rganish jarayonini kuzatish, tahlil qilish va kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishda yordam beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish jarayonida o'qituvchining fikrlash tizimi va metodikasi o'zgaradi, bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Raqamli ta'lim va innovatsion texnologiyalar

Raqamli ta'lim, ayniqsa, globallashuv jarayonlarining tezlashishi va yangi texnologiyalarni tatbiq etishning zarurligi sharoitida o'qituvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi bilim olish va ta'limni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. *Khan Academy* va *Coursera* kabi onlayn platformalar, o'quvchilarga o'z vaqtida va erkinlikda ta'lim olish imkonini beradi. Bu shuningdek, o'qituvchilarga darslarni shaxsiylashtirish va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatini yaratadi.

Globallashuv jarayonida ta'limning raqamli shakllari, o'qituvchilarga o'quv jarayonini ancha interaktiv qilish imkoniyatini beradi. Masalan, raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'z darslarini turli formatlarda taqdim etishi mumkin: videolar, onlayn testlar, simulyatsiyalar va boshqalar. Bunday yondashuv o'quvchilarni nafaqat o'rganishga, balki o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Raqamli ta'limni rivojlantirish o'quvchilarning global dunyoga moslashishlariga va ularga kerakli raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Hozirgi zamon O'zbekiston ta'lim tizimida milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati yangi milliy g'oyaga asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Milliy tarbiya umumpedagogika qonuniyatlariga asoslangan quyidagi omillarga tayanadi:

- tarbiyaning maqbul va samarali metodlariga;
- tarbiyaning tajribadan o'tgan va zamonaviy texnologiyalariga;
- tarbiyaning individual uslublariga.

Bunday yondashuv milliy tarbiyaning boshqa tarbiya turlaridan farqlantirib turadi. SHuni ta'kidlash lozimki, milliy tarbiyada quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- imkon qadar pedagogik jazo turlaridan chekinish;
- tarbiyalanganlik darajasini rag'batlantirish;
- tarbiya jarayonini jamoaviy amalga oshirish;

- tarbiyaga oid eng so'nggi yutuqlarga tayanish; Bu tamoyillar milliy tarbiyani kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi. Bularning barchasi milliy tarbiyaning o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya asoslari. Boshlang'ich ta'limdagi milliy tarbiya jarayoni umumiy milliy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga (7-11 yoshli shaxslarga) dastlabki bosqichda milliy tarbiya berish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy ruhi, milliy ongi va milliy axloqini milliy g'oyaning Insonparvarlik, Ezgulik hamda Bunyodkorlik g'oyalari asosida shakllantirish;- boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlabki bosqichda milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;- boshlang'ich sinf o'quvchilarini keyingi bosqichda amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoniga tayyorlash. Mazkur xususiyatlar boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning asoslari negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir" kitobida milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiyaning quyidagi asoslarini ta'kidlab ko'rsatadi:

1) fikr tarbiyasi;

2) milliy qadriyatlar tarbiyasi;

3) umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi. Bu metodologiya boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirish asoslarini tashkil etadi. Unga ko'ra, milliy tarbiya quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, bunda milliy g'oyamizning Ezgulik g'oyasi va uning exgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amal tamoyillariga asoslaniladi;- boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish, unda milliy g'oyamizning Insonparvarlik g'oyasi va uning insonni qadrlash, insonni tushunish hamda insonga

yordam berish tamoyillariga tayaniladi;- boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida rivojlantirish, bunda milliy g'oyamizning Bunyodkorlik g'oyasi va uning mehnatsevarlik, tashabbuskorlik hamda bag'rikenglik tamoyillariga suyaniladi. E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning o'ziga xos asoslari mavjud. bir Milliy g'oyaga asoslangan boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish necha muhitlarga tayanadi. Bunday muhitning asosiylari quyidagilardan iborat:

1) mikro muhit (ta'lim maskani va oila);

2) mezo muhit (turli to'garaklar va mahalla);

3) makro muhit (o'quvchilarning yirik guruhlar va jamoatchilik joylari). Bu muhitlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashda muhim o'rni bor. Jumladan, mikro muhitda milliy tarbiya jarayoni nazariy – amaliy jihatdan amalga oshiriladi; mezo muhitda mazkur toifa o'quvchilarini milliy tarbiyalash ijtimoiy va yo'naltirish jihatidan amalga oshiriladi; makro muhitda ushbu toifa o'quvchilarini milliy tarbiyalash odatlantirish va ko'niktirish jihatdan amalga oshiriladi. SHu sabali boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashda mazkur muhitlarning o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida milliy tarbiyalashda vositalar muhim o'rin tutadi. Bunday vositalarning asosiylari quyidagilardan iborat:- tarbiyaning ahamiyatini tushuntirish;- ezgu axloq qoidalari va fazilatlariga ko'niktirish;- ijtimoiy faollik va amaliy natijadorlikga yo'naltirish. Mazkur vositalardan oqilona foyddalanish taqoza etiladi. Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligi. Boshlang'ich ta'limda milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiya samaradorligiga erishish muhim hisoblanadi. Buning uchun quyidagilar milliy tarbiyani amalga oshiruvchi mas'ullar sifatida belgilanadi.

1) Sinf rahbari: milliy tarbiyani tashkil etish, uning uchun shart-sharoitlar yaratish va milliy tarbiya jarayonini nazorat qilib boruvchi mas'ul;

2) “Tarbiya” fani o‘qituvchisi: o‘quvchilarni milliy tarbiyalash, ularda milliy g‘oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini tarkib toptirish, o‘quvchilarni milliy ruhda voyaga yetkazish uchun mas’ul;

3) O‘qituvchilar guruhi: o‘z fanlarining asoslarini milliy g‘oya asosida tushuntirish, o‘quvchilarni milliy tarbiyalashda yordam berish va o‘quvchilar bilan individual ishlash uchun mas’ul;

4) Maktab psixologi: o‘quvchilarda milliy ruhni shakllantirish, ularning ongida milliy g‘oyaning tarkib topirishi va o‘quvchilarda milliy fazilatlarining shakllanib borishini kuzatib borish uchun mas’ul;

5) Maktab jamoasi: o‘quvchilarni milliy tarbiyalash sharoitlarini yaratish, milliy tarbiyaga oid muammolarni jamoaviy hal qilib borish va milliy tarbiya samarasini baholovchi mas’ul. Mazkur mas’ullar tizimi boshlang‘ich ta’limda milliy tarbiyaning samaradorligini ta’minlovchi mas’ullardir. Boshlang‘ich ta’limda milliy tarbiya samaradorligi quyidagi indikatorlar asosida baholanadi:- o‘quvchilar shaxsining insoniy talablar asosida shakllanayotganligi; - o‘quvchilar guruhida o‘zaro ahillik va totuvlikning mavjudligi;- tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar miqdorining kamligi;-o‘quvchilararo pedagogik konfliktlarning pastligi;-o‘quvchilarning ijtimoiyligi. Bu indikatorlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy tarbiyalanganlik darajasi choraklik, yillik va yakuniy bosqichlarda baholanib boradi. Uning nazorati Sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang‘ich ta’limda milliy tarbiyaning samaradorligi masalasi metodologik jihatdan to‘liq ishlab chiqilgan emas. SHu sababli bu borada fundamental, nazariy, amaliy va innovatsion tatqiqotlar majmuini amalga oshirish taqoza etiladi.

4-mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. An’anaviy va innovatsion ta’limning mazmuniy farqlarini taqqoslab bering va har biriga amaliy misol keltiring.
2. Pedagogikaning asosiy tamoyillari qaysilar va ular boshlang‘ich ta’lim mashg‘ulotlarida qanday amalda namoyon bo‘ladi?

3. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari mazmunini tushuntiring va ularning o'quvchi ijtimoiylashuvidagi o'rniga misollar keltiring.

4. Shaxsni o'zini boshqarish mexanizmlarining boshlang'ich ta'limdagi ko'rinishlarini amaliy vaziyat asosida izohlang.

5. Ta'lim-tarbiya jarayonining o'quvchi shaxsini ijtimoiylashtirish omili sifatidagi rolini tushuntiring va maktab amaliyotidan ikki misol keltiring.

5-mavzu: Boshlang'ich talim fanlarini uqitishda innovatsion yondashuv. Innovatsion ta'lim muxitini yaratish. Alifbe, ona tili, o'qish, matematika, tarbiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv.

Innovatsion ta'lim yondashuvining samaradorligi ko'plab xalqaro tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Masalan, UNESCOning boshlang'ich ta'lim bo'yicha 2022-yilgi hisobotida aytilishicha, AKTga asoslangan o'qitish, loyihaviy yondashuv, o'yinlashtirilgan topshiriqlar o'quvchilarning o'qish savodxonligi va matematik savodxonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, PISA tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, faol metodlardan foydalanadigan ta'lim tizimlarida o'quvchilar matnni chuqur tushunish, mantiqiy fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarida yuqori natija ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixofiziologik xususiyatlari innovatsion ta'limni joriy qilishni yanada zarur qiladi, chunki 7–10 yosh oralig'ida bolalarda tasavvur kuchli, amaliy harakatga qiziqish yuqori, muloqotga ochiqlik kuchli bo'ladi. Shuning uchun interfaol o'yinlar, ko'rgazmali-texnologik vositalar, raqamli topshiriqlar bolalarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga mos keladi.

Boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha innovatsion metodlarning qo'llanilishi aniq amaliy holatlar orqali yanada ravshanlashadi. Masalan, Alifbe darsida "harf yasash markazi" tashkil qilish orqali bolalar plastilin, yog'och bo'laklari, qum taxtachasi yordamida

harflarni hosil qiladi, bu esa grafomotorik ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Bu usul Rossiya boshlang'ich ta'lim metodikasida "sensor-motor integratsiya" deb yuritiladi. Bunday mashg'ulotlar o'qish va yozishga tayyorlikni oshiradi. Yoki "ovozli kartochkalar" yordamida tovushni tez aniqlash, bo'g'in hosil qilish, harfni shakl bilan bog'lash osonlashadi. Maktab tajribalarida bunday kartochkalar o'quvchilarning bo'g'inlab o'qish tezligini qisqa muddatda 20–25 foizga oshirganligi qayd etilgan.

O'qish darslarida innovatsion metodlardan biri — "multimodal o'qish". Bunda matn nafaqat o'qiladi, balki audio variant tinglanadi, rasm ko'riladi, mazmun bo'yicha kichik komiks yaratiladi, keyin o'quvchilar o'zlashtirilgan ma'lumotni dramatizatsiya orqali qayta yaratadi. Bu metod Kembrij universitetining "Active Reading Approach" tizimiga asoslangan bo'lib, boshlang'ich yoshdagi bolalarda matnni tushunish darajasini oshirishga qaratilgan. Masalan, "Tulki va uzum" masali o'qilganda o'quvchilar voqeani sahna ko'rinishida namoyish qiladi, muallif g'oyasini talqin qiladi, voqeadagi qahramonlarga xarakteristika berishadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Matematika darslarida innovatsion yondashuvning eng samarali variantlaridan biri — "konstruktiv matematika" bo'lib, unda misollar real predmetlardan foylanib tushuntiriladi. Masalan, yig'indi va ayirma amallari Lego konstruktordan foydalanib bajariladi: har bir kub bir birlikni ifodalaydi va o'quvchi misolni manipulyativ usulda yechadi. Geometriya bo'yicha "shakllar markazi" tashkil qilinsa, bolalar turli shakllardan foydalanib uy, ko'prik, minoralar yasaydi, bu esa shakl xususiyatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Raqamli matematika o'yinlari — "Prodigy", "Kahoot", "Matific" kabi dasturlar ham o'quvchilarning matematik faoliyatini jonlantiradi, raqobat asosida motivatsiya hosil qiladi. Tarbiya darslarida innovatsion yondashuvning asosiy mazmuni — real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish. Masalan, "Qiyin vaziyatdan chiqish" mavzusida o'quvchilarga aynan maktab hayotidan olingan holatlar beriladi:

sinfdoşlar o'rtasidagi kelishmovchilik, navbat masalasi, yordam berish, navbatchilik vazifasi kabi. Har bir guruh vaziyatni hal qilish bo'yicha taklif beradi va o'z qarorini asoslaydi. Bu usul orqali o'quvchilar ijtimoiy qaror qabul qilishni, boshqalarning his-tuyg'usini tushunishni, o'z fikrini madaniyatli ifodalashni o'rganadi. Tarbiya darslarida "emotsional kartochkalar" ham juda samarali: o'quvchi dars boshida o'z kayfiyatini kartochka orqali bildiradi, dars oxirida esa qaysi hissiyotga o'tgani haqida izoh beradi. Bu uslub AQSh boshlang'ich maktablarida SEL (Social Emotional Learning) dasturi orqali qo'llaniladi.

Innovatsion ta'lim muhiti yaratishda o'qituvchining kasbiy mahorati hal qiluvchi omil bo'lib, darsni rejalashtirishda "5 bosqichli innovatsion model"dan foydalanish tavsiya etiladi: muammo yaratish, izlanish faoliyati, amaliy tajriba, taqqoslash va umumlashtirish, refleksiya. Masalan, matematika darsida muammo sifatida "Sinfga nechta ruchka kerak?" savoli qo'yiladi, o'quvchilar guruh bo'lib sanash, jamlash, taqqoslash qiladi, keyin ular xulosaga keladi va dars oxirida nima o'rganganini aytadi. Bu model boshlang'ich o'quvchilarning e'tiborini faollashtiradi, mavzu mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Yana bir aniq fakt: Singapur boshlang'ich ta'lim standartlarida har bir darsda "tadqiqot elementi" bo'lishi shart qilib qo'yilgan. Bu yondashuvni o'zbek boshlang'ich ta'limiga moslashtirish uchun kichik tajribalar, qiyoslash, amaliy vazifalar, mini-loyihalar qo'llanadi. Masalan, 1-sinfda "suv qayerga ketadi?" mavzusida bug'lanish tajribasi, 2-sinfda "qaysi buyum sho'kadi, qaysi buyum suzadi?" tajribasi, 3-sinfda "shaklning yuzasi qanchalik katta?" mavzusida qog'ozlar bilan amaliy ishlash kabi tajribalar tashkil etiladi. Innovatsion o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri baholashning yangicha yondashuvidir. An'anaviy yondashuvda faqat natija baholansa, innovatsion yondashuvda jarayonning o'zi ham baholanadi. "O'sish varaqalari", "muvaffaqiyat kartalari", "o'zimni baholayman", "guruh bahosi", "portfel baholash" kabi metodlar o'quvchining o'z-o'zini nazorat

qilish, yutug'ini ko'ra olish, xatodan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu o'quvchini faqat natijaga emas, balki o'z ustida ishlashga yo'naltiradi.

5-mavzu yakunlari bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Innovatsion ta'lim yondashuvining an'anaviy ta'limdan asosiy farqlari nimalardan iborat? Real dars jarayoni misolida izohlang.
2. Boshlang'ich ta'limda innovatsion ta'lim muhiti qanday tashkil etiladi va uning tarkibiy elementlariga nimalar kiradi?
3. Alifbe va savod o'rgatish darslarida innovatsion yondashuvning samarali metodlariga misollar keltiring.
4. Matematika va o'qish fanlarida o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiluvchi innovatsion texnologiyalar qaysilar?
5. Tarbiya fanida real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish nima uchun muhim va bu usulning o'quvchi shaxsiga ta'sirini tushuntiring.

6-mavzu: Masofaviy talimda innovatsiyaning roli.

Yaponiyada ta'lim tizimi. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi. Fransiya ta'lim tizimi. Germaniyada ta'lim tizimi. O'zbekiston ta'lim tizimi va hamkorlik yo'nalishlari.

Masofaviy ta'lim zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi va innovatsiyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Masofaviy o'qitish jarayonida raqamli platformalar, onlayn baholash, video darslar, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim dasturlari keng qo'llanilmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlarida masofaviy ta'lim nafaqat pandemiya davrida, balki kundalik ta'limning to'ldiruvchi tizimi sifatida joriy etilgan. Innovatsion masofaviy ta'lim modeli vaqt va makon chegarasini bartaraf etgani, o'quvchining o'z tempida o'rganishiga imkon bergani, o'qituvchi uchun monitoring va individual yondashuv imkoniyatini oshirgani bilan ahamiyatlidir. Masalan, videodarslar orqali o'qituvchi

materialni bir necha marta takrorlashsiz samarali yetkazishi, o'quvchi esa istalgan vaqtda qayta ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bunda LearningApps, Google Classroom, Zoom, Moodle, Khan Academy kabi platformalardan foydalanish masofaviy ta'limning o'zagini tashkil qiladi.

Yaponiya ta'lim tizimida innovatsiyalar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Ta'lim 1868-yildagi Meydzi islohotlaridan boshlab jamiyatni modernizatsiya qilishning bosh vositasi sifatida rivojlantirildi va bugungi kunda ham bu yondashuv o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Yapon maktablari innovatsiyani faqat texnik vositalarga emas, balki dars jarayonining barcha bosqichlariga tatbiq etadi. Raqamli darsliklar, elektron kundaliklar, sensorli panellar, virtual tajribalar va robototexnika boshlang'ich sinflardan boshlab o'quv jarayoniga singdirilgan. Davlat "GIGA School Program" orqali har bir o'quvchini planshet va yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlashni maqsad qilgan bo'lib, bu o'quv jarayonida individual yondashuvning kuchayishiga olib kelgan. Innovatsiyaning muhim jihati — o'qituvchiga bog'liq bo'lgan ta'lim sifatini mexanizatsiya qilish emas, balki o'qituvchining samaradorligini oshirishdir. Masalan, darsliklar muntazam ravishda yangilanadi, o'quv jarayonidagi har bir o'zgarish 10 yillik dastur qayta ko'rib chiqilganidan so'ng amaliyotga tatbiq qilinadi. Yaponiyada robototexnika, dasturlash, STEAM, media savodxonlik kabi yo'nalishlar 1–6-sinflarning majburiy fanlariga aylangan, bu esa o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, ijodkorligi va yechim topish ko'nikmalarini erta rivojlantiradi. Innovatsion yondashuvlar maktablarning kundalik hayotida ham namoyon bo'ladi — jamoaviy mehnat, tozalik, tartib, jamoaviy mas'uliyat kabi qadriyatlar o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Yaponiyada innovatsiyaning yana bir muhim jihati — ta'lim, ishlab chiqarish va texnologiya o'rtasidagi kuchli integratsiya bo'lib, texnik kollejlari, ixtisos maktablar, qisqa muddatli o'quv kurslari sanoatning

real ehtiyojlariga moslashgan. O'qituvchilarni tayyorlash tizimi ham innovatsion modelga asoslanadi: pedagoglar amaliy mashg'ulotlar, raqamli ta'lim texnologiyalari, sinf boshqaruvi va interfaol metodlar bo'yicha muntazam malaka oshiradilar. Natijada Yaponiya ta'limida innovatsiya faqat texnologiya emas, balki tizimli yondashuv, aniq maqsad, yuqori intizom va o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhit sifatida namoyon bo'lmoqda.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi jahonning eng innovatsion va texnologik rivojlangan modellaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy "koreys mo'jizasi" aynan uzluksiz innovatsiyaga tayangan ta'lim siyosati natijasidir. Ta'lim tizimi AKTni chuqur integratsiya qilgan bo'lib, raqamli darsliklar, elektron baholash, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan onlayn nazorat platformalari (EBS – Educational Broadcasting System) boshlang'ich bosqichdan boshlab qo'llaniladi. Mamlakatda "raqamli sinf" tamoyili amalda joriy qilingan bo'lib, har bir o'quvchi planshet yoki noutbukdan foydalanadi, barcha fanlar bo'yicha kontent elektron shaklda yaratiladi. Innovatsiyaning asosiy ustuni — STEM va STEAM ta'limidir: robototexnika, dasturlash, muammoli vaziyatga asoslangan loyiha ishlari 5–6 yoshdan o'rgatiladi. Koreyaning o'quv jarayonida o'yinlashtirish, animatsiyalangan videodarslar, virtual qahramonlar bilan muloqot qilish kabi motivatsion texnologiyalar keng qo'llaniladi. O'qituvchilarning o'zi ham innovatsiyaning markazida turadi: pedagoglarga doimiy raqamli kompetensiya treninglari, yangi metodlarni sinovdan o'tkazish uchun grantlar va universitetlar bilan hamkorlik dasturlari taqdim etiladi. Talab yuqoriligi sababli maktablar ilmiy-ijodiy maktablar, sport akademiyalari va texnologiya maktablarini rivojlantirib, iste'dodlarni erta aniqlashni yo'lga qo'ygan. Ta'limga ajratiladigan davlat mablag'ining 24 foizdan ortig'i innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi, shuningdek, ta'limiy soliq amaliyoti orqali har bir ishlab chiqaruvchi o'z foydasining bir qismini ta'lim tizimini

modernizatsiya qilishga sarflaydi. Natijada Koreya dunyoda raqamli o'qitish, onlayn ta'lim platformalari, STEM ta'limi va o'quvchi motivatsiyasini oshiruvchi innovatsion modellar bo'yicha etakchi o'rinlardan birini egallagan.

Germaniya ta'lim tizimida innovatsiya mamlakatning iqtisodiy kuchi va texnologik salohiyatini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Ta'lim federal tuzilma asosida boshqarilgani uchun har bir federal yer o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojidan kelib chiqib innovatsion yangiliklarni ta'limga tatbiq etadi, biroq umumiy standartlar yagona milliy tizimni shakllantiradi. Maktablar raqamli o'quv muhitini joriy etish bo'yicha "DigitalPakt Schule" dasturi asosida kompyuterlar, planshetlar, interfaol doskalar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlanmoqda, bu esa o'qitishning zamonaviy shakllarini qo'llash imkonini kengaytirgan. Germaniya innovatsiyasining eng kuchli ko'rinishi — ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan "Dual tizim" bo'lib, unda o'quvchi nazariy bilimni maktabda, amaliy ko'nikmani bevosita korxonada egallaydi. Bu model dunyodagi eng samarali kasbiy ta'lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan va mehnat bozorida yoshlar ishsizligining keskin past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Raqamli baholash tizimlari, kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari, fanlar bo'yicha modul yondashuvi, o'yinlashtirilgan o'qitish va virtual laboratoriyalar Germaniya maktablarining asosiy yangiliklari qatoriga kiradi. Inkluziv ta'lim tizimi ham innovatsiyaga asoslanib rivojlangan bo'lib, maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan elektron platformalar, qo'shimcha yordamchi texnologiyalar va individual o'qitish rejalaridan foydalaniladi. O'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash ham innovatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, pedagoglar muntazam ravishda zamonaviy metodlar, AKT vositalari va o'quv jarayonini boshqarish bo'yicha treninglarda qatnashadi. Ta'limning barcha bosqichlarida innovatsiyalarning mavjudligi Germaniyaga yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va sanoatni uyg'un rivojlantirish, zamonaviy raqamli jamiyat qurish imkonini bermogda.

Fransiya ta'lim tizimida innovatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri – ta'limni bosqichma-bosqich, “tsikl”lar asosida tashkil qilish va shu orqali o'quvchi shaxsini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilganligidir. Maktabgacha bosqichdayoq “onalar maktabi” modeli orqali bolani maktab muhitiga yaqin sharoitda tarbiyalash, 2 yoshdan 6 yoshgacha tabaqalashtirilgan guruhlarda ishlash, 5–6 yoshli barcha bolalarni maktabga tayyorlov dasturiga 100 foiz qamrab olish – bu ham pedagogik, ham ijtimoiy innovatsiya bo'lib, keyingi bosqichlardagi o'qish sifatiga kuchli ta'sir qiladi. Boshlang'ich maktabda o'quv jarayonini uch bosqichga (tayyorlov, elementar, chuqurlashtirish) bo'lib, har bir predmet bo'yicha bosqichma-bosqich aniq talablarni belgilash, o'qish, yozuv, og'zaki nutq va matematika uchun alohida darajali ko'rsatkichlar qo'yilishi – o'quvchini “oddiy savodxon” emas, balki mustaqil fikrlaydigan, matn bilan erkin ishlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Grajdanklik ta'limining darslarga integratsiya qilingani ham innovatsion yondashuv bo'lib, o'quvchilarni faqat nazariy bilim bilan emas, balki real ijtimoiy hayot – shahar kengashi, saylov jarayonlari, fuqarolik huquq va burchlari, ma'muriy tuzilma bilan tanishtirish orqali faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalaydi. Boshlang'ich bosqichda musiqa, tasviriy san'at va sportni bir butun “nafosat ta'limi” sifatida ko'rish, o'quvchidan hech bo'lmasa bitta cholg'u asbobini chala olishni, tasvir yaratish, rang tanlash, jamoaviy sport o'yinlarida ishtirok etishni talab qilish ham ta'limning keng qamrovli innovatsion modelini ko'rsatadi. Yana bir muhim yangilik – o'qituvchiga o'quv dasturi mazmunini moslashtirish, dars jadvalini modullashtirish, bolalarni qobiliyat va qiziqishiga qarab tabaqalashtirish huquqining berilishi; bu o'qituvchini ijodkor subyekt sifatida ko'rish va individual ta'lim trayektoriyalarini tashkil etish imkonini beradi. O'qituvchi, maktab va ota-ona o'rtasidagi “o'quvchi tabeli” va yozma bitimlar orqali uzluksiz hamkorlik ham Fransiya ta'limidagi boshqaruv va mas'uliyat bo'yicha innovatsion mexanizmlardan biri bo'lib, u bolaning bilimidan tashqari uning

qobiliyati, mehnatga munosabati va shaxsiy o'sishini kompleks nazorat qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi keyingi yillarda keng ko'lamli islohotlar bilan yangilanmoqda. "2022–2026 yillarda ta'limni rivojlantirish strategiyasi" asosida raqamli ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim, xalqaro baholash tizimlari, kompetensiyaga yo'naltirilgan dasturlar joriy qilindi. Maktablarda elektron kundalik, masofaviy darslar, onlayn platformalar rivojlanmoqda. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar: STEAM, CLIL, o'yinlashtirish, loyihaviy ta'lim bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. O'zbekiston Yaponiya, Koreya, Germaniya, Fransiya, Singapur, AQSh kabi davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirgan. Masalan, Koreyaning EBS platformasi bilan hamkorlikda "EduMarket", "Onlinemaktab.uz" loyihalari yaratilgan. Yaponiyaning JICA tashkiloti boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari malakasini oshirish bo'yicha loyihalar amalga oshirgan. Germaniyaning GIZ tashkiloti pedagoglarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni joriy qilmoqda. Singapur ta'lim modeli asosida "O'quvchilarni tadqiqotchilikka o'rgatish" va "kritik fikrlashni rivojlantirish" metodlari bo'yicha treninglar o'tkazilmoqda. Fransiya bilan fransuz tilini o'qitishni kuchaytirish bo'yicha loyihalar rivojlanmoqda. Xalqaro hamkorlikning bunday kengayishi O'zbekiston ta'lim tizimining jahon standartlariga moslashuvini tezlashtirmoqda.

Evropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi. Hozirgi zamon Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni integratsiya, ya'ni hamkorlikda tashkil etish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Unga ko'ra, rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'lim tajribasi o'zga davlatninshg boshlang'ich ta'limiga tadbiq etilmoqda. Bu o'rinda Yevropa davlatlarining ayrimlarida boshlang'ich ta'limni tashkil etish tajribasiga e'tiboringizni tortamiz. Buyuk Britaniyada boshlang'ich ta'limni tashkil etishda aniq fanlarning ko'proq o'qitilishiga e'tibor beriladi. Bu yondashuvga ko'ra Matematika kabi o'quv fanining o'quvchilarning aqlini

rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. SHuningdek, mazkur mamlakat dunyodagi boshlang‘ich ta‘lim tajribalarini muntazam o‘rganib boradi. Germaniyada boshlang‘ich ta‘limni tashkil etishda gumanitar fanlarning ustuvorligiga duch kelamiz. Mazkur mamlakatning ta‘lim mafkurasiga ko‘ra, gumanitar fanlar shaxsni oliyjanob qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. SHu sababli bu mamlakatda boshlang‘ich sinfdayoq o‘quvchilar ongiga “olmon- ulug‘ millat” milliy g‘oyasi singdiriladi. SHuningdek, bu mamlakatda dunyodagi har bir mamlakatning boshlang‘ich ta‘limi to‘g‘risida xohlagan axborotni olish imkoniyati mavjud. Italiya boshlang‘ich ta‘limida tabiiy fanlarni ustuvor darajada o‘qitilishiga duch kelamiz. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiat, koinot va dunyodagi tabiiy muhit to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. SHu sababli boshlang‘ich ta‘limda Biologiya va Antropologiya fanlari o‘qitila boshlanadi. Keltirilgan namunalardan ma‘lum bo‘ladiki, Yevropaning rivojlangan davlatlarida boshlang‘ich ta‘limga o‘ziga xos tarzda yondashuv mavjud. Ayni paytda, Yevropa mamlakatlarining boshlang‘ich ta‘limida quyidagi umumiyliklar mavjudligini eslatib o‘tish joiz:- har bir sinfda o‘quvchilar sonining 10 nafardan oshmasligi;- eng zaruriy fanlarning o‘qitilishi;- boshlang‘ich ta‘limni amalga oshirishda milliy mafkuraga asoslanishi;- boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha hamkorlikning keng yo‘lga qo‘yilganligi. Bizningcha bu tajribani o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amerika qit‘asi mamlakatlarida boshlang‘ich ta‘limni tashkil qilish integratsiyasi. Amerika qit‘asidagi rivojlangan davlatlarning boshlang‘ich ta‘limida ingliz-ispn ta‘lim modelining ta‘siri ko‘zga tashlanadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta‘limda asosan milliy g‘oyaga asoslanish va o‘quvchilarning ongiga dunyo fuqarosi g‘oyasini singdirishga e‘tibor beriladi. Jumladan, Amerika Qo‘shma SHtatlari boshlang‘ich ta‘limida “amerikalik - kuchli inson” g‘oyasi asosida ta‘lim tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Amerikaning barcha shtatlarida quyidagi shakldagi boshlang‘ich ta‘lim maktablari faoliyat yuritadi:-federal (davlat) boshlang‘ich ta‘lim maktablari;-xususiy boshlang‘ich ta‘lim maktablari;-mintaqaviy boshlang‘ich ta‘lim

maktablari. Mazkur maktablarda ingliz tiliga asoslangan amerika tili ustuvor darajada o'qitiladi. Ularda "Antropologiya" fani ijtimoiy-gumanitar fanlarning negizi hisoblanadi. Ayni paytda, barcha shakldagi boshlang'ich maktablarda yagonalashtirilgan o'quv fanlari o'qitiladi. Kanada boshlang'ich ta'lim tizimida AQSHning boshlang'ich ta'lim tizimi xususiyatlari aks etgan. SHuningdek, Kanada boshlang'ich ta'lim tizimida asosiy e'tibor tabiiy fanlarni o'qitishga qaratiladi. Bu hol mamlakatning geografik joylashuvidan kelib chiqilgan. Kanada boshlang'ich ta'limida ham davlat va xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari faoliyat yuritadi. Ayni paytda, 1-2 sinflar kichik sinflar va 3-4-sinflar katta sinflar deb yuritiladi. Har bir o'quv fani mutaxassis o'qituvchi tomonidan o'qitiladi. Barcha o'quv fanlari "Antropologiya" fani tarkibi hisoblanadi. Kanada boshlang'ich ta'limida davlat ta'lim standarti yo'q. SHu sababli xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari o'zlarining o'quv dasturlariga ega. Braziliya mamlakatida boshlang'ich ta'lim g'oyasida Ispaniya ta'lim modelining ta'siri mavjud. Mazkur mamlakatda boshlang'ich ta'lim 1-5 sinflar hisoblanadi va boshlang'ich ta'lim olish majburiy. O'rta umumiy ta'lim esa majburiy emas. Braziliya boshlang'ich ta'limida aniq fanlarning ustuvor o'qitilishi ko'zga tashlanadi. Bunda Matematika, Algebra kabi fanlar boshlang'ich ta'limda keng o'qitiladi. SHuningdek, o'quvchilar dastlabki bosqichda Astronomiya asoslari bilan ham tanishtiriladi. Braziliya boshlang'ich ta'limi yoz, kuz va bahor oylarida amalga oshiriladi. Zero, Amerika qit'asi rivojlangan davlatlarida boshlang'ich ta'lim davlat nazoratida amalga oshirilishi bilan umumiy xususiyatga ega. Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi. Osiyo qit'asidagi rivojlangan mamlakatlar boshlang'ich ta'limida Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'limining ta'siri kuchli. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limda gumanitar, aniq va tabiiy fanlar turkumlari teng o'qitiladi. Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'limida federal (davlat) boshlang'ich ta'lim standartlari bilan birgalikda O'lka va Respublika boshlang'ich ta'lim standartlari ham amal qiladi. Rossiyaning

boshlang'ich ta'limi ko'p tilli ta'lim hisoblanadi va ayni paytda, Rossiya Federatsiyasining Yaponiya mamlakatining boshlang'ich ta'limi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatda boshlang'ich ta'lim 6 yil bo'lib, davlat va xususiy boshlang'ich maktablarga bo'linadi. Yaponiya boshlang'ich ta'limida milliy g'oya ustuvor bo'lib, unda yapon tili eng mukammal til sifatida o'rgatiladi. Mazkur mamlakatning boshlang'ich ta'limida quyidagi o'quv fanlari o'qitiladi:- Yapon tili;- Arifmetika;- Musiqa;- San'at (teatr va kino)- Jismoniy tarbiya;- Hayotiy faoliyat asoslari. Yaponiya xususiy boshlang'ich ta'lim maktablarida qo'shimcha ravishda Dinshunoslik va Dunyoviy etika fanlari o'qitiladi. Yaponiya boshlang'ich ta'lim maktablari raqam belgilanmaydi, aksincha maktab maksud hudud nomi bilan yuritiladi. Misol uchun, birgina Tokiyada mingdan ortiq "Tokiya boshlang'ich maktabi" deb yuritiluvchi boshlang'ich ta'lim muassasalari mavjud. Ayni paytda, xususiy boshlang'ich ta'lim maktablarida ba'zida o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida-alohida o'qitiladi. Mazkur mamlakatning boshlang'ich ta'limi uchun yagonalashtirilgan o'quv darsliklari yo'q. Har bir hududning o'z darsliklari mavjud. Lekin barcha darsliklar yapon milliy ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Shunday qilib rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limni integratsiya asosida tashkil etish tajribalari mavjud bo'lib, ularni o'rganib borish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ahamiyatga ega.

6-mavzu yakunlari bo'yicha savol-javoblar

1. Masofaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar (raqamli platformalar, video darslar, sun'iy intellekt dasturlari)ning afzalliklari va cheklovlarini misollar bilan tushuntiring.

2. Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiya ta'lim tizimlarida innovatsiyaning asosiy yo'nalishlarini solishtiring. Qaysi jihatlari O'zbekiston sharoitiga mos deb o'ylaysiz?

3. Janubiy Koreya va Germaniya ta'lim tizimlarida ta'lim–ishlab chiqarish integratsiyasi qanday yo'lga qo'yilgan va bu yondashuvning o'quvchi kelajagi uchun ahamiyati nimada?

4. Fransiya ta'lim tizimidagi “tsikl”lar, grajdanlik ta'limi va “nafosat ta'limi” elementlarining innovatsion tomonlarini ochib bering. Ularni boshlang'ich ta'limga tatbiq etishning mumkin bo'lgan usullarini taklif qiling.

5. O'zbekiston ta'lim tizimida Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiya bilan xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat? Bu hamkorlikning boshlang'ich ta'lim uchun berayotgan amaliy natijalarini tahlil qiling.

7-mavzu Tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv. Bola shaxsini o'rganish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini yangilash, tarbiyaviy tadbirlarga innovatsion yondashuv.

Tarbiya jarayoni bola shaxsini ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy va intellektual jihatdan shakllantirishni maqsad qilgan uzluksiz pedagogik tizim bo'lib, zamonaviy ta'lim sharoitida innovatsion yondashuvlar bilan boyib bormoqda. Maktablar, oilalar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar kuchaygani sari tarbiya mazmuni ham o'zgarib, bolaga individual yondashuv, uning ruhiy ehtiyojlari va shaxsiy qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan yangi metodlar paydo bo'lmoqda. Innovatsion tarbiya avvalo tarbiya jarayoniga texnologiyalarni emas, yangi pedagogik fikrlashni tatbiq etishni anglatadi. Bu jarayon bola shaxsini chuqur o'rganish, tarbiyaviy ta'sir usullarini modernizatsiya qilish, tarbiyaviy tadbirlarni ijodiy shakllarda tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya jarayoni uzluksiz va uzviy bo'ladi. Bunda jarayon deganda mudom

amalg oshiriladigan pedagogik tadbirlar nazarda tutiladi. SHu ma'noda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni eng muhim va ko'p omilli hodisa hisoblanadi. CHunki 7-11 yoshli o'quvchilar shaxsini har tomonlama tarbiyalash Pedagogikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoniga quyidagilar birlamchi ta'sir ko'rsatadi: a) atrof-muhit ta'siri; b) hayotiy ehtiyojlar ta'siri; v) jamiyatning muhim qadriyatlari ta'siri; g) oila ta'siri; d) jamoatchilik ta'siri; e) bolalar guruhlarining ta'siri; yo) san'at ta'siri; j) ommaviy axborot vositalarining ta'siri. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi jarayoniga bunday keng ko'lamli ta'sirlar ijobiy va salbiy xarakterga ega bo'ladi. SHu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari va murabbiylari mazkur omillarning ijobiy ta'sirini nazorat qilib borishi va ularning salbiy ta'sirini yumshatishi taqozo etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilariga atrof-muhit ta'siri aslida ijobiy xususiyatga ega bo'ladi, biroq o'quvchilarning atrof-muhitni noto'g'ri qabul qilishi natijasida uning ta'siri salbiylik tus oladi. Xuddi shuningdek, yuqorida ta'kidlangan ta'sir omillari nazorat qilib borilishi kerak. Masalan, O'zbekiston sharoitida tarbiya jarayoniga oilaning ta'siri ustuvor darajada ko'zga tashlanadi. Keyingi rivojlanish jarayonida va xususiy mulkchilikning tarkib topish natijasida oilaning boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasiga bo'lgan ta'sirida salbiy xususiyatlar bo'rtib bormoqda. Bolaning mulkga qiziqishi, ota-onasining boyligi bilan g'ururlanishi, o'zini o'rtoqlari orasida kibarli tutishi shular jumlasidandir. SHu sababli biz boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi jarayonida oilaning ta'sirini korrektsiyalab borish tarafdorimiz. Bunda namunali oilalar ta'siri ijobiy va notinch oilalar ta'siri salbiy xususiyatlar sifatida qabul qilinishi muhimdir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi jarayonida o'qituvchilar va maktab jamoasining ta'siri ustuvor darajada qabul qilinishi kerak. CHunki bu guruh tarbiyaga bo'lgan jamiyatning talab va ehtiyojlarini amalga oshirida. SHu ma'noda boshlang'ich ta'limda tarbiya mazmuni 7-11 yoshli

shaxslarni maqsadli ijtimoiy voyaga yetkazishni ifodalaydi. Bunda har qanday ta'sir tarbiyaning maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni mazmuni 7-11 yoshli shaxslarni jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik jihatdan sog'lom voyaga yetkazish bilan belgilanadi. Shu sababli bu jarayonning maqsadi shakllanib kelayotgan shaxsni ijtimoiy o'zgartirish va turli tarbiyaviy vositalarni qo'llashdan iborat. Bunda ideal g'oyalar, oliy qadriyatlar va ezgu maqsad-muddaolarga asoslaniladi. Bu masala ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari tarbiyasida muhimdir. SHunisi aniqki, har bir ota-ona yoki jamiyat har bir farzandning tarbiyalangan shaxs sifatida voyaga yetishini orzu qiladi. Biroq, tarbiya vositalari, tadbirlari va omillarining noto'g'ri qo'llanishi natijasida har bir bola kutilgan darajadagi shaxs sifatida voyaga yetmaydi. SHu jihatdan biz boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonining kutilgan natijasiga erishish yo'lini ikki hodisada ko'ramiz: birinchidan, 7-11 yoshli o'quvchilar tarbiyasida maktab jamoasining huquq va majburiyatlari ustuvor bo'lishi kerak; ikkinchidan, demokratik jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuz foiz tarbiyali shaxslar sifatida voyaga yetkazishning imkoni yo'q, bunday sharoitda 80-85 foiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kutilgan darajada tarbiyalanganligiga erishish yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni "tirik" hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi bilan ishlash "hamkorlik pedagogikasi", "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "faoliyatga asoslangan tarbiya", "kompetensiyaviy yondashuv" tamoyillariga tayangan holda olib borilmoqda. Bola shaxsini o'rganish tarbiya jarayonining asosiy bosqichidir. Agar bola psixologik jihatdan qanday rivojlanayotgani, uning ehtiyoji, qiziqishi, emotsional holati, ijtimoiy muhitdagi o'rni, motivatsiya darajasi aniq bilinmasa, unga beriladigan tarbiyaviy ta'sir samarasiz bo'ladi. Shu sababli innovatsion tarbiyaviy yondashuv birinchi navbatda bola shaxsini ilmiy asosda o'rganishga tayanadi. Kuzatish, suhbat, sotsiometriya, diagnostik testlar,

emotsional xaritalash, loyiha asosida baholash kabi usullar shaxsning turli jihatlarini aniqlashda qo'llanadi. Masalan, sotsiometriya sinf ichidagi ijtimoiy munosabatlar, kim kim bilan yaqin yoki uzoq, qaysi o'quvchi yetakchi, qaysi biri chetlashganini aniqlashga yordam beradi. Bu natijalar o'qituvchiga sinf jamoasini boshqarishda, konfliktlar oldini olishda, tarbiyaviy guruh ishlari tashkil etishda to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi. Kuzatish metodi boladagi o'zgarishlarni tabiiy muhitda aniqlashga yordam berib, o'qituvchi uchun bola xarakteridagi ijobiy va salbiy tomonlarni aniq ko'rsatib beradi. Diagnostika jarayonida ishlatiladigan zamonaviy testlar — motivatsiya testlari, emotsional-intellekt testlari, qiziqishlar xaritasi, o'z-o'zini baholash so'rovlari — o'quvchi shaxsiga chuqurroq kirib borish imkonini yaratadi. Bunday ma'lumotlar asosida tarbiyaviy yondashuv individual darajada rejalashtiriladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining yangilanishi innovatsion tarbiya mazmunidagi eng muhim bosqichlardan biri sanaladi. An'anaviy tarbiya ko'proq nasihat, izoh, ma'ruza, jamoat oldida maqtash yoki tanqid qilish, namuna ko'rsatish kabi usullarga tayanardi. Ammo zamonaviy bola informatsiya oqimi kuchli bo'lgan muhitda ulg'ayayotgani uchun bunday usullar ko'pincha samara bermaydi. Innovatsion yondashuv tarbiya jarayonini faoliyatga, tajribaga, amaliy mashg'ulotlarga asoslashni talab qiladi. Loyiha asosida tarbiya — o'quvchilarni kichik jamoalarga bo'lib ijtimoiy loyihalar ustida ishlatish — eng samarali metodlardan biridir. Masalan, "Sinf ekologik loyihasi", "Kitobxonlik haftaligi", "Mahalla tarixini o'rganamiz" kabi loyihalar orqali o'quvchi bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy mas'uliyatni o'zlashtiradi, ham jamoaviy ishlash, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, taqdimot qilish ko'nikmalarini egallaydi. Gamifikatsiya — o'yinlashtirilgan tarbiya — bolalarda motivatsiyani oshiradi. "Yaxshi ishlar jadvali", "Kun qahramoni", "Yordamchi yetakchilar", "Sinf sodiqlik tokenlari", "Odob odati belgilari" kabi o'yin elementlari tarbiyaga qiziqishni kuchaytiradi. Raqamli tarbiya metodlari ham keng qo'llanilmoqda: media

savodxonlik darslari, axborot xavfsizligi bo'yicha mashg'ulotlar, internet madaniyati bo'yicha treninglar, ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlarni tahlil qilish bo'yicha suhbatlar zamonaviy tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismiga aylangan. CLIL metodidagi tarbiyaviy mashg'ulotlar mazmunni xorijiy til bilan birga o'rgatish orqali tarbiyaviy jarayonni ikki tomonlama boyitadi.

Tarbiyaviy tadbirlarni innovatsion shakllarda tashkil etish ham tarbiya jarayonining muhim bo'lagidir. An'anaviy tadbirlar — ma'naviyat kechalari, uchrashuvlar, suhbatlar, tematik tadbirlar — zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilganda katta samaraga ega bo'ladi. Masalan, tadbirdan oldin o'quvchilarga mini-film ko'rsatish, QR-kodli topshiriqlar berish, virtual muzeylar bilan tanishtirish, rolli o'yinlar, debatlar, qiziqarli tarixiy rekonstruksiylar orqali o'quvchi tadbir ishtirokchisidan faol ijrochi darajasiga o'tadi. "Edutainment" — ta'lim va ko'ngilochar elementlarni birlashtiruvchi texnologiya — tarbiyaviy jarayonni jonlantiradi. "Sinf telekanali", "O'quvchilar podcasti", "Sinf radiosi", "Video blog" kabi kreativ formatlar tarbiyaviy ishlarga bolalarning shaxsiy ishtirokini kuchaytiradi. Tadbirlar faqat zal yoki sinfda emas, balki ochiq maydonlarda, amaliyot joylarida, muzeylarda, teatrlarda, ilmiy markazlarda tashkil etilishi tarbiya samaradorligini oshiradi. Masalan, tarixiy yodgorliklarni o'rganish bo'yicha sahna ko'rinishlari, "Bir kunlik kasb darsi", "Ijtimoiy loyihalar yarmarkasi" kabi faol shakllar innovatsion tarbiya talablari bilan mos keladi.

Oila, maktab va jamiyat hamkorligini innovatsion yondashuvda tashkil etish tarbiyaviy faoliyatning asosiy komponentlaridan biridir. Ota-onalar bilan ishlashda an'anaviy yig'ilishlar o'rniga treninglar, seminarlar, maslahat punktlari, oila bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar, "Ochiq eshiklar kuni", "Oilaviy loyihalar kuni" kabi tadbirlar amaliy qo'llanilmoqda. Oila tarbiyasidagi muammolarni aniqlash uchun onlayn so'rovlar, anonim fikrlar qutisi, psixologik konsultatsiyalar qo'llaniladi. Mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida tarbiyaviy loyihalar — "Mahalla yoshlar klubi",

“Mahallada tozalik kuni”, “Mahalla kitobxonlari” kabi tashabbuslar innovatsion tarbiyaning samarali modellarini yaratmoqda.

Innovatsion yondashuvda tarbiyaviy jarayonning kuchli jihati — shaxsiy rivojlanish monitoringini yuritishdir. “O‘quvchi portfeli”, “Shaxsiy o‘shish kundaligi”, “O‘zini baholash varagi”, “Maqsadlar xaritasi” kabi vositalar o‘quvchi o‘z taraqqiyotini mustaqil kuzatish, natijalarni baholash, yangi maqsadlar qo‘yish imkonini yaratadi. Bu esa o‘quvchini faqat tarbiya obyekti emas, balki faol subyekt sifatida shakllantiradi. Innovatsion tarbiya jarayonida o‘quvchining emotsional-intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi bolalar nafaqat bilim olish, balki hissiy barqarorlik, o‘zini boshqara bilish, stressga chidamlilik, empatiya kabi ko‘nikmalarga ham muhtojdir. Shu bois EQ (emotional quotient) — emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismiga kirib kelmoqda. Masalan, “Hissiyotlar termometri”, “O‘zimni qanday his qilyapman?”, “Konfliktni tinch yo‘l bilan hal qilamiz” kabi maxsus mashg‘ulotlardan foydalanish o‘quvchilar o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi, maktabdagi ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Bu usullar ayniqsa yoshlar o‘rtasidagi tajovuzkorlik, bosim (bullying), ijtimoiy chekinish, tashvish va qo‘rquv holatlarini oldini olishda samarali.

Innovatsion tarbiya jarayoni o‘quvchilarni global vatandosh va mas‘ul fuqarolar sifatida tarbiyalashni ham talab qiladi. Shuning uchun tarbiyaviy mashg‘ulotlarda barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), ekologik madaniyat, raqamli madaniyat, huquqiy savodxonlik, media madaniyat bo‘yicha maxsus yo‘nalishlar qo‘llanilmoqda. O‘quvchilarga internetdagi xavfsizlik, kiberbullyingdan himoyalaniish, yolg‘on axborotni tanish, ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish kabi mavzularni o‘rgatish yoshlar tarbiyasida zamonaviy talab hisoblanadi. Maktablarda “Media haftaligi”, “Internet xavfsizligi kuni”, “Ekologik marafon”, “Kitob oyligi” kabi tadbirlar tashkil etilishi ham

innovatsion tarbiyaning amaliy ko‘rinishidir. Innovatsion tarbiyaviy yondashuvda muhim jihatlardan yana biri — shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashdir. O‘quvchi nafaqat bilimga ega bo‘lishi, balki atrofdagi ijtimoiy talablar, jamiyat me‘yorlari, kasbiy yo‘nalishlar haqida kengroq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Shu sababli tarbiyaviy jarayonni kasbga yo‘naltirish, mahorat darslari, kasb egalari bilan uchrashuvlar, amaliyotlar, “Bir kun — bir kasb” loyihalari bilan boyitish maqsadga muvofiq. Bu faoliyat o‘quvchilarda kelajak kasbini ongli tanlashga yordam beradi, o‘z qiziqishiga mos yo‘nalishni topishiga imkon yaratadi.

Tarbiyada innovatsion texnologiyalar qo‘llanilganda o‘quvchi faol ishtirokchi, ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi tabiiy ravishda qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, “flipped education” (teskari ta‘lim) modeli tarbiyaviy jarayonda ham qo‘llanmoqda. Bunda o‘quvchi tarbiyaviy mavzuni oldindan video, taqdimot yoki infografika orqali ko‘rib chiqadi, dars esa faqat muhokama, tajriba, amaliy faoliyatga bag‘ishlanadi. Natijada o‘quvchi mavzuni tayyor holda qabul qiladi va tarbiyaviy jarayon faol, dinamik muhitda kechadi.

Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya vositalari. Pedagogik tajribada o‘quvchilarni aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash qat‘iy qabul qilingan. Bugungi kunda bu tarbiya jarayoniga ekologik tarbiya, san‘at tarbiyasi va diniy tarbiya kabilar ham qo‘shilmoqda. Tarbiya ko‘lamining keng bo‘lishidan qat‘iy nazar asosiy masala tarbiya vositalarining maqbulligi va ularni to‘g‘ri qo‘llashdadir. Hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘lim jarayonida tarbiya vositalarining ko‘pligi e‘tiborni tortadi. Tarbiya vositalarining ko‘pligi bizning yondashuvimizga ko‘ra, tarbiyaviy maqsaddan chalg‘itadi va tarbiyaning samarasini susaytiradi. SHu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida eng maqbul va samarali tarbiya vositalarini tanlash kerak. Bu o‘rinda bunday tarbiya vositalarining eng maqbullarini eslatib o‘tamiz:

a) o‘quv fanlarini o‘qitish vositasida tarbiyalash;

b) “Tarbiya”fani vositasida o‘quvchilarni maqsadli va muddaoli tarbiyalash;

v) ma’naviy tadbirlar vositasi tarbiyalash;

g) san’at va adabiyot vositasida tarbiyalash;

d) o‘tmish va mutafakkirlarni ibratli qilib ko‘rsatish vositasida tarbiyalash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda bu tarbiyaviy vositalarning o‘rni va ahamiyati kattadir. Yuqorida eslatib o‘tilganidek, yangi O‘zbekiston sharoitida tarbiya jarayonini “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi”ga asosan amalga oshirish belgilangan. SHu ma’noda mazkur Kontseptsiyaga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida quyidagi fazilatlarga asoslanish vazifasi qo‘yilgan:

a) o‘quvchilarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish;

b) o‘quvchilarda halol tadbirkorlik ruhini tarkib toptirish;

v) o‘quvchilarda irodalik fazilatini rivojlantirish;

g) o‘quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

d) o‘quvchilarda mehr-oqibatlik ko‘nikmasini tarkib toptirish;

e) o‘quvchilarda mas’uliyatlikni shakllantirish;

f) o‘quvchilarda tolerantlik ko‘nikmasini tarkib toptirish;

j) o‘quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirish;

z) o‘quvchilarni innovatsion fikrlashga o‘rgatish;

i) o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish. E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 10 sifat, fazilat va ko‘nikmalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Bularning barchasi tarbiya jarayonida real sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib tarbiya vositalarini qo‘llashni taqozo etiladi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maqsadli tarbiyalashda madaniy sayohat vositasining ijobiy ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari eng qadimiy obidalarimiz, shaharlarimiz va urf-odatlarimiz bilan ekskursiya tarzida tanishtirilmoqda. Bunday tarbiya vositasi natijasida o‘quvchilarda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy g‘urur, sadoqat kabi ko‘nikmalarining kutilgan darajada shakllanishi ko‘zga

tashlanmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari qulay, oson va keng imkoniyatlarga egalik xususiyatlariga boy bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'limda tarbiya turlari. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya turlarining ko'pligi sizga ma'lum. Ayni paytda, yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limda quyidagi tarbiya turlarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi:

1. Fuqarolik tarbiyasi. Bu tarbiyaga ko'ra, 7-11 yoshli o'quvchilar o'z oilasiga, Vataniga, milliy qadriyatlariga, xalqiga va umuminsoniyatga sadoqat ruhida tarbiyalanishi kerak. Fuqarolik tarbiyasida O'zbekiston sharoitida shaxsning konstitutsion va xususiy huquqlariga uyg'un munosabatda bo'linadi. Bo'lajak fuqaro sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari fuqarolik huquqlari, vazifalari va majburiyatlari to'g'risida tushunchasiga ega bo'lishi kerak.

2. Iqtisodiy tarbiya. Mazkur tarbiyaga ko'ra, 7-11 yoshli shaxslar ongida halol mehnatsevarlik tuyg'usi shakllantirilishi va aynan mana shu ko'nikma asosida oila, jamiyat, davlat hamda mamlakatni boy va farovon qilish mumkinligi shakllantirilishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida tejamkorlik, o'z mehnati evasiga biror narsaga erishish, sabr-toqat kabi sifatning shakllantirilishi va ularda isrofgarchilik, dangasalik, tayyorga ayyorlik singari illatlarning mavjud bo'lmasligiga e'tibor berish lozim bo'ladi. Bunda mamlakatimizda yangi hisoblanmish "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

3. Ekologik tarbiya. Bu tarbiya turiga ko'ra, 7-11 yoshli shaxslarda tabiatsevarlik fazilatini shakllantirish va ularda tabiat hodisalariga mehr-oqibatlik bilan munosabatda bo'lish tarkib toptirilishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonot va o'simlik dunyosi bilan keng tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Huquqiy tarbiya. Mazkur tarbiya turiga ko'ra, 7-11 yoshli shaxslarda o'z huquqlari, burchlari va majburiyatlari to'g'risida tushuncha beriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf

o'quvchilari "Men"lik tuyg'usiga tayanib o'z huquqlarini juda erta anglashadi, biroq mazkur huquqning uzviy qismi bo'lgan burch va majburiyatni anglashi qiyin kechadi. SHu sababli boshlang'ich ta'limda huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi o'quvchilarga shaxsning huquq, burch va majburiyatlarini uyg'un o'rgatishdan iborat.

7-mavzu uchun yakuniy savollar

1. Innovatsion tarbiya jarayonining an'anaviy tarbiyadan asosiy farqlari nimada? Amaliy misollar bilan tushuntiring.
2. Bola shaxsini o'rganishda kuzatish, suhbat, sotsiometriya va diagnostika metodlarining samaradorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda gamifikatsiya, loyiha faoliyati va STEAM yondashuvlarining afzalliklarini taqqoslang.
4. Raqamli muhitda tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi oldida qanday yangi vazifalar paydo bo'ladi? Aniq vaziyat misoli bilan izohlang.
5. Innovatsion tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

8-mavzu: Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning tashkiliy pedagogik asoslari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari, innovatsiya, innovatsiyon ta'lim, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi.

Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning tashkiliy-pedagogik asoslari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchining shaxsini har tomonlama rivojlantirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvning markazida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turadi. Bu yondashuvda o'quvchi tayyor bilim oluvchi emas, balki faol subyekt, o'z ta'lim trayektoriyasini izlashga qodir bo'lgan shaxs sifatida qaraladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, avvalgi tajribasi, individual o'rganish sur'ati inobatga olinadi. Bu modelning asosiy turlari individual ta'lim, differensial ta'lim, adaptiv ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim va shaxsning ichki motivatsiyasiga yo'naltirilgan ta'lim shakllaridir. Individual ta'limda har bir o'quvchi uchun alohida o'quv material, topshiriq, baholash mezonini tanlanadi; differensial ta'limda bir xil sinf doirasida o'quvchilar qobiliyati, tayyorgarligi, qiziqishi bo'yicha guruhlariga ajratiladi; adaptiv ta'limda esa raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchining o'zlashtirish darajasiga mos o'quv mazmuni avtomatik belgilab beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan kompetensiyaviy ta'lim modeli o'quvchida bilimdan ko'ra ko'proq amaliy ko'nikma va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Innovatsiya tushunchasining mazmuni. "Innovatsiya" so'zi lotincha bo'lib, yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib – qoidalar, texnologiyalar va yangiliklarni Ta'limda innovatsiya atamasi an'anaviy va ommaviy amaliyotdagi o'qitish hamda tarbiya jarayoniga kiritilgan yangiliklarni bildiradi, innovatsiya ko'rsatkichi aynan ana shu yangiliklar ko'lami bilan belgilanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsiya quyidagi tushunchalarni qamrab oladi: Innovatsion vaziyat – bu pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan vaziyat;

Innovatsion muhit – pedagogik yangiliklarning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi;

Innovatsion pedagogik loyiha – qabul qilingan va qismlarga ajratilgan yangi pedagogik g'oyalar hamda fikrlar;

Innovatsion pedagogik reja – tasdiqlangan yangicha asosdagi o'quv loyihasi;

Innovatsion pedagogik g'oya - tizimlashtirilgan yangi o'quv jarayoni prognozikasi va ma'lumotlar majmui;

Innovatsion ta'lim - ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar hamda yangilangan ta'lim jarayoni;

Ta'limdagi innovatsiya — bu o'qitish jarayonini yangi texnologiyalar, metodlar, shakllar, didaktik vositalar asosida modernizatsiya qilishni anglatadi.

Innovatsion ta'lim — bu innovatsiyalar yordamida ta'lim mazmuni, shakli va mazmunini o'zgartirishga qaratilgan tizim bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni ham sifat jihatdan qayta shakllantiradi.

Ta'limdagi innovatsion faoliyat — o'qituvchining yangi metodlarni yaratish, sinovdan o'tkazish, ta'lim jarayonini qayta loyihalash, o'quvchilarning kreativ fikrlashini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshiradigan pedagogik faoliyatidir. Innovatsion jarayon esa yangilikni yaratish, uni ta'limga joriy etish, natijasini baholash va takomillashtirishdan iborat uzluksiz bosqichli tizimdir.

Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan yangi tashkiliy faollik vositalari, usullari va metodlari;

Innovatsion o'qitish – yangicha o'qitish tizimi hamda o'quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni. Mazkur tushunchalarning majmui ta'limda innovatsiya hodisasini ifodalaydi. Ayni paytda ta'lim tizimida quyidagilarga o'zgartirishlar kiritilsa innovatsiya hisoblanadi:

- ta'limni va ta'lim boshqaruvining maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari hamda texnologiyalariga kiritilsa;

- o'quv-bilish jarayoni va pedagogik usullarga kiritilsa;

- ta'lim darajasini baholash va nazorat qilishga kiritilsa;

- ta'limni moliyalashga kiritilsa;

- o'quv – metodik ta'minotga kiritilsa;

- tarbiyaviy ishlar tizimiga kiritilsa;

- o'quv rejasi va dasturlarga kiritilsa;

- o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga kiritilsa. Mazkur o'zgartirishlar kiritish jarayoni ta'lida innovatsiya mazmunini ifodalaydi. Ayni paytda, innovatsiya rivojlanib boruvchi jarayon hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, ba'zi innovatsion yondashuvlar vaqtinchalik va ba'zilar esa doimiy xususiyatga ega bo'ladi. Shu

jihatdan innovatsion texnologiyalarni o'zgarib va yangilanib boruvchi vositalar majmui sifatida tasavvur qilishi kerak. Bularning barchasi ta'lim tizimida innovatsiyalarning quyidagi uch shaklga ega ekanligini ko'rsatadi:

1) mutlaq yangiliklar;

2) nisbiy yangiliklar;

3) vaqtinchalik yangiliklar. Shu sababli ta'lim tizimiga kiritilayotgan innovatsion yondashuvlar, g'oyalar, fikrlar, usullar va texnologiyalarni aniqlashda ularning ana shu mezonlariga e'tibor berish kerak.

Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvning tashkiliy asoslari bir nechta muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, ta'lim muassasasida innovatsion muhit yaratish zarur. Innovatsion muhit — bu o'qituvchilarni yangilikka undaydigan, texnologiyalar bilan ishlash imkonini beradigan, o'quvchilarning kreativ fikrlashini qo'llab-quvvatlaydigan ochiq pedagogik makondir. Bunday muhitni yaratish uchun o'quv xonalari texnik vositalar bilan ta'minlanishi, raqamli platformalar ishlashi, o'qituvchi uchun metodik yordam mavjud bo'lishi lozim. Ikkinchidan, innovatsiyani tatbiq etish uchun o'qituvchining malakasi muntazam oshirilishi kerak. O'qituvchi zamonaviy dars loyihalashi, axborot texnologiyalari bilan ishlashi, interfaol metodlar, gamifikatsiya, loyiha asosida ta'lim, STEAM, CLIL, media ta'lim kabi yondashuvlarni qo'llay olishi zarur. Uchinchi tashkiliy asos — hamkorlik muhitini shakllantirish. Innovatsion ta'lim faqat o'qituvchi bilan cheklanmaydi, balki oila, mahalla, jamoatchilik, kutubxona, muzey, korxonalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchilar uchun loyiha ishlari, kasb tanlash dasturlari, startup darslari, texnologik ekskursiyalar innovatsion tarbiya va ta'limning amaliy ko'rinishidir.

Pedagogning innovatsion yondashuvi — bu darsni faqat o'qitish emas, balki o'quvchini o'rganish, uning ehtiyojini aniqlash, unga mos metodni tanlash, shaxsiy tarbiya modeli yaratish demakdir. Zamonaviy pedagog raqamli resurslardan, elektron darsliklardan,

mobil ilovalardan, sun'iy intellekt asosidagi platformalardan foydalana oladi; shu bilan birga, o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga oladi, dars jarayonini shaxsga moslashtiradi. Misol uchun, matematik darsda o'quvchi masalani yecholmasa, o'qituvchi unga qo'shimcha video dars tavsiya qilishi, interfaol platformada (LearningApps, GeoGebra) mashq yaratishi, loyihaviy topqirlik orqali o'quvchining qiziqishini uyg'otishi mumkin. Bu — yangi avlod o'qituvchisining innovatsion yondashuvi hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishda muhim tashkiliy-pedagogik talablar ham mavjud: o'quv rejalari moslashuvchan bo'lishi; baholash tizimi kompetensiyalarga moslashishi; darsning maqsadi aniq belgilanishi; o'quv va tarbiyaviy jarayon integratsiyasi yo'lga qo'yilishi; o'quvchining mustaqil ishlashi uchun yetarli sharoit yaratilishi; texnik resurslar yetarli bo'lishi; o'qituvchining yangilikka tayyorligi tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi. Rivojlangan davlatlar tajribasida darslarning katta qismi loyiha, tadqiqot, muammoli vaziyat, jamoaviy ishlar, eksperiment va virtual amaliyotlar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat nazariy bilim oladi, balki o'z fikrini asoslaydi, muammoni hal qiladi, jamoa bilan ishlaydi, shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Shunday qilib, innovatsion ta'limning tashkiliy-pedagogik asoslari — bu ta'lim jarayonining mazmuni, shakli, metodlari, texnologiyalari va boshqaruv usullarini yangilashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Uning markazida o'quvchi shaxsi, uning individual rivoji, ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va zamonaviy kompetensiyalarni egallashi turadi. Ta'limda innovatsiyalarni joriy etishning yana bir muhim jihati — bu boshqaruvning innovatsion modeli bo'lib, unda maktab yoki oliy ta'lim muassasasi an'anaviy ma'muriy boshqaruvdan ko'ra pedagogik yetakchilikni ustun qo'yadi. Innovatsion boshqaruv o'qituvchini ijodkorlikka undaydi, tashabbuslarni qo'llaydi, pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda maktab rahbariyati o'qituvchi faoliyatini nazorat qiluvchi emas, balki qo'llab-

quvvatlovchi hamkor rolini bajaradi. Zamonaviy maktablarda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha "ichki innovatsion guruhlar", metodika kengashlari, raqamli ta'lim bo'yicha koordinatsion bo'limlar faoliyat yuritadi. Ushbu tuzilmalar dars jarayoniga yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazadi, natijalarni baholaydi, o'qituvchilarga uslubiy yordam beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalda qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarni diagnostika qilishning zamonaviy usullaridan foydalanadi: pedagogik kuzatish, portfoliolarni tahlil qilish, elektron baholash, kompetensiyalar xaritasini tuzish, o'yin va loyiha orqali kompetensiyalarni baholash kabi metodlar o'quvchining aniq ehtiyojini ko'rsatib beradi. Bu o'qituvchiga darsni bir xil tarzda emas, balki har bir guruh, ba'zan esa alohida o'quvchi uchun moslab o'tishga imkon yaratadi. Raqamli ta'lim platformalarida to'plangan ma'lumotlar o'qituvchi uchun didaktik tahlil vositasiga aylanadi: masalan, qaysi mavzuni nechta o'quvchi yaxshi o'zlashtirgani, kimga qo'shimcha yordam kerakligi, qaysi metod samaraliroq bo'lgani tahlil qilinadi. Bu esa innovatsion o'qitishning asosiy talablaridan biri — **data-analizga asoslangan ta'lim** tamoyilini shakllantiradi.

Innovatsion jarayonning yana bir elementi — **ta'lim mazmunining modullashtirilishi**dir. Modul ta'limda material kichik mazmuniy bloklarga bo'linadi, har bir blok bo'yicha aniq maqsad, kutilgan natija va baholash usuli belgilanadi. Modul yondashuvi o'quvchida mas'uliyatni oshiradi, bilimlar tizimli shakllanishiga yordam beradi, o'qituvchi uchun esa darsni yengil loyihalash imkonini beradi. Innovatsion ta'limda modul yondashuvi ko'pincha loyiha metodlari, muammoli o'qitish, tadqiqot faoliyati, interfaol strategiyalar bilan uyg'unlashtiriladi. Natijada o'quv jarayonining samaradorligi sezilarli ortadi.

Pedagogning innovatsion yondashuvi shuningdek, o'quvchilarni XXI asr kompetensiyalariga tayyorlashni ham o'z ichiga oladi. Bular: tanqidiy fikrlash, kreativlik, muammoli vaziyatni yecha olish, kommunikativ savodxonlik, jamoada ishlash, raqamli madaniyat,

media savodxonlik, o'zini o'zi baholash, moslashuvchanlik va liderlik. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchi dars jarayonida ko'proq mustaqil ishlar, guruhlararo bahslar, rolli o'yinlar, amaliy tajribalar, tadqiqot topshiriqlari, real hayotdan olingan loyihalarni qo'llaydi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'limning innovatsion mazmunini boyitadi.

Innovatsion pedagogika va raqamli ta'limning kelajagi, o'quvchilarning va o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish va global miqyosda ta'limni optimallashtirishga qaratilgan. *Selwyn* (2016) o'z asarlarida raqamli ta'limning ta'lim jarayoniga ta'sirini va bu jarayonda yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish zarurligini ta'kidlagan. Boshqa bir olim, *Roblyer* (2006), raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llashning o'quvchilarning individual o'rganish jarayoniga qanday ta'sir qilishini o'rganib, bunday texnologiyalarni ta'limda muvaffaqiyatli ishlatishning muhim omillarini ko'rsatgan.

Innovatsion pedagogika nafaqat ta'lim tizimining o'zgarishini, balki ta'limni global miqyosda yaxshilash va yangi bilimlarni yaratish jarayonini tezlashtiradi. Ta'lim tizimining innovatsion yangilanishi, o'quvchilarning raqamli va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi va ularni global mehnat bozoriga tayyorlaydi. Pedagoglar va ta'lim tizimining har bir ishtirokchisi yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va tatbiq etish orqali ta'lim jarayonida haqiqiy o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin.

Refleksiv-innovatsion texnologiyalar nafaqat ta'lim tizimini yangilash, balki pedagoglarni global va raqamli ta'lim talablari bilan moslashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. Raqamli ta'limning rivojlanishi va innovatsion pedagogika yondashuvlari ta'limni global va raqamli dunyo bilan uyg'unlashtirishga imkon yaratadi, bu esa o'quvchilarni yangi

bilimlarni o'zlashtirish va innovatsion g'oyalarni yaratishga rag'batlantiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning metodikasi juda tez o'zgarayotgan, raqamli va globallashuv jarayonlari ta'sirida rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Yangi pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, refleksiv-innovatsion texnologiyalar ta'limda yangiliklarni yaratishda va o'quvchilarning intellektual rivojlanishini shakllantirishda katta rol o'ynamoqda. Innovatsion texnologiyalar va metodologiyalar ta'lim jarayonini optimallashtirish va global talablarga javob berish uchun zarur vositalar yaratadi.

Pedagogik innovatsiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etish jarayonida refleksiv yondashuvning o'rni juda katta. Schön (1983) ta'limda refleksiya qilishni ta'kidlab, o'qituvchilar o'z faoliyatini tahlil qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni qabul qilish va tatbiq etish jarayonida muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Refleksiv yondashuv pedagoglarga o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqishga imkon yaratadi, shuningdek, yangiliklarni qabul qilish va tatbiq etishda qarshiliklarni yengishga yordam beradi. Bu jarayon, ayniqsa, o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan psixologik tayyorgarlik bilan ta'minlashda muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilgan holda, yangiliklarga qanday moslashishini va ular bilan qanday ishlashni aniqlaydi.

Globallashuv jarayonida, bu refleksiv jarayonning ta'lim tizimida tobora ko'proq ahamiyat kasb etishining sababi, dunyo miqyosida o'zgaruvchan ehtiyojlarga javob berishga yordam berishdir. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish o'qituvchilarni o'zaro aloqalarini va o'quvchilarga nisbatan pedagogik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Shu tarzda, refleksiv yondashuv ta'limda ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi.

Raqamli ta'limning tez rivojlanishi, global ta'lim tizimining yangilanishi va uning innovatsion shakllariga o'tish zarurati, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni talab qiladi. Bunday

o'zgarishlar, ayniqsa, o'qituvchilarni yangi metodologiyalarni o'zlashtirishga undaydi. Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish o'qituvchilarga ta'limni individual va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini yaratadi, bu esa o'quvchilarning o'z bilimlarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Selwyn (2016) o'z asarlarida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va ta'lim sifatini yaxshilashga bo'lgan ta'sirini o'rganib, o'qituvchilarni yangi texnologiyalarni qo'llashga tayyorlash zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, raqamli ta'lim o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'qituvchiga o'quvchilarning rivojlanishini yaxshiroq kuzatish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim jarayonida yangiliklarni amalga oshirish uchun texnologiyalar, masalan, interaktiv ta'lim platformalari, onlayn darslar, virtual simulyatsiyalar va o'quv dasturlari o'quvchilarga ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu o'zgarishlar o'qituvchilarni nafaqat yangiliklarga qarshi turgan qarshiliklarni yengishga, balki yangi pedagogik vositalarni o'zlashtirishga ham undaydi. Shuningdek, raqamli ta'limning afzalliklaridan biri shundaki, u o'quvchilarning global miqyosdagi ehtiyojlariga javob beradi, ya'ni ularni internet va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashga o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

Innovatsion pedagogika asoslari, o'qituvchilarga yangi pedagogik g'oyalarni yaratish, tizimga kiritish va ularni samarali amalga oshirishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish jarayonida o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini yangi texnologiyalar bilan boyitib, o'quvchilarga zamonaviy o'qitish usullarini taqdim etadilar. Bu jarayon nafaqat yangi pedagogik g'oyalarni yaratishga, balki o'quvchilarga yangiliklarni qabul qilish va ularga moslashish uchun zarur psixologik tayyorgarlikni yaratishga qaratilgan.

Piaget va Vygotskiy kabi psixologlar ta'lim jarayonida yangiliklarni qabul qilish va amalga oshirish uchun kognitiv jarayonlarni tushunishga katta e'tibor berishgan. Ularning ishlari ta'lim tizimining asosiy printsiplariga, o'qituvchilar va o'quvchilarni innovatsion yondashuvlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar, ayniqsa, o'quvchilarning o'z bilimlarini mustahkamlash, yaratgan g'oyalarini amalga oshirishda yordam beradi. O'qituvchilarni pedagogik innovatsiyalarni qabul qilish va mustahkamlashga tayyorlashda psixologik tayyorgarlik muhim rol o'ynaydi.

Innovatsion pedagogikada yangiliklarni joriy qilish o'qituvchilarni tizimli fikrlashga, yangiliklarni yaratishda yangi usullarni qo'llashga undaydi. Shuningdek, ta'lim tizimida yangiliklarni yaratish va ularni joriy etishda innovatsion amaliyotlarni qo'llash ta'lim sifatini oshiradi. O'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda faqat o'quvchilarning bilimini kengaytiribgina qolmay, balki ularning ijodiy faoliyatini rivojlantiradilar, bu esa kelajakda global ta'lim tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Pedagogik jarayonda innovatsiyalarni tatbiq etishning muvaffaqiyati, o'qituvchining reflektiv yondashuvi, innovatsion fikrlash va o'qituvchilarni yangi metodologiyalarga moslashishga tayyorlashga bog'liq. Dewey (1933) pedagogik jarayonda refleksiya va ijodiy fikrlashning muhimligini ta'kidlaydi. U o'qituvchining tajribasini qayta ko'rib chiqishi, yangi pedagogik yondashuvlarni qabul qilish va tatbiq etishda katta ahamiyatga ega ekanligini belgilagan. Bu jarayonda o'qituvchilarni yangiliklarni joriy qilish uchun psixologik tayyorgarlik, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuv va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriyati mavjud.

Refleksiv-innovatsion amaliyotning asosiy maqsadi, o'qituvchilarga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va o'quvchilarning o'rganish faoliyatini yanada yuqori darajaga ko'tarish imkonini yaratishdan iborat.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga innovatsiyalarni tatbiq etish jarayoni 2017 yildan boshlab kuchaytirildi. Bundan maqsad boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligiga tezkor erishishdir. SHu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limga innovatsiyani kiritishda uning tajribadan o'tgan tiplariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon jahon pedagogikasida quyidagi innovatsion tiplarning tajribadan o'tganligi e'tirof etiladi: Birinchi tip. Bu tipga binoan boshlang'ich ta'limning quyidagi jihatlariga yangilik kiritilishi kerak:

- boshlang'ich ta'limning maqsadi va mazmuniga;
- boshlang'ich ta'limning vositalari, metodlari va texnologiyalariga;
- boshlang'ich ta'limning o'qitish va tarbiyalash jarayoni shakllari va vositalariga;
- o'quvchilarning, o'qituvchilarning va maktab ma'muriyatining faoliyatiga.

Ikkinchi tip. Mazkur tipga ko'ra, boshlang'ich ta'limning quyidagi jihatlariga yangiliklar kiritilishi kerak:

- joylardagi va markazlardagi boshlang'ich ta'lim muassasalarining o'zaro aloqalarini bog'lash;
- boshlang'ich ta'limdagi barcha faoliyatni (o'qitish, tarbiyalash va h.k.) yagonalashtirish;
- boshlang'ich ta'lim tizimini yagona va tipik modulga aylantirish;

Uchinchi tip. Bu tipga ko'ra, boshlang'ich ta'limda quyidagilarga yangiliklar kiritilishi kerak:- an'anaviy boshlang'ich ta'lim mazmunini butunlay o'zgartirish;

- boshlang'ich ta'limga turli xorijiy tajribalarni kiritish;
- boshlang'ich ta'limning asoslarni o'zgartirish.

To'rtinchi tip. Bu tipga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayoniga quyidagi omillar hisobga olinib yangiliklar kiritilishi kerak:

- mamlakat, hududlar, shaharlar, tumanlar va qishloqlarning ehtiyojlarini ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilish;

- ta'limga oid yangi me'yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi;

- ilm-fanning inson to'g'risida yangi yutuqlariga erishganda;

- o'qituvchilarning ijodiy yangiliklari asosida. Mazkur tiplarning amaliyotda qo'llanishi o'qituvchilar va ilmiy pedagog olimlarning tavsiyalariga binoan amalga oshadi. SHu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni joriy etishning turli tiplarini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etish uchun quyidagi omillar mavjud bo'lishi kerak: a) boshlang'ich ta'limga davlat moliyaviy xarajatlarining ko'p bo'lishi;

b) boshlang'ich ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud bo'lishi;

v) innovatsion fikrlovchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va murabbiylarining yetarli darajada bo'lishi;

g) boshlang'ich ta'limni eng zamonaviy texnik jihozlar bilan jihozlanishi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyani amalga oshirish ko'p hollarda O'qituvchilarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion bilim, ko'nikma va malakalarini kuchaytirish maqsadida Toshkent viloyati CHirchiq davlat pedagogika instituti viloyatdagi maktablarda "Maktab-laboratoriya" innovatsion tizimini yo'lga qo'ydi. Mazkur tajriba keyingi yillarda butun Respublikamiz bo'ylab ommalashmoqda. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish tajribalari. XX asrning 2-yarmidan boshlab dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tizimida yangi innovatsion muassasalarni shakllantirish tajribalari yuzaga keldi. Bu o'rinda ana shu tajribalarning eng muhimlariga e'tiboringizni tortamiz.

1. Erkin boshlang'ich ta'lim maktabi. Bu innovatsion maktab Germaniyada tashkil etilgan bo'lib, u internat ko'rinishida faoliyat

yuritiladi. Mazkur maktabda o'quvchilar erkinlik tamoyillari va fuqarolarning o'zaro hamkorligi natijasida o'qitiladi. Unda fanlar emas, predmetlar kurslarga bo'linib o'qitiladi.

2. Mehnat boshlang'ich ta'lim maktabi. Mazkur innovatsion maktab SHveytsariya, Avstriya va Rossiyada tashkil etilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor o'quvchilarda mehnat ko'nikmasini shakllantirishga va ularni jahon xalqlari madaniyatlari bilan qaratiladi. Maktabda o'quvchilarning ixtiyoriyligi ustuvor tanishtirishga hisoblanadi.

3. Ochiq boshlang'ich ta'lim maktabi. Bu innovatsion maktab Buyuk Britaniyada tashkil etilgan bo'lib, unda o'quv rejalari va dasturlari o'qituvchilar tomonidan individual ishlab chiqiladi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga qaratiladi.

4. Yillik yangi boshlang'ich ta'lim maktabi. Mazkur innovatsion maktab AQSHda tashkil etilgan bo'lib, u butun yil davomida faoliyat yuritadi. Ayni paytda, o'quvchilar har 45 kundan keyin 2 hafta ta'tilga chiqishadi. SHu tariqa o'quvchilar butun yil davomida an'anaviy maktablardagidek soatlar hajmida sinfda bo'lishadi. E'tibor berilsa, dunyoning har bir mamlakati o'z ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etgan. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:- jamiyat talablaridan kelib chiqib boshlang'ich ta'lim asoslariga o'zgartirishlar kiritish;- innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'lamini kengaytirish;- boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etishni qat'iy monitoring qilib borish.

Keyslar:

1. Keys: "Yangi Pedagogik Yondashuvni Joriy Etish"

Maktabda yangi innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishga qaror qilindi. O'qituvchilar guruhlariga ajratildi va har bir guruhga o'z sohasi bo'yicha yangilik kiritish topshirig'i berildi. Biroq, ba'zi o'qituvchilar yangi texnologiyalarni qo'llashga qarshi turishdi,

chunki ular an'anaviy usullarni afzal ko'rishadi. Bu holatda, o'qituvchilarni innovatsion yondashuvlarga qanday tayyorlash kerak? O'qituvchilarga yangi metodlarni qabul qilishda qanday yordam berish mumkin?

Savol: Yangi pedagogik yondashuvlarni joriy qilishda o'qituvchilarning qarshiliklarini qanday yengish mumkin?

2. Keys: "Raqamli Ta'limni Integratsiya Qilish"

Bir universitetda raqamli ta'lim tizimiga o'tish jarayoni boshlandi. O'qituvchilarni yangi onlayn platformalarda dars o'tishga tayyorlash uchun maxsus treninglar tashkil etildi. Biroq, ba'zi o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Ularning fikriga ko'ra, an'anaviy usullarda o'qitish samaraliroq. O'qituvchilarni raqamli ta'lim platformalariga o'rgatish uchun qanday metodlar qo'llanilishi mumkin?

Savol: Raqamli ta'limni o'qituvchilarga qanday samarali tarzda tatbiq etish mumkin?

3. Keys: "Yangilikni Tatbiq Etishdagi Psixologik To'siqlar"

Bir maktabda yangi innovatsion pedagogik metodlarni joriy qilish uchun o'qituvchilarni maxsus treningga jalb qilishdi. Treningda o'qituvchilarga yangi pedagogik metodlar, ta'lim texnologiyalari va gumanistik yondashuvlar haqida ma'lumot berildi. Biroq, ba'zi o'qituvchilar o'z ish tajribalariga asoslangan qarashlarni o'zgartirishga tayyor emaslar va bu yangiliklarni qabul qilishda psixologik to'siqlar mavjud. O'qituvchilarga yangi pedagogik metodlarni qanday psixologik tarzda tatbiq etish mumkin?

Savol: Yangiliklarni qabul qilishda o'qituvchilarning psixologik to'siqlarini qanday yengish mumkin?

4. Keys: "Gumanistik Pedagogikaning Innovatsion Ta'limdagi O'rni"

Bir universitetda gumanistik pedagogika yondashuvlarini innovatsion ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tajriba o'tkazilmoqda. Gumanistik pedagogika o'qituvchining shaxsiyatini rivojlantirish, talabalarning ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlashga

qaratilgan bo'lsa-da, yangi texnologiyalar va metodologiyalarni tatbiq etishda ayrim to'siqlar paydo bo'ldi. Bu holatda, gumanistik pedagogikaning innovatsion ta'limdagi o'rni qanday bo'lishi kerak?

Savol: Gumanistik pedagogika va innovatsion pedagogikaning uyg'unligi qanday ta'minlanishi mumkin?

5. Keys: "Innovatsion Pedagogika bo'yicha Ta'lim Programmasi"

Bir universitetda innovatsion pedagogika bo'yicha yangi kurs yaratilmoqda. Kursning asosiy maqsadi o'qituvchilarni innovatsion pedagogik metodlar bilan tanishtirish, ularga yangi yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llashda yordam berishdir. Kursda nazariy materiallar va amaliy mashg'ulotlar birlashtirilgan. Kursni qanday tashkil qilish kerak? O'qituvchilarni yangi metodlarga qiziqtirish va ularga samarali o'qitish metodlarini o'rgatishning samarali yo'llari nimalardan iborat?

Savol: Innovatsion pedagogika bo'yicha ta'lim dasturini qanday samarali tarzda tashkil etish mumkin?

6. Keys: "Yangiliklarni Mustahkamlash va Ularning Amaliy Tadbiqi"

Bir maktabda yangi innovatsion metodlarni tatbiq etishda dastlabki muvaffaqiyatlar erishildi. Biroq, bu yangiliklarni o'qituvchilarning kundalik amaliyotiga tatbiq etishning davomiyligini ta'minlashda qiyinchiliklar mavjud. Yangiliklarni mustahkamlash va ularni amaliyotga kiritishda qanday strategiyalar qo'llanilishi mumkin? O'qituvchilarni doimiy ravishda yangiliklarga moslashishga qanday tayyorlash mumkin?

Savol: Yangiliklarni pedagogik amaliyotda mustahkamlash uchun qanday strategiyalarni qo'llash kerak?

8-mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyillari nimalardan iborat va ular innovatsion ta'lim jarayonida qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?

2. Innovatsion ta'lim bilan an'anaviy ta'lim o'rtasidagi farqlarni ta'riflab bering. Pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvning qanday ustunliklari mavjud?

3. Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi qaysi tarkibiy qismlardan iborat va bu jarayonda qaysi kasbiy kompetensiyalar asosiy o'rin tutadi?

4. Innovatsion jarayonlar ta'lim tashkilotlarida qanday bosqichlarda amalga oshiriladi? Ularning har bir bosqichi mazmuniga misollar bilan izoh bering.

5. Ta'lim jarayoniga AKT, raqamli platformalar va modul yondashuvni joriy etish o'quvchi kompetensiyalariga qanday ta'sir ko'rsatadi? Real ta'lim amaliyotidan misollar keltiring.

9-mavzu: Maktabni innovatsion boshqaruv modeli.

Zamonaviy, ilgor innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va ta'lim jarayoniga tadbqiq etish.

Maktabni innovatsion boshqarish — bu ta'lim muassasasini zamonaviy talablarga mos ravishda boshqarish, inson kapitalini rivojlantirish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va maktabni o'z vaqtida yangilab borish imkonini beruvchi boshqaruv modeli hisoblanadi. Innovatsion boshqaruv an'anaviy boshqaruvdan farqli o'laroq, qat'iy buyruqbozlikka emas, balki hamkorlik, jamoaviy qaror qabul qilish, ochiqlik, raqamlashtirish va sifat monitoringiga asoslanadi. Zamonaviy maktabning boshqaruv tizimi o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona va jamoatchilikni yagona maqsad — sifatli ta'limni ta'minlash yo'lida birlashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Maktabni innovatsion boshqarishning asosiy unsurlaridan biri — **maktabni rivojlantirish dasturidir**. Bu dastur 3–5 yilga mo'ljallanib, maktabning mavjud holati, imkoniyatlari, ehtiyojlari va istiqboldagi vazifalarini tizimli ravishda aniqlab beradi. Dasturda ta'lim sifati, o'qituvchilar malakasi, raqamli ta'lim, infratuzilma, psixologik muhit, o'quvchi kompetensiyalari, ota-onalar bilan

hamkorlik va maktabning tashqi aloqalari kabi yo‘nalishlar qamrab olinadi. Masalan, ko‘plab ta‘lim tizimlarida (Koreya, Yaponiya, Singapur va Finlyandiya) rivojlantirish dasturisiz maktabning strategik ishlari boshqarilmaydi. O‘zbekiston maktablari uchun ham “Harakatlar strategiyasi”, “2022–2026 ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi” asosidagi mahalliy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Rivojlantirish muhitida maktab ichki ishlarini tashkil etish — bu o‘quv jarayoni, tarbiya ishlari, o‘quvchilar faoliyati, sinfdan tashqari tadbirlar, o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonini tizimli rejalashtirish va monitoring qilish demakdir. Bunda o‘qituvchilar jamoasi faqat buyruqlarni bajaruvchi emas, balki jarayonni takomillashtiruvchi hamkor sifatida maydonga chiqadi. Innovatsion maktablarda pedagogik kengashlar ijtimoiy sheriklik asosida tashkil qilinadi: guruhli muhokama, muammoli vaziyat tahlili, SWOT tahlil, loyiha asosida rejalashtirish usullari qo‘llanadi. O‘qituvchilar o‘z sinfi, fani yoki yo‘nalishi bo‘yicha kichik ilmiy-metodik guruhlar tuzib, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatadi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish maktab boshqaruvining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli kundalik, onlayn dars platformalari, sun‘iy intellektga asoslangan baholash dasturlari, virtual laboratoriyalar, STEM, STEAM, CLIL, o‘yinlashtirilgan metodlar, loyihaviy ta‘lim, media savodxonlik kabi texnologiyalar o‘quv jarayonini faol, interfaol va qiziqarli qiladi. Masalan, matematika darslarida GeoGebra, tabiiy fanlarda PhET simulyatsiyalari, boshlang‘ich ta‘limda Scratch Junior, o‘qish darslarida audiokitoblardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va ijodiy yondashuvini kuchaytiradi. Innovatsion texnologiyalar maktabning barcha bo‘limlariga — boshqaruv, ta‘lim, tarbiya, monitoring, ota-onalar bilan hamkorlik jarayonlariga tatbiq etilishi zarur.

Maktab hayotini insonparvarlashtirish (gumanizatsiya) o‘quvchiga shaxs sifatida yondashish, uning qadr-qimmati, huquqi va

ehtiyojlarini hurmat qilishni anglatadi. Bu yondashuv o'quvchini "bilim qabul qiluvchi" emas, balki faol subyekt — fikrlovchi, his qiluvchi, o'z qaroriga ega bo'lgan shaxs sifatida ko'radi. Insonparvar maktabda bolaga qo'pollik, bosim, jazoga asoslangan yondashuv o'rniga dialog, maslahat, qo'llab-quvvatlash va individual ta'lim trayektoriyasi ustuvor hisoblanadi. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimi insonparvar yondashuvning eng samarali modellaridan biri sifatida tan olingan.

Demokratlashtirish va liberallashtirish — maktab boshqaruvining ochiq va shaffof bo'lishi, o'quvchi, ota-ona va o'qituvchilar fikrining qaror qabul qilish jarayoniga qo'shilishi demakdir. Demokratiya ta'limda ijtimoiy sheriklikni kuchaytiradi: o'quvchilar kengashi, ota-onalar qo'mitasi, pedagoglar kengashi orqali maktabning ichki hayoti boshqariladi. Liberallashtirish esa maktabga ichki erkinliklar beradi: o'quv rejalarini moslashtirish, o'quv jarayonini metodik jihatdan erkin tashkil qilish, innovatsion faoliyatni joriy etish imkoniyatlari kengayadi. Bu o'z navbatida ijodkor, mas'uliyatli va tashabbuskor o'qituvchilar jamoasini shakllantiradi. Boshqaruv madaniyati prinsiplari maktab rahbarining kasbiy kompetensiyalarini belgilaydi. Bu prinsiplarga strategik fikrlash, yetakchilik, muammoli vaziyatlarni hal qilish, adolat va shaffoflik, jamoani rag'batlantirish, kommunikativ madaniyat, o'z-o'zini rivojlantirish, vaqtni boshqarish, monitoring va tahlilni to'g'ri amalga oshirish kiradi. Innovatsion rahbar nafaqat buyruqlar beruvchi, balki jamoani yetaklovchi, motivatsiya beruvchi, yangiliklarni tatbiq etishda yo'l ko'rsatuvchi shaxsdir. Maktab rahbarining madaniyati o'qituvchilar kayfiyati, ta'lim sifati va o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Maktabni innovatsion boshqaruv modeli zamonaviy ta'limga xos bo'lgan: raqamlashtirish, hamkorlik, insonparvarlik, ochiqlik, sifat monitoringi, ustozlar malakasini oshirish, o'quv muhitini sog'lomlashtirish kabi tamoyillarni o'zida mujassam etadi. Ushbu model maktabni nafaqat o'qitish maskani, balki ijtimoiy-psixologik

rivojlanish markazi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabni innovatsion boshqaruv modeli ta'lim jarayonini texnologik, tashkiliy va ijtimoiy jihatdan yangilashga qaratilgan boshqaruv konsepsiyasidir. Bu modelda rahbarning vazifasi faqat nazorat qilish yoki buyruq berish emas, balki maktabning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhit yaratishdir. Innovatsion boshqaruvning zamonaviy talqinida maktab direktori — boshqaruvchi emas, balki **lider, jarayonlarni boshqaruvchi fasilitator, strateg, motivator** sifatida qaraladi. Innovatsion boshqaruvning asosiy mezonlaridan biri — **rivojlanish muhitini shakllantirish**dir. Bu muhit o'quvchi, o'qituvchi va ota-onaning o'zini erkin va qadrlangan his qilishi uchun zarur bo'lgan psixologik, tashkiliy, kommunikativ va texnik sharoitlar majmuasidir. Rivojlanish muhiti quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. **mazmuniy rivojlanish** — o'quv dasturlari, metodlar, baholash tizimlarini takomillashtirish;
2. **texnologik rivojlanish** — raqamli platformalar, elektron resurslar, simulyatsiya, multimediya vositalarini keng qo'llash;
3. **ijtimoiy rivojlanish** — sinf va maktab ichida sog'lom muloqot, konfliktlarni boshqarish, hamkorlikni kuchaytirish;
4. **madaniy rivojlanish** — maktabning o'ziga xos qadriyatlari, an'analari, ma'naviy hayotini boyitish.

Zamonaviy maktabni boshqarishda innovatsion yondashuvlar rahbarning strategik fikrlashi, jamoa bilan ishlash mahorati va ta'lim jarayonini tizimli modernizatsiya qilishga tayyor turishini talab qiladi. Maktab rahbari faqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi emas, balki o'quv jarayonining bosh g'oyasini ishlab chiqadigan, pedagogik innovatsiyalarni tanlaydigan, ularga sharoit yaratadigan hamda jamoani yagona maqsad atrofida birlashtira oladigan lider bo'lishi zarur. Buning uchun rahbar menejment nazariyasining asosiy tamoyillarini, pedagogik jarayonning psixologik mexanizmlarini, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini yaxshi bilishi kerak. Maktabni boshqarishning innovatsion modeli an'anaviy

buyruq-farmoyish uslubidan farq qilib, ochiq muloqot, jamoaviy qaror qabul qilish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, o'qituvchilarning ijodiy erkinligi hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi tashabbusini qo'llab-quvvatlaygan maktablar o'quv jarayonidagi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham, ijtimoiy ta'siri bo'yicha ham yuqori natijalarga erishmoqda. Innovatsion faoliyatga tayyor jamoa yaratishning eng muhim sharti — maktabda ochiq kommunikatsiya, o'zaro ishonch, motivatsiya va kasbiy o'sish muhitini shakllantirishdir.

Maktabning rivojlantirish dasturi innovatsion boshqaruvning eng asosiy hujjatlaridan biri sanaladi. Har bir rivojlanish dasturi maktabning real diagnostik tahliliga, pedagogik jamoa salohiyatiga, o'quvchilarning ehtiyojlariga va mahalliy ta'lim siyosatiga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim. Dastur o'z ichiga qisqa, o'rta va uzoq muddatli rejalarni qamrab oladi. Masalan, qisqa muddatli rejalarga o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasini oshirish, elektron kundalikni yo'lga qo'yish yoki o'quvchilarning o'qishga qiziqishlarini oshirish bo'yicha loyihalarni kiritish mumkin. O'rta muddatli rejalar esa o'quv dasturlarini kompetensiyaga yo'naltirish, sinflarni jihozlash, dars jarayonida interfaol metodlar ulushini oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Uzoq muddatli rejalarda esa maktabni hududiy ta'lim markaziga aylantirish, o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilanishi mumkin. Innovatsion boshqaruvning muhim jihatlaridan biri — maktab ichki ishlarini rivojlantirish muhitida tashkil etishdir. Bu avvalo o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga, maktabda sog'lom psixologik muhit yaratishga, o'quv jarayonini faollashtiruvchi zamonaviy vositalarni tatbiq etishga tayanadi. Ilg'or maktablarda o'quvchilarning tashabbus loyihalari uchun grantlar, ijodiy guruhlar, o'quvchi parlamenti, ota-onalar maslahatchilar kengashi tashkil etilishi amaliy tajribada yaxshi samara berayotgani kuzatiladi. Bu yondashuv

o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan kuchli ijtimoiy muhitni yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maktab boshqaruvining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Raqamli o'quv resurslaridan foydalanish, masofaviy ta'lim elementlarini qo'shish, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilar bilimini tahlil qilish, elektron baholash, ta'lim sifatini monitoring qilish kabi texnologiyalar maktab faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda rahbarning vazifasi — texnologiyani oddiy "jihoz" yoki "vosita" sifatida emas, balki o'quv jarayonining metodik asosiga aylantira olishdir. Samarali maktablarda raqamli resurslardan foydalanish o'qituvchilarning darsni o'qitish malakasini oshiribgina qolmay, o'quvchilarni mustaqil o'rganish, axborotni tanlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Maktab hayotini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va liberallashtirish innovatsion boshqaruvning asosiy tamoyillaridan bo'lib, har bir o'quvchi va o'qituvchining shaxsini hurmat qilish, ularning fikrini tinglash, teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilishni anglatadi. Demokratik boshqaruvda rahbar buyruq beruvchi emas, balki jamoani birlashtiruvchi, fikrlar xilma-xilligini qadrllovchi, ijodkorlikni qo'llovchi shaxsga aylanadi. Bunday maktablarda muammolar o'zaro muloqot orqali hal etiladi, o'quvchilarning qiziqishlari o'rganiladi, pedagoglarning kasbiy erkinligi va o'zini namoyon qilish imkoniyatlari kengayadi.

Boshqaruv madaniyati prinsiplari innovatsion boshqaruvning poydevori hisoblanadi. Bular — strategiklik, tashabbuskorlik, hamkorlik, shaffoflik, adolat, natijaga yo'naltirilganlik, pedagogik etika, mas'uliyat, jamoa bilan ishlash madaniyati, konfliktologik ko'nikmalar va boshqaruv estetikasi. Boshqaruv madaniyati yuqori bo'lgan maktablarda rahbar har bir xodimning imkoniyatini aniqlay oladi, ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, resurslarni adolatli taqsimlaydi va pedagogik jarayonni tizimli boshqaradi.

9-mavzu yuzasidan svaol va topshiriqlar

1. Maktabni innovatsion boshqaruv modeli an'anaviy boshqaruvdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Asosiy farqlarni izohlab bering.

2. Maktabni rivojlantirish dasturini tuzishda diagnostika, monitoring va strategik rejalashtirishning o'рни nimadan iborat? Amaliy misol keltiring.

3. Rivojlantirilgan maktab muhitini yaratishda o'quvchi, o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi uch tomonlama hamkorlik qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?

4. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni maktab ta'lim jarayoniga tatbiq etishning eng samarali yo'nalishlari qaysilar? Ulardan bittasini tanlab, maktabda qo'llash bo'yicha qisqa loyiha ishlab chiqing.

5. Maktab hayotini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va liberallashtirish boshqaruv madaniyatiga qanday ta'sir qiladi? Bunday yondashuvning kamida uchta afzalligini yozing.

10-mavzu: Boshlang'ich maktabda innovatsiya va integratsiyaning o'zaro aloqadorligi. Innovatsion ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish, fanlar hamda mavzulararo integratsiyada innovatsion metodlardan foydalanish.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining fikrlash tamoyili, tahlil qilish ko'nikmasi, dunyoqarashi va faol bilish jarayonlari shakllanadigan davr bo'lgani uchun innovatsion metodlar bilan integratsiyalashgan ta'lim modeli aynan shu bosqichda eng samarali natija beradi. Innovatsiya va integratsiya tushunchalari ta'lim jarayonida bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy omil bo'lib, ularsiz zamonaviy ta'lim standartlariga mos dars tashkil etish deyarli mumkin emas. Innovatsiya — yangi pedagogik texnologiyani yaratish, uni sinfga joriy etish va amaliy samaradorlikka erishish

demakdir. Integratsiya esa o'quvchi ongida fanlararo bog'liqlikni shakllantirish, dunyoni yaxlit idrok etish, bilimlarni izchil birlashtirish jarayonini anglatadi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni integratsiya bilan uyg'unlashtirish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va asosiy kompetensiyalarni chuqur egallashiga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar o'zaro mazmun jihatdan yaqin: "O'qish savodxonligi", "Ona tili", "Matematika", "Tabiatshunoslik", "Tarbiya" kabi yo'nalishlarda mavzular bir-birini to'ldiradi. Shu bois ularda fanlararo integratsiyani to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchi uchun bilimning yaxlit manzarasini yaratadi. Masalan, o'qish darsida berilgan matndagi voqealarni tabiatshunoslik darsidagi mavzu bilan bog'lash, matn ichidagi sonlar asosida sodda matematika amallarini bajarish yoki ona tili darsida matnda uchragan fe'llarni, sifatlarni topish orqali o'qish fanini mustahkamlash integratsiyalangan ta'lim misolidir. Bunday yondashuv o'quvchilarning mantiqiy bog'lanishlarni ko'ra olishini rivojlantiradi va bilimlarning ajralib ketmasdan tizimli singishiga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim muhiti esa fanlararo integratsiyani tabiiy ravishda qo'llashga keng imkon beradi. Raqamli platformalar, interaktiv metodlar, vizual va multisensorli materiallar integratsiyani kuchaytiradi. Multimedia vositalari, virtual maktab resurslari, animatsion darslar bir mavzuning bir nechta fan bilan bog'liq jihatlarini yoritish imkonini beradi. Misol uchun, "Suv aylanishi" mavzusini o'qish darsida hikoya orqali berish, tabiatshunoslikda jarayonning ilmiy mohiyatini tushuntirish, matematika darsida suv miqdori va o'lchov birliklarini hisoblash, tasviriy san'at darsida suv aylanishi sxemasini chizish — bu fanlararo integratsiyaning innovatsion modelga tayanib amalga oshirilgan namunali shaklidir. Innovatsion metodlar bunday integratsiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. CLIL (Content and Language Integrated Learning), STEAM, PBL (Project

Based Learning — loyihaviy ta’lim), tadqiqotga asoslangan o’qitish, o’yinlashtirish texnologiyalari integratsiyani tabiiy ravishda kuchaytiradi. Masalan, STEAM yondashuvi asosida “Parrandalar” mavzusini o’rganishda biologik xususiyatlar (S — science), parrandaning shakli va harakatini tushuntirish (T — technology), uning tana tuzilishi maketini yasash (E — engineering), geometrik shakllarni topish (A — art-design), parrandalar sonini hisoblash va tasniflash (M — mathematics) kabi bo’limlar uyg’unlashadi. Bu o’quvchining nafaqat bilim, balki amaliy ko’nikmalar tizimini ham mustahkamlaydi. CLIL yondashuviga misol sifatida ingliz tilidagi sodda leksik birliklarni matematika, tabiatshunoslik yoki o’qish darsiga qo’shish mumkin: “circle”, “triangle”, “sun”, “rain”, “big-small”, “long-short” kabi so’zlar orqali mavzulararo muloqot boyiydi.

Fanlararo integratsiyaning yana bir afzalligi — o’quvchi tafakkurida “fan chegaralari”ni yo’qotishdir. Zamonaviy o’quv jarayoni o’quvchini hayotiy vaziyatlar asosida fikrlashga o’rgatadi. Masalan, “Bozor”, “Transport”, “Tabiatdagi fasllar”, “Qushlar ko’chishi”, “Oilaviy byudjet” kabi mavzularni birgina fan orqali emas, balki turli fanlar vositasida yoritish amaliy hayotga yaqinlashtirilgan integratsiya modelidir. Bunday yondashuv o’quvchini real vaziyatlarni hal qilishga o’rgatadi, iqtisodiy savodxonlik, ekologik madaniyat, kommunikativ ko’nikmalar, mantiqiy tahlil, mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi. Innovatsion muhitda integratsiyani yo’lga qo’yish uchun o’qituvchi pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishi, metodik materiallarni moslashtirish olishi va darsni tizimli rejalashtirishi zarur. O’qituvchi dars rejasida maqsadlarni fanlar bo’yicha emas, balki o’quvchining umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirishi lozim. Integratsiyani samarali tashkil etishda o’quvchi faoliyati markazda bo’lishi shart: guruh ishlari, rolli o’yinlar, tajribalar, modellashtirish, grafiklar bilan ishlash, kichik loyiha taqdimotlari o’quvchilarni faol ishtirokchi sifatida rivojlantiradi.

Horijda innoatsion pedagogika sohasidagi izlanish olib brogan olimlar quyidagilardan iborat: G.I. Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A. Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar.

Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari

ustida pedagog olimlardan N. Azizxo'jayeva, B.Farberman, R.Mavlonova, U.Nishonaliyev, N. Sayidahmedov, M. Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Innovatsiyalar dolzarb muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
- O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimii).
- Kelib chiqish manbayiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi — sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli <<novatsiya>> va <<innovatsiya>> tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun

islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat bazi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilavotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi. natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. «Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan, majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir», - deb ta'kidlaydi V.I. Slobadchikov. Innovatsion faoliyat amaliy nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tavyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. O'tgan asrning 70-yillari oxirlarida A.M. Arseneva, K.N.Volkov, M.N.Skatkin va o'zbekistonlik pedagog-olimlardan bir guruhi pedagogika fani va

amaliyotida muvaffaqiyatga erishish muammosini hal qilish borasida samarali g'oyalarni ilgari surdilar va ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga tayyorgarlik darajasi asosiy o'rin egallashini asoslab berdilar. Shunga ko'ra <<Innovatsion o'zgarishlarni sezish, anglash har qanday o'qituvchiga xos bo'lavermaydi, - deb yozadi U.Nishonaliyev, - bu yerda eng asosiysi o'qituvchining o'zi yangilikni sezishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishidir>>. Innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi (exnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo'lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u g'oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilashi mumkin:

Birinchi bosqich - tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi.

Ikkinchi bosqich - mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya) lar, metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich - yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich - o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tavyorlashda jamoadagi psixologik muhitni, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur.

Pedagogika - ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimi: obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo'lmaslik uning asosiy xarakteristikalaridir. Insonning shakllanganligi, rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim, uning yuksak darajasi, talabga muvofiqligi obyektivlikning yagona talabidir. O'sib kelayotgan avlod tarbiyasi juda jiddiy jarayon bo'lib, uni o'tkinchi narsalarga bog'liq qilib qo'yish mumkin emas. Chunki uni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiati va uning rivojlanishi haqidagi obyektiv ma'lumotlarga ziddir. Mustahkam, kuchli, ta'sirchan tarbiya tizimini faqatgina pedagogika fanida o'rnatilgan obyektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu, albatta, innovatsion pedagogika hamda gumanistik (insonparvarlik) pedagogikalar bilan bog'liqdir.

Insonparvarlik lotincha <<homo>> so'zidan olingan bo'lib, <<insoniy>> degan ma'noni anglatadi. Insonparvarlik — inson qadriyatlari, erkinliklari, baxtga bo'lgan huquqini, qobiliyatlarini rivojlanishi va namoyon bo'lishini tan oladigan qarashlar tizimi. Gumanistik pedagogika, ko'pincha, fanda innovatsiya deb ataladi. Bunga o'quvtarbiyaviy ta'sir etish natijalari va tizimning ichki qayta tashkil etilishi

evaziga erishiladi. Gumanizm - insonning ma'naviy boyligi va yagona konsepsiyasidir. Bu konsepsiya asosiy maqsadi shaxs qadriyatini himoya qilish, uning ijodiy erkinligini rivojlantirish, o'z qobiliyatini namoyon etishda iborat. Insonparvarlik pedagogikasi o'z navbatida shaxsga qaratilgan. Uning belgilari: - ma'lumotlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalarni yuzaga keltirish hamda ularning psixik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishiga diqqatning qaratilishi;

- ijodiy, erkin, mustaqil fikrlovchi barkamol shaxsni shakllantirish uchun har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asosli qarorni tanlab qabul qila oladigan insonparvar fuqaroni yetishtirish;

- o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan ta'minlash;

tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda avtoritar (ko'r-ko'rona)likdan voz kechib, o'quvchi va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish, shuningdek, shaxs tarbiyasiga qaratilgan pedagogikani tushunishdan iborat. Insonparvarlik tarbiyasining maqsadi har bir tarbiyalanuvchining munosabatlarini, o'zlashtirish faoliyatini tola namoyon etib, haqiqiy mustaqil, izlanuvchan, erkin shaxs qilib yetishtirishdan iborat. Tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib berishi, uning qobiliyati, ijodiy faoliyatini keng yoritishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Talimning o'ziga xos tomoni, u tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib, ana shu asoslar yordamida pedagogik jarayonni tuzadi, bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari asosida loyihalashtiriladi va ta'lim tizimi muassasalarida tatbiq etiladi. Ta'lim tushunchasi, bu umumiy va yaxlit sifat mazmunining boglanishidir. Gumanistik pedagogika maktabi o'quvchining moslashuvini va unga qulay sharoit yaratishni talab qiladi. Insonparvarlik maktabi amaliy innovatsion faoliyatning aniq shakl va uslublari ishlab chiqqan. Quyida ulardan ba'zilar keltirilgan:

- o'quv-tarbiya faoliyatini differensiallash;
- o'quv-ta'lim jarayonlarini har xil shaxs faoliyatiga qarab muvofiqlashtirish;
- har bir tarbiyalanuvchi qobiliyati va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;
- o'quv-tarbiya faoliyatiga psixologik qulaylik yaratish;
- o'quvchiga va uning kuchi hamda imkoniyatlariga ishonish;
- o'quvchini qanday bo'lsa shunday qabul qilish;
- ta'lim-tarbiya ishlari muvaffaqiyatini ta'minlash;
- maktabning maqsadli yo'nalishini o'zlashtirish;
- har bir o'quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi;
- o'quvchining shaxsiy ichki yo'l-yo'riqlariga qayta yo'naltirish;

- insonparvarlik ta'limini kuchaytirish.

«Innovatsiya» so'zi inglizcha tilidan kelib chiqqan bo'lib, yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Olimlar innovatsion jarayonlarning tuzilishini o'rganib, yangilik kiritishning «hayotiy davri» deb alohida tushuntirib o'tganlar. Bu jarayon yangilikni yaratish va ijro etishni ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi. Hozirgi davrga kelib, ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Yangi g'oyaning paydo bo'lishi yoki yangilikning yuzaga kelishi bosqichi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo boladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish bosqichi, ya'ni moddiy yoki ma'naviy namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikning amalda qo'llanishi uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi.

4. Faqatgina yangilikni qabul qilish sharti bilan amalga oshirish.

5. Yangilikning tarqalishi, uning yangi sohalarga keng tatbiq etishni amalga oshirish.

6. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda, xususan, yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi.

7. Yangilik qollanilishining doirasi qisqarib, uning yangi mahsuldorligi bilan almashadi.

Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonlar bir-birini ketma-ket almashtirib. muntazam rivojlanib, soddalashtirilgan tizim asosida ifodalaydi. Innovatsion «Innovatsiya» atamasiga yaqin bo'lgan tushunchalar «o'zgarish», «mukammallashtirish», «isloh qilish» tushunchalari hisoblanadi, ammo ular o'rtasida ma'lum farqlar ham mavjud. Yangilik pedagogik tekshirishlarni baholashning asosiy o'lchovlaridan biri bo'lib, u ijodiy jarayonning asosiy natijasidir. Bu

o'z navbatida har qanday yangilik kiritishning mustaqil qiymati va xususiyatidir. <<Yangi>> tushunchasi innovatsion pedagogikada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Har qanday vositaning yangiligi - nisbiydir. Bir o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa boshqasiga yangilik bo'lmasligi mumkin. Yangilik doimo aniq tarixiy o'ziga xos tushunchaga ega bo'ladi. Aniq bir vaqtda vujudga kelgan vazifalarni hal etgan yangilik tezda ko'pgina kishilarning mulkiga, hamma tomonidan qabul qilingan ommaviy tajribaga aylanishi mumkin.

Dars mashg'ulotning xususiyatlari va tarixi. Ta'lim tizimida jumladan, boshlang'ich ta'limda amal qilib kelinayotgan dars tizimi mashg'ulotlarning asosiy xususiyatlarini o'ziga qamrab olgan majmua hisoblanadi.⁶ Dars mashg'ulotiga quyidagi xususiyatlar xos, dars:- o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat jarayon;- o'qituvchi rahbarligida ta'lim oluvchilar guruhi bilan olib boriladi;- o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli va markaziy qismidir;- ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantiradi;- uning sinf va amaliy tajriba shakllari mavjud;- samaraga erishishda o'qituvchi va o'quvchilarning teng faolligiga tayaniladi. Dars mashg'ulotiga xos bo'lgan bu xususiyatlar asrlar davomida ta'lim tajribasida shakllanib kelgan va amaliy sinovlardan o'tgan. SHarq va G'arb pedagogikasi tarixida dars mashg'ulotining o'ziga xos tarixi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Misol uchun, Sharq pedagogik merosida dars tizimining kelib chiqishi ota va farzandlarning o'zaro munosabatlari shakliga bog'lanadi. Unga ko'ra, farzandlar turmush va hayotga oid bilmaganlarini otadan so'rab o'rganishgan. Oiladagi bu jarayon keyinchalik ta'lim tizimida Ustoz va shogirdlarning munosabatlariga o'tgan. Buning natijasida Ustoz ta'lim beruvchi asosiy shaxsga va shogird esa ta'lim oluvchi individga aylangan. SHu tariqa dars jarayonining shakli, muddati va tizimlari tarkib topgan. SHuningdek, SHarq pedagogik manbalarida dars atamasining quyidagi ma'nosi ta'kidlanadi:

D – davomat, ya'ni ta'lim oluvchilarning ishtiroki;

A – aziyat, ya'ni ta'limni amalga oshirish jarayonida chekiladigan zahmatlar;

R – riyozat, ya'ni dars jarayonini hisob-kitob qilib borish;

S – sa'y, ya'ni ta'lim oluvchilarni rejali harakatlantirish. E'tibor berilsa, dars tushunchasi aniq reja, tizim va kutiladigan samaralarni anglatuvchi ma'noga tayanadi. Bunda dars jarayonining asrlar davomida aqliy, ruhiy va ma'naviy mehnatdan iborat bo'lib kelganligiga duch kelamiz. Dars - boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning shakl va usullari ko'p. Ayni paytda, asrlar davomida o'qitishning sinf-dars usuli qulayligi, maqbulligi va qiziqarliligi bilan asosiy shakl bo'lib kelmoqda.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida dars asosiy shakl sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: a) dars o'qitishning majmui (ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash) vazifasini bajaradi;

b) dars quyidagi qat'iy didaktik tizimga ega:- darsning boshlanishi va topshirig'ining aniq qo'yilishi; - uyga topshiriq orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmasini kuchaytirish; - yangi o'quv materiallarini tushuntirish ; -takrorlash orqali o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash; - o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash; - har bir darsning yakunlash xususiyatiga egaligi; - albatta uy vazifasining berilishi.

v) darsning mazmuni har bir o'quv faniga qo'yiladigan davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi va dasturlariga mos bo'ladi;

g) har bir dars mashg'ulotlar tizimining uzviy qismi hisoblanadi;

d) har bir darsda o'qituvchining ixtiyoriy metodlar va vositalar tanlash imkoni mavjud. Dars mana shu xususiyatlari bilan o'qitishning muhim shakli hisoblanadi va u hozirgi zamon dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'limida keng qo'llanilib kelinmoqda. Chunki dars jarayonida o'ziga xos mantiqiy izchillik va intizom mavjud. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida darsning bir necha tiplari farqlanadi. Bunday tiplarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Kombinatsiyali dars. Bunday dars tipi keng ommalashgan bo'lib, u quyidagi qismlarga bo'linadi: tashkiliy qism (1-2 daqiqa); uy vazifasining bajarilganligini tekshirish (10-12 daqiqa); yangi mavzuni o'zlashtirish (15-20 daqiqa); o'zlashtirganlarini mustahkamlash (10-15 daqiqa); darsni yakunlash (5 daqiqa); uy vazifasi berish (2-3 daqiqa).

2. Yangi o'quv materialini o'zlashtirish darsi. Mazkur dars tipida yangi o'quv materiallari o'zlashtiriladi va uning doirasida nostandart darslar ham tashkil qilinishi mumkin. Masalan muammoli dars, tadqiqotli dars, anjumanli dars kabilar shular jumlasidandir. Bunday nostandart darslar yangi o'quv materiallarini kutilgan darajada o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish imkonini beradi.

3. Mustahkamlash darsi. Ushbu dars tipida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunda amaliy seminarlar, ekskursiyalar, mustaqil topshiriqlarni bajarish va laboratoriya ishlari kabi shakllardan foydalanish mumkin. Bu dars tipi ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maqbul shakllardan hisoblanadi.

4. Umumlashtirish darsi. Bu dars tipida o'quv fanlarining mavzulari muayyan bloklar asosida umumlashtiriladi va yakun yasaladi. Bu dars tipi orqali o'quvchilarga yangi ma'lumotlar, topshiriqlar va mashqlar taqdim etiladi. Buning natijasida o'quvchilarda ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, umumlashtiruvchi dars tipida boshlang'ich ta'limda oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Nazorat darsi. Mazkur dars tipida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimi, ko'nikmasi va malakasi korrektsiya qilinadi, uning natijasida o'quvchilarning o'zlashtirishi nazoratga olinadi. Bu dars tipi har bir o'quvchini nazoratga olish imkonini beradi, u yozma yoki og'zaki so'rovnomalar, diktant, bayon va mustaqil ish yozdirish shakllarida tashkil etiladi. Bu dars tipi har bir o'quv fanining biror mavzusi yoki bo'limi yakunlangandan keyin o'tkaziladi. Ushbu dars tipining natijalariga ko'ra, keyingi darslar tiplari tanlanadi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda eng mashhur ana shu dars tiplaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda qo'llanishi mumkin bo'lgan quyidagi ommaviy dars tiplari ham mavjudligini eslatib o'tish joiz: - musobaqa darsi;- maslahat darsi;- o'zaro hamkorlik darsi;- o'quv fanlari aro o'yin darsi va h.k. Ushbu nostandart dars tiplaridan imkoniyatlarga qarab foydalanish ham tavsiya etiladi. Boshlang'ich ta'limda darsning zamonaviy turlari.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida darsning bir necha zamonaviy turlari shakllantirilgan. Lekin ularning negizida an'anaviy dars tizimi asoslari saqlanib qolgan. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda darsning quyidagi zamonaviy turlari kuzatiladi:- texnologik dars, bunda kompyuter kabi texnikalarning imkoniyatlaridan foydalanib an'anaviy va noan'anaviy shakllarda dars o'tiladi;- tajribaviy dars, bunda rivojlangan davlatlar masofadan turib ikkinchi bir davlatning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars o'tkazadi; - evristik dars, bunda boshlang'ich ta'limning biror o'quv fani bo'yicha yangi bilimlarni tajriba – sinovdan o'tkazish darsi amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'limda darsning bunday zamonaviy turlari dars tizimini yangilash, uning sifatini kuchaytirish va boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida darsning zamonaviy turlarini shakllantirish va ularni tajriba –sinov ishlaridan o'tkazish jarayoni kechmoqda. Misol uchun, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarga joriy etilgan yangi fan "Tarbiya" o'quv predmetining dars mashg'ulotlari o'quvchilarda fazilatlarni amaliy shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunda o'quv fanining asoslari bo'yicha qisqacha nazariy tushunchalar beriladi, asosiy e'tibor o'quvchilarni tarbiyalashning amaliy jihatlariga qaratiladi.

10-mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligini izohlang. Ular ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Fanlararo integratsiyani tashkil etishda o'qish, matematika va tabiatshunoslik fanlarining o'zaro bog'lanishiga amaliy misollar keltiring.
3. STEAM, CLIL, PBL kabi innovatsion metodlar integratsiya jarayonida qanday imkoniyatlar yaratadi? Har biridan bittadan misol bilan tushuntiring.
4. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarda qanday universal kompetensiyalarni shakllantiradi? Kamida beshtasini sanab, har biriga izoh bering.
5. Innovatsion ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchining roli nimadan iborat? Dars rejalashtirish, metod tanlash va o'quvchini faollashtirish jarayonida qanday talablar qo'yiladi?

11-mavzu: Integratsiya – ta'limning muhim prinsipi. Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish.

Integratsiya zamonaviy pedagogikaning eng asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, ta'lim jarayonida turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lash, ularning ichki va tashqi aloqalarini aniqlash hamda o'quvchi ongida bilimlarning yaxlit manzarasini yaratish demakdir. Integratsiya pedagogik jarayonda sektoral, bo'lingan, bir-biridan ajralgan bilimlar modelidan voz kechib, o'quvchining atrof-muhitni kompleks, bir butun tizim sifatida qabul qilishini ta'minlaydi. Ta'limning mazmuni tobora ko'payib borayotgan hozirgi sharoitda integratsiya bilimlarni ixcham, tizimli va izchil yetkazishga xizmat qiladi. Integratsiya tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogik tadqiqotlarda faol qo'llanila boshlagan bo'lib, ilmiy-psixologik manbalarda integratsiya o'quvchi tafakkurining differensialdan sintetik fikrlashga o'tishining asosiy mexanizmi

sifatida izohlangan. Piaget, Bruner, Vigotskiy kabi psixologlar bolalarning bilish faoliyatida yangi tushunchalarni avvalgi ma'lumotlar bilan bog'lash orqali yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish zarurligini ta'kidlagan. Bu yondashuv boshlang'ich ta'limda alohida ahamiyatga ega, chunki 7–10 yosh oralig'idagi bolalar konkret tasavvurlardan abstrakt fikrlashga o'ta boshlaydi va aynan integratsion darslar ushbu jarayonni osonlashtiradi.

Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish o'quvchi uchun turli fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglashga yordam beradi. O'quvchi matematika darsida sonlarni o'rganar ekan, tabiatshunoslikdagi miqdoriy o'zgarishlarni ham tushunadi; o'qish darsida matnni tahlil qilarkan, ona tili darsida so'z turkumlari va gap tuzilishi yanada mustahkamlanadi; tasviriy san'at darsida geometrik shakllarni chizish orqali matematika bilan amaliy bog'lanish hosil bo'ladi. Shunday qilib, integratsiya bilimning turli bo'laklarini yagona konseptual tizimga birlashtiradi va bilimlar segmentatsiyasining oldini oladi. Bu yondashuv konstruktivizm tamoyillariga ham mos bo'lib, o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki o'zi kashf etuvchi faol subyekt sifatida qatnashadi. Integratsiyalashgan darslarni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi bir necha metodik talablarga amal qilishi zarur. Birinchidan, dars maqsadi faqat fan bo'yicha emas, balki fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, o'quv materiallari o'zaro mantiqiy bog'langan holda tanlanadi. Masalan, "Bahor fasli" mavzusini o'qitishda o'qish darsida bahor haqida she'r o'qish, tabiatshunoslikda fasllar o'zgarishini o'rganish, matematika darsida faslga oid obyektlar asosida masalalar tuzish, tasviriy san'atda bahor manzarasini tasvirlash integratsiyaning to'laqonli namunasidir. Uchinchidan, dars jarayonida ko'rgazmalilik, tasvirlar, videomateriallar, amaliy mashqlar, mavzuga oid tajribalar qo'llanishi integratsiyani mustahkamlaydi. To'rtinchidan, guruhda ishlash, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, loyihaviy topshiriqlar integratsiyani yanada samarali qiladi. Bunday faol metodlar o'quvchilarning

kuzatuvchanligini, mantiqiy fikrlashini, ijodkorligini, kommunikativ ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni rejalashtirish jarayoni puxta tahlilni talab qiladi. O'qituvchi avvalo o'quv dasturini o'rganadi, undagi mavzularning bir-biriga yaqin tomonlarini topadi va integratsion imkoniyatlarni aniqlaydi. Dars rejasida umumiy maqsad, fanlararo bog'lanish, qo'llaniladigan metodlar, dars bosqichlari, o'quvchilarning faoliyat turlari aniq ko'rsatiladi. Masalan, "Suv – hayot manbai" mavzusini rejalashtirishda o'qish darsida suv haqidagi matn ustida ishlash, tabiatshunoslikda suvning xususiyatlari va aylanish jarayonini o'rganish, matematika darsida suv miqdori bilan ishlash, texnologiya darsida suvni tejash bo'yicha amaliy maslahatlar berish mumkin. Bu jarayon o'quvchining bilimni real hayot bilan bog'lab olishini kuchaytiradi va o'quv motivatsiyasini oshiradi. Integratsion rejalashtirishning yana bir muhim jihati – darsda rivojlantirilishi kerak bo'lgan universal o'quv harakatlarini (tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish) aniqlab olishdir.

Integratsiyalashgan ta'limning samarali ishlashi uchun o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari konkret-obrazli tafakkurga tayanadi, shuning uchun ular uchun fanlararo bog'lanishlar ham ko'rgazmali, sodda va hayotiy misollar orqali ochib berilishi kerak. Ta'lim psixologiyasi tadqiqotlariga ko'ra, 7–10 yosh oralig'idagi bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta jarayonni kuzatish va solishtirish qobiliyatiga ega, biroq abstrakt bog'lanishlarni mustaqil aniqlashda qiynaladi. Shu sababli integratsiyalashgan darslarning birinchi bosqichlarida o'qituvchi bog'liqlikni o'zi yaratadi, keyingi bosqichlarda esa o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Masalan, "Ona tili" darsida gap bo'laklarini o'rgatish jarayoni "O'qish savodxonligi"dagi hikoyadagi voqealar ketma-ketligi bilan bog'lanadi; "Tabiatshunoslik" darsida hayvonlarning turlari o'qitilayotganida "Matematika" darsida tasniflash, sanash va

taqqoslash ishlari bajariladi; “Tarbiya” darsida oila mavzusi o‘tilganida “Texnologiya” darsida oilaviy buyumlar, kundalik mehnat jarayonlari haqida amaliy topshiriqlar beriladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni mavzularni real hayot bilan uyg‘unlashtirishga o‘rgatadi.

Integratsiyaning yana bir muhim jihat – o‘quvchi bilimidagi “uzilishlar”ni kamaytirishidir. An’anaviy yondashuvda o‘quvchi matematika, ona tili yoki tabiatshunoslikni alohida tizim sifatida o‘zlashtiradi; natijada bilimlar ko‘p hollarda real vaziyatlarda qo‘llanilmaydi. Integratsiya esa bilimning “yashashi”ni ta’minlaydi. Masalan, “Fasllar” mavzusini o‘qigan o‘quvchi faqat matnni emas, balki fasllarning tabiatga ta’sirini, odamlarning hayotidagi o‘zgarishlarni, hayvonlarning moslashuv jarayonlarini ham tushunadi. Shu tariqa integratsiya o‘quvchining ekologik madaniyatini, iqtisodiy savodxonligini, kundalik hayotdagi mantiqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda o‘qituvchi o‘quv dasturi bilan bir qatorda darsliklar mazmunini tanqidiy tahlil qiladi. Darsliklarda berilgan topshiriqlar tarkibidagi bog‘lanishlardan foydalanish, qo‘shimcha manbalar bilan kengaytirish, interfaol mashqlarni qo‘shish integratsiyaning sifatini oshiradi. Raqamli resurslar, virtual modellar, onlayn sensor kartalar, video tajribalar dars mazmunini boyitib, bir mavzuni bir nechta fan kesimida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Masalan, “Tabiatdagi suv aylanishi”ni o‘rgatishda real video tajribalar, bulutlar hosil bo‘lish modeli, suv bug‘lanish jarayoni animatsiyalari qo‘llansa, o‘quvchi mavzuni faqat bilmaydi, balki ko‘radi, eshitadi, o‘lchaydi va tahlil qiladi. Bu multisensor yondashuv integratsiyaning psixologik asosini mustahkamlaydi.

Integratsiyaga asoslangan darslarda baholash tizimi ham o‘ziga xos. Baholash faqat bir fan bo‘yicha emas, balki o‘quvchining umumiy faoliyati, tahlil qilish, kuzatish, bog‘lanishlarni topish, savollarga mustaqil javob berish, topshiriqlarni hayotiy vaziyatga moslashtirish kabi kompetensiyalar asosida amalga oshiriladi. Bu format

o'quvchini ball olish uchun emas, o'rganish uchun o'qishga undaydi. Formativ baholash, o'zini baholash, juftlikda baholash integratsion ta'limning eng samarali mexanizmlaridan biridir. Umuman olganda, integratsiya boshlang'ich ta'limning mazmunini yangilash, o'quvchini markazga qo'yish, kompetensiyaga asoslangan ta'limga o'tish va XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishning eng muhim vositasidir. Bugungi kunda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar integratsiyani nafaqat metodik tavsiya, balki majburiy ehtiyojga aylantirdi. Chunki global dunyoda bilim alohida bo'laklarda emas, balki tizimli va o'zaro bog'langan holda qo'llaniladi; boshlang'ich maktab esa bu tizimga tayyorlashning birlamchi poydevoridir.

Integratsiya tushunchasi. "Integratsiya" tushunchasi lotincha bo'lib, to'liq, yaxlit va bir butunlik ma'nolarini anglatadi. Atama sifatida integratsiya so'zi quyidagilarni ifodalaydi: 1) o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligini; 2) o'qitish jarayonining boshqa turdosh faoliyatlar bilan aloqadorligini. XX asr oxirlarida butun dunyoda davlatlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlari boshlandi. Buning natijasida ta'lim va ilm-fanda ham integratsion jarayonlari yuzaga kelib, unda g'oyaviy bog'liqlik, mavzuli aloqadorlik va ilmiy metodik samaradorlik masalalarga alohida e'tibor berila boshlandi.

Pedagogik nuqtai nazardan integratsiyaning quyidagi afzalliklari mavjud:

- o'quv rejalari, dasturlari va adabiyotlarini turdosh fanlar bilan aloqadorlikda tuzish, buning natijasida fanlar mavzularida takroriylikning yuzaga kelmasligi;

- ta'lim va tarbiya ishlarini turdosh fanlarning o'zaro bog'liqligida amalga oshirish;

- ta'lim muassasasining hamkorlik ko'lamining kengayishi;

- ta'lim beruvchilarning professional hamkasblari bilan o'zaro aloqaga kirishishi;

- ilmiy ishlanmalarning amaliy xususiyatlari kuchayishi.

Integratsiyaning mazkur yutuqlari ta'lim va tarbiya tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, ularning xalqaro hamkorlik

yo'nalishlarini belgilash hamda ta'limning sifat samaradorligiga erishishda qo'l keladi. Pedagogik integratsiyani yuzaga keltirish uchun bir necha talablar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasalariga teng shart-sharoit yaratish va ularni bir xil texnologik jihozlash;

- fanlarning muammolarini hamkorlikda hal etish;

- ta'lim va tarbiya jarayonining texnologiyalari, metodlari va vositalarini manfaatdor muassasalar bilan birgalikda yaratish;

- ta'lim va tarbiya ishtirokchilarining nazariy bilimi, ko'nikma va malakasini takomillashtirib borish. Mazkur talablar pedagogik integratsiyaning mazmunini tashkil qiladi. SHu jihatdan integratsion jarayonlarni ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalar, yondashuvlar hamda kontseptsionalarni yaxlit organizm sifatida tushunish kerak. 2018 yildan boshlab Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida integratsiyaning innovatsion pedagogik ta'lim klasteri joriy etila boshlandi. Unga ko'ra, klaster usuli innovatsion pedagogik integratsiyaning asoslaridan biri sifatida qabul qilindi va mazkur innovatsion integratsiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

- o'quv jarayoni va amaliyotning uyg'unligini birlamchi bilish;- kafedralarning mahalliy va xalqaro hamkorligini qat'iy kuchaytirish;

- institutning Toshkent viloyati ta'lim muassasalari bilan nazariy va amaliy hamkorligini amalga oshirish;

- viloyatning ta'limga oid muammolarini barcha manfaatdorlar bilan birgalikda hal etish;

- pedagog kadrlarni tayyorlashda ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish;- "Maktab-laboratoriya"lar tashkil etish. Buning natijasida Institut va Toshkent viloyati ta'lim muassasalari o'rtasida o'ziga xos integratsion jarayonlar yuzaga keldi. Natijada institutning ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari amaliyot bilan bog'lana boshlandi, shuningdek, viloyat ta'lim muassasalarining muammolarini institut bilan hamkorlikda ilmiy, pedagogik va psixologik jihatdan hal etish

imkoniyatlari paydo bo'ldi. Pedagogik integratsiyada ta'lim beruvchilar va ta'limdan manfaatdorlar o'rtasida o'zaro hamkorlikka asosiy e'tibor qaratiladi. SHu sababli hozirgi zamon pedagogikasida ta'lim va tarbiyaning sifat samaradorligiga erishishda integratsiya jarayonlari innovatsion yondashuvlar bilan birgalikda muhim o'rin tutmoqda.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida keyingi yillarda integratsiya jarayoni amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda integratsiya muammolarini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan hal etilmaganligi mazkur jarayonni idrok etish ishlari qiyin kechmoqda. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga binoan boshlang'ich ta'limda integratsiya asoslarini quyidagilar tashkil etadi:- o'quv rejalari va dasturlarining turdosh fanlar bilan hamkorlikda tuzilishi;- o'quv adabiyotlarining turdosh fanlar bilan hamkorlikda yaratilishi va bunda mavzularning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;- boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bilan aloqadorlikda amalga oshirish;

- boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoniga turdosh fanlar tajribasidan o'tgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;

- boshlang'ich ta'lim muammolarini pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlar bilan hamkorlikda ilmiy tatqiq etish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining optimal va uzviylik tamoyillariga asosan bog'liqligini ta'minlash;

- boshlang'ich ta'limning tajribaviy yutuqlarini boshqa ta'lim turlari va fanlariga taqdim etib borish. Mazkur yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda integratsiyani tarkib toptirish mumkin. Aslida ta'limda integratsiya muayyan ta'lim yoki o'quv fanining yutuqlarini ommalashtirish va o'zgalarning yutuqlarini o'zlashtirishdan iborat. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda integratsiya quyidagi mexanizmlarga asoslanadi:

- o'quv fanlarini turdosh ta'lim bosqichlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda o'qitish;

- o'quv adabiyotlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlikda yaratish;

- boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchilarning faoliyatini manfaatli hamkorlik asosida tashkil etish. Ushbu mexanizmlarga asosan boshlang'ich ta'limda integratsiya jarayonini yuzaga keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida boshlang'ich ta'limda integratsiyani tarkib toptirish uchun quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:- o'zaro uzviy bog'liq o'quv fanlarini birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish;- o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish;- fanlararo o'zaro aloqadorlikni qat'iy ta'minlash;- yangi avlod darsliklarini o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish hamda nashr etish. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash natijasida O'zbekiston boshlang'ich ta'limida o'ziga xos integratsiya yuzaga keladi. SHu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur asoslarni kutilgan darajada o'zlashtirishi va boshlang'ich ta'lim integratsiyasi muammolariga doir yaratilayotgan ilmiy ishlanmalardan xabardor bo'lib borishi taqozo etiladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining integratsion faoliyat asoslari. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (murabbiylari) hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida integratsion shaklda faoliyat yuritishi kerak. Bunday faoliyatning asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:- o'quv dasturlarini hamkor o'qituvchilar bilan birgalikda ishlab chiqish;

- murakkab mavzularni imkon qadar mutaxassislar ishtirokida o'qitish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ta'limiy va tarbiyaviy maslahatlarga ega bo'lish;

- o'qituvchi kitobi bilan va imkon bo'lsa uning mualliflari bilan ishlash;

- maktab jamoasi va hududiy xalq ta'limi bo'limlariga o'z faoliyati bo'yicha ma'lumotlar taqdim qilib borish;

- o'zining individual ish uslubiga ega bo'lish. Bu asoslarga tayangan holda faoliyat yuritish o'qituvchining fanlararo va faoliyat doirasida integratsiya ish yuritish hisoblanadi. Aslida boshlang'ich sinf o'qituvchilari deyarli barcha asosiy fanlar bo'yicha mutaxassislar sifatida maslahatchi maqomida turadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsion faoliyatga tayyorlash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- mutaxassislik va pedagogik fanlarni integratsion tarzda o'qitish;
- pedagogik integratsiya bo'yicha maxsus yoki fakultativ kurslar o'tish;

- fanlararo bog'lanishni tushuntirish;

- oliy ta'lim muassasasidan tashqari ta'lim muassasalari bilan bog'lanish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik integratsiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan ham tanishtirilishi kerak, afsuski, pedagogik integratsiya muammolariga doir mamlakatimizda ilmiy ishlanmalar kam. SHu sababli boshlang'ich ta'limga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, Farmonlari va Qarorlariga diqqat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlatimiz rahbarining kontseptsiyasiga ko'ra, integratsiya – jamiyat tuzilmalarining barcha bo'g'inlarida tarkib topishi kerak, bundan maqsad yagona tizim va jarayonga ega bo'lishdir. SHu sababli yangidan yaratilgan "Milliy o'quv dasturi"da boshlang'ich sinf fanlarining o'zaro bog'liqlik jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Misol uchun, Husnixat predmeti Ona tili va o'qish predmeti bilan yagona reja va dasturga ega. Bunda Ona tilining Husnixat va O'qish predmetlarini integratsiya qilib borishiga duch kelamiz. Ayni paytda, fanlarning g'oyaviy bog'liqligi

ularning individualligiga daxl qilmasligi kerak. Chunki har bir o'quv fanining o'z ob'ekti va sub'ekti bor. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining integratsion faoliyati deganda ko'p hollarda uning turdosh fanlar mazmunidan xabardor bo'lishi tushuniladi.

11-mavzu bo'yicha 5 ta nazorat savoli:

1. Integratsiya nima va u boshlang'ich ta'lim jarayonida qanday didaktik vazifani bajaradi?
2. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari nima uchun muhim hisoblanadi?
3. Integratsiya o'quvchining bilimida yuzaga keladigan "uzilishlar"ni kamaytirishda qanday mexanizm sifatida ishlaydi?
4. Fanlararo integratsiyani rejalashtirishda o'qituvchining darsliklar va qo'shimcha manbalarni tahlil qilishi qanday natija beradi?
5. Integratsiyalashgan darslarda baholash tizimi an'anaviy baholashdan nimasi bilan farq qiladi va qaysi kompetensiyalarni aniqlashga yordam beradi?

12 mavzu: Boshlangich maktabda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish. Integratsiyalashgan darsturlar.

Integratsiyalashgan ta'lim boshlang'ich maktabda o'quv jarayonini yaxlit holda tashkil qilishga xizmat qiluvchi didaktik tizim bo'lib, unda alohida fanlar o'rtasidagi bog'lanishlar bir butun mazmun sifatida shakllantiriladi. Bu yondashuv o'quvchilarda bilimlarning parchalanib ketishini kamaytiradi, turli mavzularni yagona mazmuniy asosda o'zlashtirishga yordam beradi. Integratsiya jarayonida o'quvchi bir mavzuni turli fanlar nuqtayi nazaridan ko'ra olishi, real hayotiy vaziyatlarda bilimdan foydalanishni o'rganishi ta'minlanadi. UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlar boshlang'ich ta'limda integratsiya o'quvchini XXI asr kompetensiyalariga

tayyorlashning eng samarali yoʻlidan biri ekanini taʼkidlaydi. Integratsiyalashgan dasturlar oʻquvchi tafakkurini mantiqiy, tizimli va funksional rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, ular oʻqish, matematika, tabiatshunoslik, texnologiya, sanʼat kabi yoʻnalishlarning mazmuniy uygʻunlashuviga asoslanadi. Zamonaviy integratsiya odatiy “fanlararo bogʻlanish”dan farqli ravishda murakkab kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltiriladi: axborot bilan ishlash, tadqiqot olib borish, muloqot qilish, muammoni yechish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi koʻnikmalar bitta dars jarayonida shakllantiriladi.

Integratsiyalashgan darslarni samarali tashkil etishning asosiy sharti – oʻqituvchining ichki tayyorgarligi. Ichki tayyorgarlik faqat darsning mazmunini oʻzlashtirish emas, balki darsning umumiy gʻoyasini anglash, mavzular oʻrtasidagi mantiqiy, mazmuniy va funksional bogʻlanishlarni aniqlash, oʻquvchi psixologiyasini hisobga olgan holda metod tanlashni oʻz ichiga oladi. Oʻqituvchi integratsiyalashgan darsni rejalashtirishdan avval har bir fan boʻyicha asosiy oʻquv maqsadlarini tahlil qiladi, umumiy kompetensiyani aniqlaydi va shu maqsadga mos metodik vositalarni tanlaydi. Zamonaviy integratsiyalashgan dasturlar Finlandiya, Estoniya, Singapur kabi davlatlarda muvaffaqiyatli qoʻllanilmoqda. Ularning tajribasida asosiy urgʻu mavzulararo loyihalar, muammoli vaziyat asosida oʻqitish, oʻyinlashtirilgan taʼlim, STEAM yondashuvi va tadqiqot metodlariga qaratilgan. Boshlangʻich taʼlim uchun ishlab chiqilgan integratsiyalashgan dasturlarda har bir dars aniq kompetensiyani shakllantirishga qaratiladi: masalan, oʻqish darsida matnni tahlil qilish, matematika darsida diagramma tuzish va tabiatshunoslik darsida kuzatish olib borish bitta mavzuda uygʻunlashtirilishi mumkin.

Integratsiyalashgan darslarning samaradorligi bir nechta omillar bilan belgilanadi. Avvalo, oʻquvchi bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qoʻllashga oʻrganadi, buning natijasida bilimning amaliy qiymati ortadi. Ikkinchidan, integratsiya oʻquvchini faol subyektga

aylantirib, dars jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy izlanish olib borish va o'z fikrini asoslashga undaydi. Uchinchi, integratsiya jarayonida o'quvchilar orasida hamkorlik kuchayadi. Jamoaviy topshiriqlar, loyihalar, tahlillar o'quvchilarni bir-biridan o'rganishga, fikr almashishga va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. To'rtinchi, o'qituvchi darsni bir nechta fan asosida qurayotgani bois dars mazmuni yanada boyiydi, mavzu kengroq, chuqurroq va hayotiyroq talqin qilinadi. Bu esa o'quvchi tafakkurida mavzularning yaxlit tasvirini shakllantiradi. Integratsiyalashgan darslarning yana bir muhim afzalligi – o'quvchilarni turli axborot manbalari bilan ishlashga o'rgatishi. Dars jarayonida kitob, xarita, tajriba materiali, elektron resurs, grafik, jadvallar birgalikda qo'llanadi va o'quvchi har bir axborot turini o'qish, taqqoslash hamda umumlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Boshlang'ich maktabda integratsiyadan foydalanish o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos keladi. Chunki bu yoshdagi bolalar mavzuni fragmentlarga bo'linmagan, yaxlit, ko'rgazmali, hayot bilan bog'langan holatda osonroq qabul qiladi. Shu sababli integratsiya dars jarayoniga tabiiy kirishadi va o'quvchining kognitiv rivojlanishiga mos keladigan ta'lim shaklini yaratadi. O'qituvchi darsda nazariy ma'lumotni amaliy faoliyat bilan bog'laydi, masalan, tabiatshunoslikda kuzatilgan hodisani matematika orqali o'lchash, o'qish darsida o'sha hodisa haqida matnni o'qish, texnologiya darsida esa o'sha mavzuga oid kichik model yasash mumkin. Bunday tizim darsning faqat bilim berishi emas, balki fikrlash jarayonlarini faollashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Integratsiyalashgan ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun o'qituvchi mazmun, metod va vositalar uyg'unligiga tayanadigan puxta metodik tizimga ega bo'lishi lozim. Bu jarayon o'z ichiga uch asosiy yo'nalishni qamrab oladi: mazmunni integratsiyalash, faoliyatni integratsiyalash va metodlarni integratsiyalash. Mazmunni integratsiyalash deganda, turli fanlarga oid mavzularni yagona g'oya atrofida birlashtirish tushuniladi.

Masalan, “Tabiatdagi fasllar” mavzusi o‘qish, matematika, ona tili, tasviriy san’at va texnologiya fanlarida bir xil ilmiy g‘oya asosida yoritilishi mumkin. Faoliyatni integratsiyalash esa o‘quvchilarning kuzatish, tajriba, tahlil, tasniflash, chizish, o‘qish, hisoblash kabi ko‘nikmalarini bitta mavzu doirasida uyg‘un qo‘llashni ta‘minlaydi. Metodlarni integratsiyalashda esa darsda interfaol usullar, amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar, jamoaviy loyihalar va o‘yin elementlarining birgalikda qo‘llanishi ta‘minlanadi. Zamonaviy integratsiya aynan shu uch yo‘nalishning bir butun tizimga aylanishini talab qiladi. Bu yondashuv Finlandiya, Estoniya, Singapur, Kanada kabi davlatlarda “fenomen asosida o‘qitish”, “modul asosida o‘qitish” va “fanlar guruhi asosida o‘qitish” shaklida joriy etilgan.

Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda o‘qituvchining tahliliy yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi avvalo birlashtiriladigan mavzularning mazmuni va kompetensiyalarini aniqlaydi. Keyin umumiy asos bo‘ladigan g‘oyani belgilab, darsni shu g‘oya atrofida quradi. Masalan, “Suv – hayot manbai” mavzusi doirasida o‘quvchilar o‘qish darsida suvning xususiyatlari haqida matn o‘qishlari, tabiatshunoslik darsida suvning holatlari va aylanish jarayonini kuzatishlari, matematika darsida suvga oid masalalarni yechishlari, texnologiya darsida suvni tejash bo‘yicha plakat yaratishlari mumkin. Bu tizim o‘quvchi uchun mavzuni turli nuqtai nazardan anglash va o‘zlashtirish imkonini beradi. Integratsiya darsni murakkablashtirmaydi, aksincha, dars mazmunini tabiiylashtiradi, chunki o‘quvchi kundalik hayotda bir masalani turli bilimlar asosida hal qiladi. Demak, integratsiyalashgan dars real hayot modeliga yaqin bo‘ladi.

Integratsiyalashgan ta‘limning samaradorligi tadqiqotlarda ham isbotlangan. OECDning ta‘lim bo‘yicha hisobotlarida integratsiyalashgan o‘quv dasturlari o‘quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va muloqot kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishi qayd etilgan. PISA tadqiqotlari natijalari ham mazmuni integratsiyalashgan maktablarda o‘quvchilar

murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, axborot bilan ishlash va hayotiy masalalarni mustaqil hal qilishda ko'proq muvaffaqiyatga erishishini ko'rsatadi. Chunki integratsiya jarayonida o'quvchi har bir mavzuni izohlashda faqat bir fan doirasida qolmaydi, balki tajriba, mantiqiy tahlil, o'qish, tasvirlash, hisoblash kabi ko'nikmalarni bir vaqtda qo'llashni o'rganadi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelgani uchun o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar mavzularni yaxlit idrok etadi va tasavvurlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish qobiliyati kuchli bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi bir mavzuda ko'p fanlarni uyg'un ko'rganida uni eslab qolishi va real vaziyatda qo'llashi osonlashadi. Integratsiya ayniqsa 1–4-sinflarda samarali bo'ladi, chunki boshlang'ich sinflarda fanlar soni ko'p emas va ulardagi mazmun bir-birini to'ldiradigan tabiatga ega. O'qish darsidagi matnlar matematika, tabiatshunoslik, texnologiya darslaridagi mavzular bilan bog'lanishi o'quvchining bilim sifatini oshiradi.

O'qituvchida integratsiyalashgan darsga ichki tayyorgarlikni ta'minlash pedagogik mahoratning eng muhim ko'rinishlaridan biri sanaladi. O'qituvchining ichki tayyorgarligi uch tarkibdan iborat: mazmuniy tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik. Mazmuniy tayyorgarlikda o'qituvchi birlashtiriladigan barcha fanlarning asosiy g'oyalarini chuqur bilishi lozim. Metodik tayyorgarlikda o'qituvchi darsni bir necha faoliyat turini uyg'unlashtirgan holda tashkil qila olishi, o'quvchilarga mos keladigan metodlarni tanlashi va dars jarayonida ularni moslashtira bilishi kerak. Psixologik tayyorgarlik esa o'quvchi qiziqishini faollashtiruvchi, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlovchi, xatodan qo'rqmasdan fikr bildirishga undaydigan muhit yaratishni anglatadi. Bunday tayyorgarlik mavjud bo'lmasa, integratsiyalashgan dars o'z mazmunini yo'qotadi va faqat tashqi ko'rinish bo'lib qoladi.

Integratsiyalashgan ta'limning yana bir muhim jihati – baholash tizimining o'ziga xosligidir. An'anaviy baholash faqat bilimni

tekshirsa, integratsiyalashgan baholash o'quvchining ko'nikma, faoliyat, mantiqiy bog'lanish o'rnatish, axborotni qayta ishlash va jamoada ishlash kabi kompetensiyalarini baholaydi. Formativ baholash, portfel, loyiha baholash, kuzatish kartalari integratsiya darslarida eng samarali baholash vositalari hisoblanadi. Ulardan foydalanish o'quvchining yutuqlari va rivojlanish dinamikasini aniq ko'rsatadi.

Integratsion dars – bu mavzularni va mashg'ulotlarni hamkorlikda, mutaxassislar ishtirokida va o'quvchilar faolligida o'tish jarayonidir. Integratsion darslarning maqsad – muddaosi quyidagilarga qaratiladi: a) o'quvchilarning aqliy va emotsional qobiliyatlarini mutaxassislar ishtirokida rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab psixologining ishtiroki muhim hisoblanadi); b) o'quvchilarning irodasini rivojlantirish va ularni stresslardan muhofaza qilish (misol uchun, bu borada maktab shifokorining yordami ahamiyatli hisoblanadi); v) o'quvchilarning o'ziga ishonchini rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisining yordami muhimdir); g) o'quvchilarning individual xarakterini rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisining yordami ahamiyatga ega). E'tibor berilsa integratsion darslar o'z kasbining ustalari va mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf Matematika fanini o'qitishda maktab matematika fani o'qituvchilarining va ilmiy matematik olimlarning o'zaro hamkorligiga asoslanish kutilgan samarani beradi. SHu sababli integratsion darslarni tashkil qilishda maxsus tayyorgarlik ko'riladi. Bunday darslar har bir o'quv fanining 10-15 foiz mavzularini qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki integratsion darslar vositasida o'quvchilarga ko'p ma'lumotlar va tushunchalar berish imkoniyati mavjud. Integratsion darslarning didaktik asoslari quyidagilardan iborat:- darsda aniq muammoni qo'yish va dars oxirida muammoning yechimiga erishish;- darsda har bir berilayotgan bilim va tushunchalarning ta'rifi hamda misollari

keltiriladi;- yangi mavzuni tushuntirishda imkon qadar mutaxassis yordamiga tayaniladi;- dars davomida o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni savollar berish bilan tekshirib boriladi;- darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarning bilimi va tushunchasi darhol baholanadi;- dars yakunida beriladigan uy vazifalarini katta yoshlilar bilan hamkorlikda yechish nazarda tutiladi. Bunday didaktik asoslarga ega bo'lgan mashg'ulotlar integratsion dars deb yuritiladi. Bu tipdagi darslarda muayyan mavzu bo'yicha o'quvchilarga keng tushunchalar, bilimlar va ko'nikmalar berish nazarda tutiladi. SHu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan integratsion darslarda o'tilishi lozim bo'lgan mavzular tanlanadi. Integratsion darslar turlari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida integratsion darslar turlari shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. SHu sababli bu o'rinda e'tiboringizni integratsion darslarning quyidagi turlariga tortamiz: 1. Auktsion dars. Mazkur integratsion dars turi auktsion tarzda o'tkaziladi. Unga ko'ra, muayyan mavzular bo'yicha qisqacha tushuntirish berilib, o'quvchilarning fikri o'rganiladi va ular mutaxassis tomonidan baholab boriladi. Bunday darsda o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va guruh a'zolari qo'yilgan mavzular bo'yicha fikrlar taqdimotini o'tkazadi. Qaysi guruhning fikri mavzuni keng yoritib bersa, shu g'uruh g'olib hisoblanadi va guruh a'zolarining har bir teng baholanadi. Auktsion dars yakunida uy vazifasi berilmaydi. 2. Hamkorlik darsi. Integratsion darsning bu turi muayyan mavzularni mutaxassislarning ishtirokida o'tkazishga asoslanadi. Unda mutaxassis mavzuni ma'ruza tarzida tushuntiradi va dars yakunida o'quvchilarning savollariga javob beradi. Hamkorlik darsining amaliy mashg'uloti bo'lib, u maxsus dars sifatida o'tiladi. Unda mutaxassis ma'ruzasi muhokama qilinadi va o'quvchilarning mavzuni qanday tushunganligi hamda o'zlashtirganligi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilarning muhokamada ishtirok etishiga tayanib ularning bilimini baholaydi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida har chorakda bir marta hamkorlik darsi o'tkazish tavsiya etiladi. 3.

Innovatsion dars. Integratsion darsning bu turida ko'p hollarda kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Unga ko'ra, o'qituvchi tomonidan mavzu va uning matni kompyuter dasturiga joylashtiriladi. Dars jarayoni ham kompyuter vositasida o'tiladi va taklif qilingan mutaxassis yoki o'qituvchilar masofadan turib kompyuter vositasida dars jarayonini kuzatib boradi. Darsning yakunida bu kuzatuvchilar darsga nisbatan o'z munosabatini bildiradi va uning yangilik darajasini baholaydi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida innovatsion darslarni tashkil qilish o'qituvchining mahorat darajasi sifatida baholanmoqda. Integratsion darslarning boshlang'ich ta'limdagi yangiligi mashg'ulotlarning mutaxassislar ishtiroki va ularning yordamida o'tish bilan belgilanadi. Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida integratsion darslar maqsadga erishishning yo'llaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Integratsion darslarning samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi:- davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining muayyan fan doirasida to'liq bajarilishi;- har bir dars o'zaro tizimli bog'liqlikka ega bo'ladi;- har bir dars o'qitishning ko'p variantli tamoyillariga asoslanadi va bunda o'qituvchi boshqaruvchi vazifasini bajaradi; - har bir darsda imkoniyat doirasidagi texnik vositalar, metodlar va taklif etilgan o'qituvchi-mutaxassislar yordamidan foydalaniladi;- har bir dars o'quvchilarning faolligi asosida o'tkaziladi. Integratsion darslarning bunday samaradorlik xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:- innovatsion yondashuvlardan foydalanish;- mavzularning o'zaro bog'liqligiga erishish;- tushuntirish va o'zlashtirishning uyg'unlashuvi;- o'quvchilarning faolligi. Mazkur samaradorlik xususiyatlari hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasining rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki unda darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilmiy mutaxassislar yordamiga tayanib o'tish kutilgan samarani bermoqda. Bunday darslar ayniqsa, yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun juda qo'l keladi. Integratsion

darslarga qo'yiladigan talab mavzularni davlat ta'lim standartlari asosida yoritishdir. Shu sababli keyingi paytlarda integratsion darslarning didaktik asoslariga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsion darslar asoslaridan xabardor bo'lishi taqozo etiladi.

12-mavzu bo'yicha savollar

1. Integratsiyalashgan ta'limning asosiy maqsadi nimadan iborat va u boshlang'ich ta'limda qanday didaktik vazifalarni bajaradi?
2. Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda o'qituvchining mazmuniy, metodik va psixologik tayyorgarligi qanday ahamiyatga ega?
3. Zamonaviy integratsiya modeli hisoblangan STEAM yondashuvi boshlang'ich ta'limda qanday kompetensiyalarni shakllantiradi?
4. Integratsiyalashgan darslarni baholashda an'anaviy baholashdan farqli ravishda qaysi mezon va vositalardan foydalaniladi?
5. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshiruvchi uch omilni misollar bilan asoslab bering.

13-mavzu: Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalash. Turdosh fanlar integratsiyasi, bo'limlar, mavzular integratsiyasi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmunini integratsiyalash pedagogik jarayonning zamonaviy talablari asosida shakllanayotgan o'qitish modelidir. Integratsiya o'quv fanlarining bir-biriga yaqin bo'lgan mazmuniy jihatlarini uyg'unlashtirish, o'quvchi ongida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish, bilimlarning parchalanib ketishini oldini olish va o'quv jarayonini tabiiy hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan ta'lim bosqichma-bosqich o'quvchining kognitiv, faoliyat va kompetensiyalarini rivojlantirib,

bilimlar tizimlilik prinsipi asosida o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi aqliy faoliyati tabiatan sintez va umumlashtirishga moyil bo'lgani uchun integratsiya jarayoni bilimlarning yaxlit qabul qilinishiga, bog'lanishlarning tabiiy idrok etilishiga asos bo'ladi.

Turdosh fanlar integratsiyasi boshlang'ich ta'limda eng samarali shakllardan biri bo'lib, bir-biriga yaqin yo'nalishlarga ega fanlar mazmunini uyg'unlashtirilgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Masalan, "Ona tili – O'qish savodxonligi – Atrof-muhit – Tasviriy san'at" fanlarida til vositasida tabiatni tasvirlash, kuzatuvlar asosida hikoya tuzish, rasmni o'qish va rasm orqali matn yaratish integratsiyaning eng samarali ko'rinishidir. Matematika fanida esa real hayotiy misollarni tabiatshunoslik bilan bog'lash, o'lchash amallarini texnika va mehnat darslari bilan uyg'unlashtirish o'quvchi tafakkurida mantiqiy, miqdoriy va tasviriy tushunchalarning uyg'un shakllanishiga yordam beradi. Turdosh fanlar integratsiyasi o'quvchining bir vaqtning o'zida bir nechta ko'nikmani rivojlantirishiga, bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash malakasini shakllantirishga, o'quv jarayonida motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Bo'limlar integratsiyasi o'quv dasturlarining ichki tuzilmasida mavjud bo'lgan mazmunlararo bog'liqlikni mustahkamlaydi. Masalan, ona tili darslaridagi "Gap", "So'z turkumlari", "Matn" bo'limlarini turli mavzular bilan bog'lab o'qitish orqali o'quvchi nutqiy faoliyatni nazariy va amaliy jihatdan birgalikda o'zlashtiradi. Matematika bo'limlarida "Geometrik shakllar", "O'lchov birliklari", "Masalalar yechish" kabi mazmunlar integratsiyasi o'quvchida fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash va amaliy hisoblash ko'nikmasini uyg'un rivojlantiradi. Bo'limlararo integratsiya o'quv dasturining yaxlitligini ta'minlab, o'quvchilarni umumiy kompetensiyalarning shakllanishiga olib keladi. Mavzular integratsiyasi esa eng amaliy va o'qituvchi faoliyatiga eng yaqin integratsiya shakllaridan biri bo'lib, turli fanlar yoki bir fan ichidagi bir nechta mavzularni bitta dars jarayonida uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, "Bahar"

mavzusini o'qish darsida matn orqali, atrof-muhit darsida tabiiy jarayonlar orqali, tasviriyl san'atda rasm orqali, musiqa darsida bahor qo'shiqlari orqali o'rganish o'quvchida mavzuning kompleks qabul qilinishini ta'minlaydi. Mavzulararo integratsiya kichik yoshdagi o'quvchilar uchun tushunchalarning mazmunan mustahkam bog'lanishiga olib keladi, predmetlararo chegaralarni yumshatadi va ta'limni hayotiylik tamoyili asosida tashkil etadi.

Integratsiyalashgan darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining idrok jarayonini faol, mustaqil, izlanuvchan va ijodiy qilishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi motivatsion muhit yaratadi, faol metodlar – klaster, sinkveyn, guruhli ish, rolli o'yin, kuzatish, loyihaviy faoliyat, grafik organayzerlardan foydalanadi. Integratsiya qanchalik puxta rejalashtirilsa, dars samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. O'quvchi o'zlashtirilayotgan axborotni bir fan doirasida emas, balki tizimli bog'lanishda qabul qiladi va bu esa uzoq muddatli xotirani faollashtiradi. Boshlang'ich sinflarda integratsiya nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ham katta rol o'ynaydi. Mavzularning hayotiy voqealar bilan bog'lanishi o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tabiatga mehr, estetik did, axloqiy qadriyatlar, nutqiy madaniyat, jamoada ishlash malakalarini shakllantiradi. Integratsiyalashgan darslar amaliy faoliyatga yo'naltirilgani sababli o'quvchi o'z tajribasini oshiradi, fanlararo bog'lanishlardan to'g'ri foydalanishni o'rganadi. Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalash jarayoni o'qitishning zamonaviy modeli sifatida o'quvchilarning tafakkurini kompleks rivojlantirish, ularni turli fanlararo bog'lanishlar asosida bilim olishga o'rgatish, o'rganilayotgan hodisa yoki tushunchani to'liq tasavvur qilish imkonini yaratadi. Integratsiya o'quvchining atrof-muhitni alohida bo'laklarga ajratilgan emas, balki yaxlit bog'langan tizim sifatida idrok etishiga yordam beradi. Bu jarayon bevosita ta'limning tabiiy qonuniyatlariga asoslangan bo'lib, kichik yoshdagi bolalarda bilimlarni izchil umumlashtirish va sintez qilish ehtiyojini qondiradi. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda

mantiqiy-fikr yuritish, tasavvurni rivojlantirish, tahlil qilish, solishtirish va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Integratsiyaning samaradorligi yuqori bo'lishi uchun o'qituvchi fanlararo bog'lanishlarni sun'iy emas, balki mazmunan asoslangan shaklda berishi lozim, chunki integratsiya faqatgina fanlarni qo'shib yuborish emas, balki mazmunlar orasidagi tabiiy bog'liqlikni ochib berish demakdir.

Integratsiyalashgan ta'limning yana bir muhim jihati — fanlar o'rtasidagi umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Masalan, o'qish savodxonligi, muloqot madaniyati, axborotni qayta ishlash, kuzatish, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik kabi kompetensiyalar barcha “Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” fanining asosiy tayanch ko'nikmalari hisoblanadi. Integratsiyalangan darslar aynan shu ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida shakllantirib, o'quvchi faoliyatining turli yo'nalishlarda uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Turdosh fanlar integratsiyasida, masalan, “Ona tili—Atrof-muhit” fanlari bir mavzuni turli nuqtai nazardan ochib berishi orqali o'quvchida tushunchalarning chuqurroq shakllanishiga olib keladi. “Quyoshli kun” mavzusini olaylik: o'qish darsida matnda tasvirlangan tabiat manzaralari tahlil qilinadi, atrof-muhit fanida quyosh energiyasining tabiatga ta'siri o'rganiladi, matematika darsida quyoshli kunlar soni bo'yicha diagramma tuziladi, tasviriy san'atda esa shu manzara tasvirlanadi. Natijada bitta mavzu bir nechta fan orqali mustahkamlanadi, bilimlar bir tizimga tushadi, o'quvchi mavzuni turli rakurslardan tahlil qilishni o'rganadi. Bo'limlar integratsiyasi bosqichida o'quv dasturining ichki mantiqiy yaxlitligi ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflar uchun tuzilgan o'quv dasturlaridagi bo'limlar har bir fanda alohida ko'rinishi mumkin bo'lsa-da, ularning mazmuniy bog'liqligi o'qituvchining metodik yondashuvida uyg'unlashtiriladi. Masalan, matematikaning “Geometrik shakllar” bo'limi bilan tasviriy san'atdagi “Shakllarni modellash” bo'limi, atrof-muhit fanidagi “Fazoda mo'ljal olish” bo'limi mazmunan bir-birini to'ldiradi. Bunday bog'liqlik o'quvchining oladigan bilimni real

hayotdagi vaziyatlarda qo'llash ehtiyojini kuchaytiradi, bilimni "o'rganish uchun emas, qo'llash uchun" konsepsiyasiga asoslanadi.

Mavzular integratsiyasida esa o'qtuvchi fakultativ bog'lanishlar emas, balki shu paytdagi o'quv jarayonining ehtiyojidan kelib chiqqan holda mavzularni uyg'unlashtiradi. Misol uchun, "Sog'lom turmush tarzi" mavzusi o'qish darsida sog'lom ovqatlanish haqida matn o'qish, matematika darsida sog'lom ovqatlar kaloriyasini solishtirish, atrof-muhit darsida inson salomatligining ekologiya bilan bog'liqligini o'rganish, tarbiya darsida esa odob-qoidalar asosida to'g'ri ovqatlanish madaniyatini shakllantirish orqali integratsiyalashgan holda o'tiladi. Bu mazmunning o'quvchi tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga, kundalik hayot bilan bog'lanishiga, motivatsiyaning ortishiga olib keladi. Integratsiyalashgan o'qitish modeli o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarning sabab-oqibatni tushunish, voqealar ketma-ketligini aniqlash, turli manbalardan axborot yig'ish va tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalari integratsiya yordamida tezroq rivojlanadi. Chunki bir mavzuning turli fanlar orasidagi bog'liqliklarini ko'rish, o'zlashtirish va qayta ishlash jarayoni o'quvchining fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi. Integratsiya o'quvchini faol izlanishga undaydi, savol berishga o'rgatadi, tajribalar o'tkazish, kuzatishlar asosida fikrlash, mantiqiy bog'lanishlar topish jarayoniga jalb qiladi.

Integratsiyalashgan darslarni amalga oshirish o'qituvchidan yuqori metodik mahoratni talab qiladi. O'qituvchi fanlararo bog'lanishlarni aniqlay olishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib metodik senariy yaratishi, darsni mantiqan to'g'ri ketma-ketlikda tashkil qilishi kerak. Darsni puxta rejalashtirish integratsiyaning samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Shu bilan birga, integratsiyalashgan darslar o'quvchining qiziqishini kuchaytiradi, darsning monoton bo'lishini bartaraf etadi, darsni tabiiy hayot jarayoniga yaqinlashtiradi.

Mahorat darslarining mazmuni. Bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonini mazmun, uslub va yondashuv jihatlaridan yangilab borish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning an'anaviy va noan'anaviy tajribalaridan uyg'un foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu jihatdan "Mahorat darslari" tajribasi muhim omillardan biri hisoblanadi. "Mahorat darslari" o'zbek va jahon pedagogikasida keyingi ikki asr davomida shakllanib hamda rivojlanib kelmoqda. Avvalo ta'kidlash lozimki, mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengil, mehnatning yuqori sifati va barqaror sur'ati uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir. SHu jihatdan mahorat mutaxassis shaxsning tajriba orqali orttirgan o'ziga xos ko'nikma va ijodkorligining majmui hisoblanadi.

Mahorat darsi – tegishli tayyor ko'nikma va malakalarga tayanib muayyan mavzuni noan'anaviy usullar vositasida o'tish jarayonidir. Mazkur darslar tajribali va ilg'or mutaxassislar hamda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Bunday darslarni o'tkazishdan maqsad quyidagilar hisoblanadi:

- ilg'or o'qituvchilarning individual tajribasini jamoaga uzatish;
- yosh mutaxassislar uchun saboq berish;
- o'qituvchi va murabbiylarning ko'nikmalarini rivojlantirib borish;

- jamoaning umumiy tajriba darajasini yuksaltirish. Mahorat darslari maxsus tashkil etilishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonini mahorat darslari vositasida tashkil qilish samarali hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatning tajribali va mahoratli mutaxassislari darslarini tashkil etish;

- xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi mohir mutaxassislarning darslarini masofaviy ta'lim asosida tashkil qilish;

- mahorat darslarining natija ko'lamini monitoring qilib borish;

- har oyda bir marotaba “Mahorat darsi” o‘tkazishga erishish;
- talabalarning ham sinovdan o‘tkazuvchi darslarini tashkil qilib borish. Buning natijasida oliy pedagogik ta’lim jarayoni kuchayadi. Ayniqsa, mutaxassislik fanglarining muhim mavzularini mahorat darslari vositasida o‘tish samarali hisoblanadi. Chunki buning imkoniyati mavjul bo‘lib, mamalakatimizda turli muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O‘zgacha aytganda har bir mavzuning o‘z egasi bor, shu sababli ana shunday mutaxassislarni mahorat darslariga jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda mahorat darslarini tashkil qilish asoslari.

Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’limida mahorat darslarining muhim o‘rni bor. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda mahorat darslarini tashkil qilish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- har bir o‘quv fani yoki muhim mavzular bo‘yicha mahorat darslarini o‘tkazish Rejasini tuzish;- mahorat darslariga jalb qilinadigan mutaxassislar va o‘qituvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish;

- imkon qadar maktabning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- ta’lim maskani joylashgan hududdagi institut, ilmiy va o‘quv markazlari bilan hamkorlik qilish;

- mahorat darslari natijasini bayonlashtirib borish. Boshlang‘ich ta’lim darslarini mahorat darslari vositasida o‘tish qiziqarli va samarali bo‘lib, unda o‘quvchilarga ko‘proq ma’lumot va axborot berish imkoniyati mavjud.

Boshlang‘ich ta’limda mahorat darslarini tashkil qilish bilan quyidagilarga erishish nazarda tutiladi:

- mavzularni chuqurlashtirilgan tarzda o‘tish;

- darsning qiziqarli bo‘lishiga erishish;

- o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini kuchaytirish;

- darsning sifat va samaradorligini ta’minlash. Har bir maktabning shunday imkoniyati mavjudki, unga ko‘ra, mohir va tajribali o‘qituvchilarga ega. Bu toifa o‘qituvchilar mahorat darslarini

tashkil etish va o'tkazish mas'ullari sifatida belgilab qo'yilishi lozim. Ayniqsa, bunday imkoniyatdan boshlang'ich sinf darslarida foydalanish zaruriyat hisoblanadi. Misol uchun, Ona tili o'quv fanining ko'pgina mavzularini maktab o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi ishtirokida o'tkazish kutilgan samarani beradi. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil etish ishi uchun hududiy xalq ta'limi bo'limlarining metodistlari asosiy vazifani bajarishi kerak. Chunki bunday metodistlar shu hududdagi mohir va tajribali o'qituvchilar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'ladi. Bundan tashqari, muayyan hududdagi maktablarning mahorat darslari bo'yicha hamkorlik qilishi yanada samarali hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mahorat darslari har bir o'qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirib borishga asos hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining sifat va samaradorligini baholashda mahorat darslarining ham ahamiyati katta. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligini baholashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:- dars o'tuvchi tomonidan mavzuning yoritilish darajasi;

- dars o'tuvchi tomonidan darsda qo'llanilgan jihozlar, vositalar va metodlarning originalligi;

- o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi;

- darsga berilgan kuzatuvchining bahosi. Aynan marna shu indikatorlar asosida boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan mahorat darslarining samaradorligi baholanadi. Shu sababli mahorat darslarida quyidagilarning ishtirok etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- fan o'qituvchisi va Sinf rahbarining ishtiroki;

- maktab jamoasi o'qituvchilarining kuzatuvchi guruhi ishtiroki;

- maktab psixologining ishtiroki. Mazkur ishtirokchilar mahorat darsining mazmuni, sifati va darajasini baholaydi. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligiga erishish uchun quyidagi shakllarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- an'anaviy dars shaklida;
- masofaviy ta'lim shaklida;
- onlayn tarzidagi elektron – modulli ta'lim shaklida;
- videoanjuman shaklida. Bu dars shakllari boshlang'ich ta'limda

mahorat darslarining samaradorlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil etish bilan o'quvchilarning quyidagi darajalarda mavzuni o'zlashtirishiga erishiladi:

1) tanishuv darajasi (o'quvchilarning yangi mavzu va yangi o'qituvchini qabul qilishi);

2) algoritmik daraja (o'quvchilarning mavzuni xotirasida yaxshi saqlab qolishi);

3) evristik daraja (o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishi va yangi bilimga ega bo'lishi). Aynan mana shu darajalarga muvofiq mahorat darslarining samaradorligini baholab borish maqmadga muvofiq bo'ladi. SHunday qilib boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda mahorat darslari usulining ahamiyati kattadir.

13-mavzu bo'yicha 5 ta nazorat savoli

1. Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalashning asosiy maqsadi nima va u o'quvchi rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2. Turdosh fanlar integratsiyasi jarayonida o'quv materiallarini tanlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi?

3. Bo'limlar integratsiyasi dars mazmunining yaxlitligini ta'minlashda qanday o'rin tutadi va u o'quvchining idrok jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

4. Mavzular integratsiyasi jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodik yondashuvning asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.

5. Integratsiyalashgan darslarda o'quvchi kompetensiyalarining shakllanishi an'anaviy darslarga nisbatan qay jihatlari bilan farq qiladi?

14-mavzu: Maktab va oila integratsiyasi. Maktab va sinf jamoasida integratsiya, maktab – oila – mahalla integratsiyasi.

Maktab va oila integratsiyasi ta'lim jarayonining uzviy qismi bo'lib, bolaning har tomonlama rivojlanishida ikkita muhim muhitning — oila va maktabning birgalikdagi ta'sirini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bola shaxsida shakllanadigan xarakter, mehnatga munosabat, axloqiy qarashlar, nutq madaniyati va ijtimoiy faollik aynan oila va maktabning birgalikdagi pedagogik ta'siri ostida rivojlanadi. Oila bolaning birinchi ijtimoiy tajriba makoni bo'lsa, maktab uning bilim olishi, jamoada ishlashi va ijtimoiylashuvi uchun asosiy muhitdir. Shu sababli ta'lim jarayonining samaradorligi, o'qituvchining tarbiyaviy maqsadlari, sinfdagi psixologik muhit va o'quvchining individual rivoji ko'p jihatdan oila bilan yo'lga qo'yilgan integratsiyaga bog'liq bo'ladi.

Integratsiya jarayonida o'qituvchi oilaning tarbiyaviy salohiyatini bilishi, ota-onalar esa maktabdagi talablardan xabardor bo'lishi, o'quvchining ta'limidagi bo'shliqlarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun hamkorlikni yo'lga qo'yishlari kerak. Maktab va sinf jamoasida integratsiya o'quvchilarni jamoada ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash, tengdoshlari bilan muloqot qilish, jamoaviy qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sinf jamoasining shakllanishi o'qituvchining tashkiliy mahorati, sinfda yaratilgan psixologik muhit, o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan munosabati va o'zaro hurmat tamoyillariga suyanadi.

Integratsiyalangan sinf jamoasi o'quvchilarni bir-birining muvaffaqiyatiga befarq bo'lmagan, umumiy maqsad sari harakat qiladigan jamoaga aylantiradi. Jamoaviy loyiha ishlari, guruhli topshiriqlar, sinf yig'ilishlari, qiziqarli tadbirlar, ijtimoiy-foydali mehnat jarayonlari sinf jamoasi integratsiyasini mustahkamlaydigan amaliy vositalardir. Bu jarayon o'quvchilarda liderlik, mas'uliyat,

jamoaga uchun javobgarlik hissi, muloqot madaniyati, to'g'ri fikr bildirish va tinglash ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Maktab-oila-mahalla integratsiyasi O'zbekiston ta'lim tizimida "hamkorlik modeli" sifatida qaraladi. Mahalla institutining o'ziga xos ijtimoiy tarbiyaviy funktsiyasi mavjud bo'lib, u bolalarning axloqiy, ma'naviy, odobiy, vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, o'zini tutish madaniyati kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktab bu jarayonda tarbiya va ta'limni uyg'unlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi, oila esa bolaga kundalik amaliy tarbiya beradigan o'zak muassasadir. Mahalla esa ijtimoiy muhit sifatida bolani jamiyat hayotiga tayyorlaydi. Shu uch subyektning integratsiyasi o'quvchining uzluksiz tarbiyaviy rivojlanishini ta'minlaydi. Bu integratsiyaning samaradorligi ko'p jihatdan o'zaro axborot almashinuvi, muntazam uchrashuvlar, ota-onalar yig'ilishlari, birgalikdagi tadbirlar, sport musobaqalari, mahalla bilan hamkorlikda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy kechalar, ekologik aksiyalar, kitobxonlik dasturlari orqali yuzaga chiqadi. Maktab-oila-mahalla integratsiyasining zamonaviy modeli bir nechta prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi: o'zaro mas'uliyat, ochiq muloqot, pedagogik maqsadlarning birligi, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, bola manfaatlarini himoya qilish, xavfsiz tarbiyaviy muhit yaratish. Bu modelda ota-onalar maktab faoliyatining passiv kuzatuvchisi emas, balki pedagogik jarayonning to'laqonli hamkori sifatida qaraladi. Oila bilan ishlashda o'qituvchi pedagogik maslahat, psixologik qo'llab-quvvatlash, bola xulq-atvorini tahlil qilish, ijtimoiy holatini o'rganish, o'quv jarayonidagi muvaffaqiyat va muammolarni ochiq muhokama qilish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Mahalla esa tarbiyada milliy qadriyatlar, an'analar, mahalla faollari tomonidan tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar, yoshlar bilan ishlash bo'yicha tashabbuslar bilan hamkorlikni kengaytiradi.

Integratsiya modelining natijadorligi o'quvchining ijtimoiy moslashuvi, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, darsdagi faolligi,

jamoaviy munosabatlari, xulq-atvori va ma'naviy rivojida o'z aksini topadi. Maktab-oila-mahalla integratsiyasi to'g'ri tashkil etilgan taqdirda o'quvchida "ikkinchi pedagogik muhit" — ya'ni maktabdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy makon shakllanadi. Bu makon o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan tarmoq bo'lib xizmat qiladi. Maktab va oila integratsiyasining barqaror ishlashi uchun ota-onalar pedagogik madaniyatini oshirish muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar maktabda qo'llaniladigan o'quv dasturlari, baholash tizimi, tarbiyaviy yondashuvlar, sinfda qo'llaniladigan metodikalar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lganida, ular bolaga uy sharoitida ko'mak berishda ancha samarali bo'ladilar. Shu sababli boshlang'ich ta'limda "Ota-onalar universiteti", ma'rifiy seminarlar, psixologik treninglar, ota-onalar uchun ochiq darslar, metodik ko'rgazmalar tashkil etish integratsiyaning muhim bo'g'inidir. Bu orqali ota-onalar boladagi o'zgarishlarni to'g'ri baholash, murakkab vaziyatlarda pedagogik yondashuvni qo'llash, bolaga haddan ortiq bosim o'tkazmaslik, o'qishga bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslik kabi masalalarda professional ko'nikmalar hosil qiladilar. Oila va maktab o'rtasidagi integratsiya faqat nazorat va hisobdorlikka emas, balki o'zaro ishonch, o'zaro yordam va umumiy maqsad sari harakat tamoyillariga asoslanishi lozim. Shunda o'quvchining intellektual, psixologik va axloqiy rivoji bir xil yo'nalishda ketadi.

Maktab-oila-mahalla tizimida integrativ hamkorlik nafaqat tarbiya jarayonini, balki ijtimoiy xavfsizlik va bolani himoya qilish tizimini ham mustahkamlaydi. Mahalla faollari, profilaktika inspektorlari, yoshlar yetakchilari, psixologlar va maktab rahbariyati o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar bolalarning xulq-atvoridagi o'zgarishlarni erta aniqlash, risk guruhidagi o'quvchilar bilan tizimli ishlash va oilaviy muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi. Masalan, mahalla tomonidan tashkil etiladigan kitobxonlik tanlovlari, sport musobaqalari, ekologik tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar maktab va oila tarbiyasining mantiqiy davomi sifatida xizmat qiladi. Bu esa o'quvchining jamiyat oldidagi

mas'uliyatini kuchaytiradi, unda fuqarolik faolligi, jamoaga daxldorlik hissi va milliy qadriyatlarga sadoqat shakllanadi. Shu modelning samaradorligi shundaki, bola uch xil ijtimoiy muhit — oila, maktab va mahalla tomonidan bir xil tarbiyaviy yo'nalishda qo'llab-quvvatlanadi va natijada barqaror ijtimoiy ta'lim makoni vujudga keladi.

14-mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Maktab va oila integratsiyasining asosiy maqsadi nimadan iborat va u ta'lim jarayonining qaysi bosqichlarida eng samarali namoyon bo'ladi?

2. Sinf jamoasida integratsiyani shakllantirishda o'qituvchining tashkilotchilik roli qanday namoyon bo'ladi? Misollar bilan tushuntiring.

3. "Maktab-oila-mahalla integratsiyasi" modelining ijtimoiy-pedagogik afzalliklari nimalardan iborat?

4. Oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari (onlayn uchrashuvlar, ota-ona klublari, oilaviy loyihalar) ta'lim samaradorligini qanday oshiradi?

5. Mahalla institutining tarbiyaviy jarayonga qo'shilishi o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuviga qanday ta'sir ko'rsatadi? Tahlil qilib bering.

15-mavzu: Markaziy Osiyo va MDH davlatlarida integratsiyalashgan ta'lim. Integratsiyalashgan ta'limning zamonaviy tendensiyalari, integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishda MDH tajribasi.

Markaziy Osiyo va MDH davlatlarida integratsiyalashgan ta'lim tizimining shakllanishi o'tgan asrning oxiridan boshlab mustaqil davlatlar ta'lim siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir mamlakat bu jarayonga o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqdi. Sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan fanlarning qat'iy ajratilgan tizimidan farqli ravishda, mustaqillikdan keyingi islohotlar bilimning

yaxlitligini ta'minlash, fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish, o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish, amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish g'oyalarga asoslandi. Integratsiyalashgan ta'lim bu hududda nafaqat metodik yangilik, balki ta'lim mazmunining modernizatsiyasi, o'quv dasturlarini moslashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini qayta ko'rib chiqish zarurati sifatida qaraldi. Markaziy Osiyo davlatlarida integratsiya jarayoni ko'proq boshlang'ich ta'limda qo'llana boshlandi, sababi kichik yoshdagi o'quvchilarda mantiqiy bog'lanishlar, predmetlararo tushunchalar tizimli shakllanadi va ular uchun fanlarni sun'iy ajratish emas, balki mazmunning yaxlit taqdim etilishi samaraliroq natija beradi. MDH davlatlarida integratsiyalashgan ta'limning zamonaviy tendensiyalari bir necha umumiy yo'nalishda shakllanmoqda. Birinchi tendensiya — kompetensiyaga asoslangan yondashuvning kuchayishi. Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Ozarbayjon va O'zbekiston o'quv dasturlarini ishlab chiqishda integratsiyani kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy sharti sifatida belgilagan. Bu modelda integratsiyalashgan darslar natija sifatida o'quvchining mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish ko'nikmasi, ijodkorlik, kommunikativlik va amaliy qo'llash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ikkinchi tendensiya — tabiatshunoslik, matematika va texnologiya fanlarini STEAM modeli asosida bir butun tizim sifatida o'qitilishi. Masalan, Qozog'istonda boshlang'ich sinflarda "Tabiiy fanlar" kursi joriy qilinib, unga matematika, atrof-muhitni o'rganish, sodda fizika va biologiya elementlari integratsiya qilingan. Belarusda esa 2016-yildan boshlab integratsiyalashgan "Dunyo bilish" kursi boshlangan bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchisining ilmiy dunyoqarashini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan. Ozarbayjon ta'lim tizimida integratsiya jarayoni ko'proq ona tili, atrof-muhitni o'rganish va san'at fanlari kesimida amalga oshiriladi, bunda madaniy meros va milliy qadriyatlar asosiy integrativ g'oyalarni tashkil qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarida — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston — integratsiyalashgan ta’limning shakllanishi milliy o‘quv dasturlari islohotlari, pedagogik metodikalar yangilanishi va ta’lim muhitining modernizatsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Qozog‘iston integratsiyani ko‘proq kompetensiyaviy yondashuv orqali joriy qilgan bo‘lib, 2017-yildan boshlab yangilangan ta’lim standartlari asosida barcha darslar tematik bloklar kesimida o‘qitilmoqda. Asosiy e’tibor — o‘quvchining turli fanlarda olgan bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi va tahliliy fikrlashga ega bo‘lishi. Tojikiston va Qirg‘iziston ta’lim tizimida integratsiyaga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ta’lim mazmuni yangilanishida, ayniqsa, “Tabiatshunoslik”, “Texnologiya”, “O‘qish va savodxonlik” kabi fanlarda o‘quv materiallarining bir-biri bilan uyg‘unligi ta’minlanmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida integratsiya — boshlang‘ich sinfda o‘quvchining mantiqiy bog‘lanishlar orqali olamni yaxlit idrok etishini ta’minlash jarayoni sifatida qaraladi. “Yangi O‘zbekiston maktabi” konsepsiyasi va boshlang‘ich ta’lim dasturlarining yangilanishi natijasida ona tili, o‘qish savodxonligi, atrof-muhit, texnologiya va matematika fanlarida integratsiya kuchaytirildi. Misol uchun, o‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayoni matematika bilan bog‘lanib, grafik ma’lumotlar tahlili, diagrammalar bilan ishlash o‘rgatiladi. Atrof-muhit fanida esa texnologik tajriba elementlari (o‘lchash, kuzatish, modellashtirish) joriy qilinmoqda.

MDH tajribasida integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos yo‘nalishlari mavjud. Rossiya Federatsiyasi bu borada eng keng tajribaga ega davlatlardan biri bo‘lib, 1990-yillardan boshlab integratsiyalashgan kurslar, kompleks darslar va “Metapredmet” kompetensiyalarini shakllantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Rossiya Federal Davlat Ta’lim Standarti (FGOS) integratsiyani ta’limning majburiy tarkibiy qismi sifatida belgilagan bo‘lib, mazkur yondashuvda o‘quvchi faqat fan mazmunini egallamaydi, balki turli

bilimlarni birlashtirish, solishtirish, umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Qozog'iston tajribasi esa integratsiyani amaliy vazifalar orqali hayotiy kompetensiyalar bilan bog'laydi. Masalan, integratsiyalashgan darslarda o'quvchilar ekologik masalalarni o'rganib, ularni matematika hisob-kitoblari, geografik xaritalar bilan bog'lash, tajribalar qo'llash orqali real muammolar yechimini izlaydilar. Belarusda esa integratsiyaning asosiy modeli — ilmiy tafakkurni erta shakllantirish bo'lib, bunda o'quvchining kuzatish, sinash, solishtirish, umumlashtirish ko'nikmalari darsning markaziga qo'yiladi. MDHdagi barcha mamlakatlarda integratsiya o'qituvchining kasbiy roli va metodik tayyorligini yangilashni talab qilgani sababli pedagogika institutlarida integratsion pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, loyihaviy o'qitish, modul ta'limi bo'yicha maxsus kurslar joriy etilgan. Markaziy Osiyo va MDH tajribasi shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy o'quvchining hayotga tayyorligini oshiruvchi, fanlararo tafakkurini shakllantiruvchi va o'qitish jarayonining samaradorligini ko'taruvchi muhim omildir. Integratsiya ta'lim mazmunining moslashuvchan bo'lishini, o'quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarda yechim topa olishini ta'minlaydi. Bu jarayon barcha mamlakatlarda o'qituvchi faoliyatini qayta ko'rib chiqishni, yangi metodik kompetensiyalarni shakllantirishni, darslarni loyihalashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Natijada integratsiyalashgan ta'lim Markaziy Osiyo va MDH davlatlarida nafaqat metodik yangilik, balki ta'lim sifatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

15-mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Markaziy Osiyo davlatlarida integratsiyalashgan ta'limning shakllanishiga ta'sir qilgan asosiy omillar nimalardan iborat?
2. Qozog'iston, Belarus va Rossiya tajribasida integratsiyalashgan ta'lim qanday metodik modellarda joriy etilgan va ular o'zaro qanday farqlanadi?

3. MDH davlatlarida kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlarining integratsiyalashgan ta'lim bilan bog'liqligini misollar bilan tushuntiring.

4. O'zbekiston boshlang'ich ta'limi misolida integratsiya qaysi fanlar kesimida eng samarali qo'llanmoqda va buning didaktik afzalliklari nimalardan iborat?

5. Integratsiyalashgan ta'limni joriy etish jarayonida o'qituvchining metodik tayyorgarligi va yangi kompetensiyalarining ahamiyatini izohlang.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tushunchasi
2. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi
3. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendentsiyalari
4. SHaxs rivojida umumiy qonuniyatlar ta'siri
5. SHaxs rivojida ta'sir etuvchi omillar
6. SHaxs rivojlanganligini tashxislash
7. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi
8. Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi
9. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining hozirgi zamon rivojlanish tendentsiyasi
10. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi
11. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlash
12. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini faoliyatga yo'naltirish
13. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilish
14. Boshlang'ich ta'limda tarbiya
15. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish
16. Didaktika tushunchasi
17. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari
18. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligi.
19. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari
20. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish turlari
21. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlari
22. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir yondashuvlar
23. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullari
24. Dars - boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida
25. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish asoslari
26. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish mexanizmlari

